

## **1-MA’RUZA.**

**Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatsiyalash fanining maqsadi va vazifalari. Intellekt multk obyektlarning tasnifi, huquqiy sohalari va savdosi.**

### **REJA:**

1. Kirish;
2. «Intelektual multk» tushunchasi;
3. Intelektual multk xukuklari va jamiyatning rivojlanishi;
4. Patentshunoslik fanining vazifalari;
5. Intelektual multk obyektlari (IMO)ni tasniflash;
6. Patentshunoslikning asosiy tushunchalari va atamalari. IMOning xukukiy muxofazasi va savdosi.
7. Nazorat uchun savollar.

### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini ishlab chiqarishga ilg‘or g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilmasdan turib yanada rivojlantirish mungkin emasligi bugungi kunda barcha uchun ayon bo‘lib qoldi. O‘z navbatida, ushbu vazifalarni amalga oshirish o‘zimizda yetarli miqdorda malakali va istedodli kadrlar bo‘lishini talab qiladi. Bunda zamonaviy mutaxassis faqat o‘z kasbining o‘ziga xos tomonlarini mukammal bilibgina qolmay, balki yetarli darajada iqtisodiy xamda xuquqiy bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida ilg‘or ilmiy-texnika va texnologiya tovar bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Bunday intellektual tovar, odatda, muayyan ixtiolar, sanoat namunalari va tovar belgilari va boshqa obektlardan tashkil topadi. Bu obyektlar, masalan ixtironing tijorat qimmati, uning yuridik va texnikjixatdan qancha to‘g‘ri patentlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun, agar zamonaviy mutaxassis ixtiro, sanoat namunasi va xokazolarga intellektual multk xuquqini qanday muxoqaza qilishni bilmasa, bu uning tijorat nuqtai nazaridan qimmatli intellektual multk yarata olmasligini anglatadi. Demak, bunday mutaxassis ishining u ishlayotgan ilmiy tashkilot yoki umuman sanoat korxonasi (agar barcha mutaxassislar shunday bo‘lsa) faoliyatining samaradorligi qoniqarsiz bo‘lishi mumkin.

Shu bois xozirgi zamon olimlari, muxandislar, boshqaruvchilar va boshqalar uchun patentshunoslik soxasida muayyan bilimlarga ega bo‘lishi dolzarb masaladir. Aynan yana shu bilimlar butun jaxondagi ilg‘or texnologiyalardan foydalanishga yo‘l ochib berib, o‘z ixtiolarini yaratish ulardan samarali yo‘llar bilan foydalanish, litsenziyalarni sotish va sotib olish, patent tadqiqotlarini o‘tkazish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Ushbu ma’ruza matnida intellektual multki yaratish va muxofaza qilish, litsenziyalash va sertifikatsiyalash bo‘yicha materiallar keltirilgan bo‘lib u OO‘Yulari magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan.

### **2. “Intellektual multk” tushunchasi.**


Odamzot o‘z tabiatiga ko‘ra jismoniy jixatdan eng mukammal mavjudot emas. U kuch, tezlik va epchillikda ko‘plab xayvonlardan ortda qoladi. Lekin insonda eng kuchli imtiyoz – uning intellekti mavjud.

**Intellekt – insonni xayvonot dunyosidan ajratib turadigan asosiy belgi bo‘lib, rivojlanishning sifat jixatidan butkul yangi poQonasiga ko‘taradi.**

Intellekt so‘zi lotincha **intellectus** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, insonning aqli, ongi, fikrlash qobiliyatini bildiradi. Inson faqat intellektga ega bo‘lgandagina oqilona ishlar qilishi, ijod bilan

shuQullanishi va ma'naviy jixatdan to'laqonli xayot kechirishi mumkin. Inson o'z oldiga vazifalar qo'ya oladi va ularni xal qilish yo'llarini izlaydi, fan va san'at asarlarini yaratadi, texnikaning yangi namunalarini ixtiro qiladi, tobora takomillashgan xar tomonlama mukammal tovarlar ishlab chiqaradi, bino va sanoat korxonalarini quradi.

Insoniyat daxosi, uning intellekti bizni o'rabi turgan tabiatni, olamni o'zgartirishga qodir. Inson xayotining maqsadi – eng yaxshi narsalarga intilishdir. Ibtidoiy tuzumdan, ya'ni ilk mexnat qurollari yaratilgandan boshlab inson xar doim o'zining turmush tarzini yaxshilash, o'z ijodiy saloxiyatini amalga oshirish yo'llarini tinimsiz izlab kelgan. Shuning uchun xam qadim zamonlardan insoniyat jamiyatida birinchi **olimlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilar** paydo bo'lган. Ular insonlar xayoti va turmushini yengillashtiruvchi asbob–uskunalar ixtiro qilishgan, chorvachilik va qishloq xo'jaligini o'zlashtirib, atrof muxitdan ximoyalanish uchun uylar qurishgan, yuklarni tashish vositalarini o'yab topib, dengizda suzish uchun kemasozlik bilan shug'ullanishgan va bu bilan texnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni ta'minlab kelishgan.



*g'ildirak, kamon va uning o'qi, eshkak va qayiq, urchiq, kulolchilik uskunasi, plug va boshqalarning ixtiro qilinishi insoniyatning eng buyuk yutuqlari qatoriga kiradi.*



Arava, ming yildan muvaffaqiyatli foydalanib kelinayotgan ixtiro

Bugungi kunda bizni o'rabi turgan borliq va barcha narsalar, kundalik ust–bosh va ro'zg'or buyumlaridan tortib koinotdagi yo'ldoshlargacha qachonlardir inson tomonidan ixtiro qilingan va uning intellektual faoliyati natijasi xisoblanadi.



**Intellektual faoliyat insoniyat jamiyatini rivojlanishining asosiy sababidir.**

Intellektual faoliyatning eng muxim turlari **fan, san'at va texnik ijodiyot** xalqlar va millatlar, davlat va sivilizatsiyalar rivojinining doimiy yo'ldoshidir. Lekin fan va texnika taraqqiyoti ko'p asrlar mobaynida faqat insoniyat jamiyatining extiyojlarini qondirish vositasi bo'libgina xizmat qilib qolmadidi. Aksincha, tarixdan ma'lumki, fan va texnikaning rivojlanishi, adabiyot va san'at asarlari aksariyat xollarda teskari ta'sir ko'rsatib, insoniyat munosabatlarining rivojlanishida asos bo'lган va nafaqat ayrim kishilar, balki butun bir davlatlar va sivilizatsiyalar taqdiriga ta'sir etgan. Bunday ta'sir ayniqsa XX asrda, ilmiy–texnika inqilobi iqtisodiy va industrial rivojlanishda katta o'zgarishlarga olib kelgan vaqtida yorqin namoyon bo'ldi va bugungi kunda jaxonda shakllangan iqtisodiy va siyosiy tizimni belgilab berdi.

Insoniyat jamiyati o‘z boshidan quldarlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializmni kechirdi. XXI asrning boshida, asosiy rivojlantiruvchi kuchi **raqobat** bo‘lgan bozor iqtisodiyoti eng samarali iqtisodiy tizim ekanligi tan olindi. Ma’lumki, raqobatsiz rivojlanish bo‘lmaydi, shu bois xozirgi zamonda raqobat kurashi barcha soxalarda, davlatlar, butun bir mintaqalar va iqtisodiy ittifoqlar o‘rtasida yuz bermoqda. Raqobat xar doim jamiyatning xarakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan, shuning uchun insoniyat rivojlanishini xech bir mubolaQasiz **raqobat kurashi** tarixi, deyish mumkin.

Hamma vaqt xam raqobat kurashida kim **intellektual imkoniyatlar va intellektual faoliyat natijalaridan unumli foydala olsa** faqat o‘sha muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Shuning uchun yetakchi industrial davlatlar oldida butun jamiyat farovonligi yo‘lida yaratilayotgan ixtiolar, yangi texnologiyalarning uzluksiz oqib kirishi, yangi tovarlarning bozorga chiqarilishi uchun qanday sharoit yaratish zarur degan vazifa turibdi.

Javob o‘z-o‘zidan ayon. **O‘amma vaqt xam iqtisodiy ukladning asosini mulkchilik xuquqi tashkil etib kelgan.** Inson muayyan narsaga xo‘jayinlik yoki mulkka egalik xuquqini qo‘lga kiritgan taqdirdagina undan samarali va oqilona foydalanish yo‘llarini izlaydi.

Bundan shunday mantiqiy xulosa kelib chiqadiki, **insonning bilim olish, ixtiro qilishga tabiiy intilishi va ijodi maxsulidan iqtisodiy samara olinishi bir-biriga mos kelgandagina u o‘zining ijodi saloxiyatidan oqilona foydalana oladi, shu bois doimiy izlanishdan manfaatdor bo‘ladi.**

**Faqat mulk egasigina o‘z mulkidan yuqori darajada samarali va oqilona foydalanib, uni boshqara oladi.**

Bunday iqtisodiy raQbatlantirishning eng maqbul usuli shundan iboratki, inson o‘z intellektual saloxiyati natijalariga mulkchilik xuquqiga ega bo‘lishi, ya’ni, **intellektual mulkka egalik qilishi kerak.** Zero undan boshqa xech kim bu natjalarga xo‘jayinlik qila olmasin. Faqat uning o‘zигина intellektual ijodi natijalaridan o‘z istagicha foydalanish va boshqa shaxslarga sotish borasida mutlaq xuquqqa ega bo‘ladi.

Shu yerda biz xozirgi vaqtida jaxondagi eng muxim tushunchalardan biri xisoblagan intellektual mulk tushunchasiga duch kelamiz. Xo‘sh, intellektual mulkning o‘zi nima va uni qanday o‘lchash mumkin?

**Eng avvalo intellektual mulk intellektual faoliyat natijasidir.**

Barcha intellektual faoliyat xam intellektual mulk bo‘la olmasligi aniq. Inson fikrlaydi, uning xayolida bexisob Qoyalar, loyixalar tug‘iladi, lekin ularning xammasi xam xayotda amalga oshmay, qolib ketadi. Faqat boshqalar tomonidan obyektiv ravishda qabul qilinadigan, ya’ni o‘zining muayyan chegaralariga ega bo‘lgan Qoya va fikrlargina mulk bo‘la olishi ravshandir.



**Intellektual faoliyatning keyinchalik qandaydir biror-bir obyektiv (moddiy) shaklda ifodalana oladigan natijalarigina intellektual mulk bo‘ladi deb aytish mumkin**

### 3. Intellektual mulk xuquqlari va jamiyatning rivojlanishi.

Tabiiyki, o‘z intellektual mulkiga xuquqlar, agar ular amalga oshirilgan, ya’ni ishonchli muxofazalangan bo‘lsagina nimanidir bildirishi mumkin. Zero, xech kimning muayyan shaxsning intellektual mulkiga tajovuz qilish, uni noqonuniy olib qo‘yish yoki uning natijalaridan foydalanishga xuquqi yo‘q. Bunda iqtisodiy rivojlanishdan manfaatdor davlatning asosiy vazifasi **xar bir kishining o‘z intellektual mulkiga egalik qilish va undan foydalanish xuquqi ishonchli muxofazalanadigan tizimni ta’minlashdan iborat.**

Yana bir bor ta'kidlab o'tish lozimki, intellektual mulkning o'ziga xos xususiyati o'z egalariga foyda keltirishdan iborat, demak, mulk egalarining o'z mulkiga mutlaq xuquqi muxofazalangan xoldagina butun jamiyat foydasiga xizmat qila oladi.

Bir daqiqa bo'lsagina intellektual mulk xuquqlari muxofaza qilinmaganda nima bo'lishini tasavvur qilib ko'raylik. Bunda asarlarning yaratuvchilari noxalol raqobat kurashining qurbanlariga aylanishi, raqobatchilar yoki "qaroqchilar" o'zgalarning Qoyalari, texnik yechimlarini o'zlashtirib, bozorga ularning tovarlariga o'xshash, lekin narxlari ancha past tovarlarni chiqarishlari mumkin. Chunki ular tovar ishlab chiqarish uchun ilmiy tadqiqot, loyixalash ishlariga mablag' sarflamaydi. Bunday vaziyatda yangi tovarlar, texnologiyalar yaratish, innovatsiya ishlarini amalga oshirish foydasiz bo'lib, iqtisodiy jixatdan norentabel, umuman olganda zarar keltirishi ravshan. Bu insoniyatning industrial, texnik, madaniy rivojlanishi sekinlashishi, umuman to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin edi.



### Xulosa shuki, intellektual mulk xuquqlariga rioya qilmasdan turib XXI asrda ilmiy–texnikaning rivojlanishiga keng yo'l ochilmaydi.

Lekin intellektual mulk xuquqlariga rioya etish bilan masala oxirigacha xal bo'lmaydi. Jaxonda noxalol raqobat kurashi tobora avj olib borayotgani kuzatilmoqda. Umuman olganda intellektual mulk xuquqlari faqat yetakchi industrial mamlakatlarda tan olingan va unga qat'iy rioya etiladi. Barcha mamlakatlarda tegishli xuquqiy meyorlarni joriy etish, ularga oQishmay rioya qilish va eng asosiysi insonlarda tegishli mentalitetni shakllantirish bo'yicha katta ishlarni amalga oshirish zarur. **Xar bir shaxs boshqalarning xuquqlariga rioya etish oxir–oqibatda rivojlanishga va farovonlikka olib kelishi, xuquqlarning buzilishi esa jamiyatga xam katta zarar yetkazishini tushunib yetsin.**

Xar bir davlat noxalol raqobat kurashining oldini olish uchun qanday mexanizmlarni ishga solishi kerak? Tarixdan ma'lumki, eng ishonchli mexanizm bu xuquq bo'lishi mumkin, zotan aynan xuquqiy mexanizmlar intellektual mulkni muxofazalashga ishonchli va madaniy yondashuvni ta'minlaydi.

Biz bu yerda intellektual mulkning xuquqiy ta'rifiga to'xtalamiz.



**Intellektual mulk xuquqi yoki oddiy intellektual mulk – intellektual mulk obyektlarini yaratish, xuquqiy muxofazalash va foydalanish bilan bog'liq masalalarni tartibga soladigan xuquq soxasidir.**

Yana bir bor ta'kidlab o'tish lozimki, intellektual mulkni muxofazalash birdan–bir maqsad emas. **Intellektual mulk davlatning sanoati, savdo va madaniyatini rivojlantirish yo'lidagi ijodiy faoliyatni rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.**

Bugungi kunda intellektual mulk xuquqlariga rioya etish, xalol raqobatni ta'minlash bilan birga iqtisodiy rivojlanish bazisi bo'lib xizmat qiladigan xarakatlantiruvchi kuchdir. Intellektual mulk xuquqlarining ishonchli muxofazalanishi xuquqiy jamiyat rivojinining darajasi, davlatning iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichidir. Faqat shunday xuquqiy jamiyatdagina **ijodkor kishilar, biznesmenlar, tovarlar ishlab chiqaruvchilar va boshqalar o'z mexnatlari samarasini ko'rgandagina uni davom ettirish uchun iqtisodiy rag'batga ega bo'ladilar.**

Lekin davlat tomonidan kafolatlanadigan ishonchli muxofaza bu masalaning bir tomoni, xolos. Xalqimizning dono iborasi bor: "**xolva degan bilan ogiz chuchimaydi**". Uning muxim tarkibiy qismi muayyan kishilarning o'z xuquqlarini bilishi va bu xuquqlardan amaliyotda foydalana olishidir.



**Inson agar o‘z xuquqlarini, ularni qanday qilib yuridik jixatdan rasmiylashtirish, muxofaza qilish va foydalanishni bilsagina (ya’ni tijorat foydasi olsagina) u intellektual mulk xuquqlari tizimining foydali tomonlaridan xaqiqatan xam foydalana oladi.**

Yuqoridagilarni xisobga olgan xolda intellektual mulkni muxofazalash soxasida malakali kadrlarni tayyorlash ta’limning ajralmas qismi bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun istalgan kasbdagi xar bir ijodkor kishi kelajakda o‘zining intellektual mulkidan samarali foydalanish yo‘llarini aniq tasavvur etishi juda muximdir.

**Ushbu darslik bo‘lajak mutaxassislarga intellektual mulk to‘g‘risidagi zarur bilimlarni berish, intellektual faoliyat natijalarini to‘g‘ri rasmiylashtirish va tegishlichcha muxofaza qilish yo‘llarini tushuntirish va boshqa ko‘plab savollarga javob berishni maqsad qilib olgan.**

#### **4. Patentshunoslik fanining vazifalari**

Tarixdan ma’lumki, intellektual mulk obyektlarini muxofazalash ixtirolarni muxofazalashdan, ya’ni patent xuquqidan boshlandi. Faqat XIX asrning o‘rtalarida, sanoat namunalari va tovar belgilari, adabiyot asarlari, musiqa va xokazolar kabi obyektlarni xuquqiy muxofazalash boshlanishi bilan sanoat mulki (o‘zi ichiga patent xuquqini xam oladigan), mualliflik xuquqi tushunchalari va ularni birlashtiruvchi intellektual mulk atamasi paydo bo‘ldi.

Patent xuquqining bunday tarixiy ustuvorligi sabab patent atamasi ba’zan nafaqat ixtiolar, balki intellektual mulkning boshqa obyektlariga taalluqli juda ko‘p ta’rifu tushunchalar uchun asosiy bo‘lib qoldi. **Patentshunoslik** fani xam bundan istisno emas.



**Patentshunoslik intellektual mulkni yaratish, muxofazalash va undan foydalanishning xuquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa masalalarini o‘rganadigan fandir.**

Patentshunoslikning asosiy qismini ixtirolarni xuquqiy muxofazalash masalalarini o‘rganish tashkil etadi. Ixtirolarning bunday “maqomga” ega bo‘lishi bu obyektlarning xar qanday davlatning industrial va iqtisodiy rivojlanishidagi axamiyati bilan tushuntiriladi. Shu sabab, ilgari Patentshunoslik fani asosan texnik va tabiiy fanlar mutaxassisliklari bo‘yicha talabalarga o‘qitilar va intellektual mulkning boshqa masalalari kam o‘rganilar edi.

**Bugungi kunda Patentshunoslik o‘z ichiga xuquq, boshqaruv, iqtisodiyot, proqnozlash, informatika va boshqa soxalardagi bilimlarni qamrab olgan mustaqil ilmiy fandir.**

Uning tarmoqlararo fan ekanligi bu fanning muxim xususiyatlaridan biridir. Odatda, intellektual mulk soxasidagi mutaxassislar – patentshunoslar predmet belgisi (masalan, mexanika, elektr texnika, kimyo soxasidagi ixtiolar va xokazo) bo‘yicha emas, balki funksional belgisi bo‘yicha ixtisoslashar edilar. Bunday ixtisoslashuvga: patent xuquqi, patent ekspertizasi, patent axboroti, patent–litsenziya ishi, innovatsiya va menejment va xokazolarni misol qilib keltirish mumkin.

Patentshunoslik fani o‘z ichiga quyidagi bo‘limlarni oladi: intellektual mulk xuquqi, patent axboroti, patent tadqiqotlari, patent ekspertizasi, xalqaro litsenziya savdosi, ixtirochilik ijodiyoti uslubiyati, innovatsiya faoliyati va xokazo. Fanning bunday ixtisoslashuvi malakali patentshunosdan xuquqiy, texnik, iqtisodiy va boshqa masalalarni mukammal bilishni talab qiladi.

**Patentshunoslik fani tabiiy fanlarni va texnik fanlarni iqtisodiyot va xuquq bilan uygun birlashtira oladigan predmet bo‘lib qoldi.**

## 5. Davlat iqtisodiyotining rivojlanishida inson omilining roli.

Fanni o‘rganishdan asosiy maqsad shundan iboratki, bo‘lajak mutaxassislar patentshunoslikning bazaviy darajasini egallasinlar, yangi texnik yechimlarni yaratish va ularni tegishlicha muxofazalashni o‘rgansinlar, litsenziya bitimlari tuzish, bozorga “intellektual” maxsulot chiqarish, turli innovatsiya loyixalarini va boshqa ko‘p ishlarni amalga oshirishga qodir bo‘lsinlar.

Bunday bilimlar xar bir mutaxassisiga **xuquqiy va iqtisodiy jixatdan to‘g‘ri qarorlar** qabul qilish uchun patent, ilmiy–texnik va tijorat axborotining oqimida o‘zi mustaqil yo‘l topishiga imkon beradi. Bu xar qanday, ayniqsa fan va texnika soxasidagi mutaxassis, menejerlar, iqtisodiyotchilar, tadbirkorlar oldiga qo‘yiladigan talabdir. Zotan, bu texnik ijodiyotni rivojlantirish, o‘z ixtirolari va san’at asarlarini yaratish, ularni iqtisodiy jixatdan foydali tarzda joriy etish xamda foydalanishga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Patentshunoslik fanining bevosita vazifalari talabalarga O‘zbekiston qonunchiligi bilan intellektual mulk obyektlarini muxofazalash bo‘yicha beriladigan amaliy imkoniyatlarni o‘rgatishdan iborat.

Bo‘lajak mutaxassislar patent xujjatlari bilan ishslash, axborot qidiruvi olib borish, yangi texnik yechimlarni aniqlash, talabnomalarni rasmiylashtirish, litsenziya bitimlari tuzish va boshqalarni bilishlari zarur. Xususan, fanni o‘rganish natijasida xar bir talaba quyidagilarni bilishi shart:

- intellektual mulk xuquqlarining asosiy tamoyillari va intellektual mulk obyektlarini muxofazalash afzalliklari;
- O‘zbekiston Respublikasining intellektual mulk obyektlarini muxofazalash soxasidagi qonunchiligi;
- intellektual mulk obyektlarini muxofazalash soxasidagi xalqaro bitim va shartnomalar;
- O‘zbekiston va xorijda ixtiroga patent olish uchun talabnomalarni tuzish va berish tartibi;
- buyumlar dizaynini (sanoat namunalari) muxofazalash va tovar belgilarini ro‘yxatga olish;
- patent–axborot tadqiqotlari o‘tkazish, patent xujjatlarini taxlil qilish usullari;
- litsenziya shartnomasi tuzish qoidalari va intellektual mulkning litsenziya savdosini tashkil etish usullari;
- innovatsiya faoliyati va intellektual mulkni boshqarish asoslari;
- yangi ixtirolarni yaratish usullari va boshqa ko‘p masalalar.

Bugungi kunda xayotimizni intellektual mulk obyektlari: ixtirolar, sanoat namunalari, tovar belgilari, san’at asarlari va xokazolarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Intellektual mulkni xar doim xam muayyan kishilar yaratadi. Aynan malakali va iste’dodli mutaxassislar: olimlar, ixtirochilar, tadbirkorlar jamiyatni yurituvchi kuchdir.



**Industrial, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish soxasidagi xar qanday dasturlar va davlat siyosatining muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi bu soxa uchun tayyorlangan kadrlarning mavjudligi bilan belgilanadi.**

O‘zbekiston xuquqiy demokratik davlat qurish va xalqaro iqtisodiy xamjamiyatga integratsiyalash yo‘lidan shaxdam qadamlar bilan borayotgan xozirgi bir vaqtda bu juda dolzarbdir.

Bugungi kunda davlatning taraqqiyoti uchun xar bir ishchi–xizmatchining nafaqat zarur ishlab chiqarish bilimlari va malakalarini oshirishi, balki intellektual mulk xuquqlari soxasidagi asosiy bilimlarni egallashi xam o‘ta muximdir. Xozirgi vaqtida faqat ana shu bilimlar ilQor texnologiyalardan yanada samarali foydalanish imkonini berib, o‘z ixtiolarini, sanoat namunalari, mikrochizmalar topologiyasi va boshqa obyektlarni ishlab chiqishga turtki bo‘ladi.

**Shu bois “Patentshunoslik” predmetini o‘zlashtirish bo‘lajak mutaxassislarga jamiyat farovonligi yo‘lida o‘z kasbi bo‘yicha muvaffaqiyatlarga erishish imkonini beradigan salmoqli omildir.**

## **2-MA’RUZA. Intelektual mulqni muhofazalash, muhofaza xo‘jjatlarining turlari, patentlarni olish tartibi**

### **Reja:**

1. Intellektual mulkni muxofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchilik xujjatlari tizimi;
2. Mualliflik xuquqlari va alohida xuquqlar, intellektual mulk sohasida huquqiy subyektlar;
3. Muxofaza xujjatlarining turlari, muxofaza muddatlari;
4. Patentlarni olish tartiblari, patentlarning amal qilishining tugatilishi;
5. Patent bo‘yicha ishonchli vakillar va patent agentlari;
6. Mualliflik xuquq va turdosh xuquqlar.

### **1. Intellektual mulkni muxofazalash soxasida O‘zbekiston qonunchilik xujjatlari tizimi.**

Mamlakatimizning asosiy qonuni **O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidir**. Konstitusiya O‘zbekiston qonunchiliginini ishlab chiqishning asosiy qoidalarini belgilab beradi.

Bizning intellektual mulk obyektlarini xuquqiy muxofazalash soxasidagi amaldagi qonunchiligimiz bevosita **mulkka egalik va ilmiy–texnik ijodiyot erkinligi xuquqlari** aks etgan Konstitusianing IX bo‘limi 36– va 42–moddalaridan kelib chiqqan xolda ishlab chiqilgan.

Konstitusiya respublikamizning asosiy qomusi, “qonunlar uchun qonun” xisoblanadi. Shuning uchun u asosiy tamoyillarni ko‘rsatib bergen xolda, intellektual mulk xuquqlarini muxofazalash masalalari bo‘yicha muayyan qonuniy meyorlarni belgilamasligi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari muayyan xuquqiy mexanizmlarni belgilab beradi.



Intellektual mulk obyektlarini yaratish, muxofazalash va foydalanish bilan bog‘liq xuquqiy munosabatlar fuqarolik xuquqi soxasi xisoblanadi va **O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi** bilan tartibga solinadi. Intellektual faoliyat natijalariga mulkchilik xuquqini amalgalashish tartibini belgilovchi qonuniy baza Fuqarolik Kodeksining (1996 yil 29 avgustda tasdiqlangan) **“Intellektual mulk” IV bo‘limida** o‘z aksini topgan.

Respublikamiz fuqaro qonunchiligi xujjatlari “piramidasining” keyingi bosqichi bevosita amal qiladigan qonunlar bo‘lib, ular Fuqarolik kodeksining qoidalari asosida ayrim intellektual mulk obyektlari bo‘yicha muxofaza xujjatlari olish va foydalanishning muayyan tartibini belgilab beradi. Masalan, O‘zbekistonda intellektual mulk xuquqlarini muxofazalash bilan bog‘liq masalalarni tartibga soluvchi quyidagi qonunlar amal qiladi:

- 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan **“Mualliflik xuquqlari va turdosh xuquqlar to‘grisida”**gi qonun;
- 1994 yil 6 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda, va 2002 y. 29 avgustda o‘zgartirilgan **“Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”**gi qonun;
- 1993 yil 7 mayda qabul qilingan va 1997 yil 26 dekabrda, 2001 y. 30 avgustda o‘zgartirilgan **“Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari to‘grisida”**gi qonun. Yangi taxririda u “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish nomlari to‘g‘risida”gi qonun deb nomlangan;
- 1994 yil 6 mayda qabul qilingan va 2002 y. 5 aprelda o‘zgartirilgan **“EXM va ma’lumotlar bazalari uchun dasturlarni xuquqiy muxofazalash to‘g‘risida”**gi qonun;
- 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan va 2002 y. 29 avgustda o‘zgartirilgan **“Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”**gi qonun.
- 2001 yil 12 mayda qabul qilingan **“Integral mikrochizmalar topologiyasi xuquqiy muxofazalash to‘g‘risida”**gi qonun.

Intellektual mulk xuquqlarini muxofazalash soxasidagi “qonunchilik piramidası”ni vakolatli vazirlik va idoralarning meyoriy xujjatlari yakunlaydi. Odatda, aynan ana shu xujjatlar bilan intellektual mulk obyektlariga muxofaza olish bilan bog‘liq ayrim jarayonlar mexanizmi tartibga solinadi. Talabnomalarni tuzish va berish qoidalari, davlat ekspertizalarini o‘tkazish bo‘yicha turli yo‘riqnomalar bunday xujjatlarga misol bo‘la oladi.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Kodekslari va Konunlari Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi va O‘zbekiston Prezidenti tomonidan imzolanadi. Meyoriy xujjatlar vazirlik va <> idoralar tomonidan qabul qilinadi va albatta O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida tasdiqlanadi.

**2011 yilning 24 mayda** O‘zbekiston Respublikasi patent idorasi va mualliflik xukulkari agentligi asosida «O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk soxasida Agentlikni ta’sis kilish tugrisida» O‘zbekiston Prezidenti 1536 rusumli Farmoni kabil kilingan.

O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk soxasida Agentlik – bu:

- intellektual mulk obyektlarni xukuiy muxofazalash soxasida yagona davlat siyosatini ta’minlovchi davlat boshkarish organidir;
- jamiyatichilik asosida mulkiy xukuklarni boshkaruvchi tashkilotlar faoliyatining ustidan nazorat kilish, ularni davlat ruyxatiga olish vakolatlarga ega bulgash davlat organi

## 2. Mualliflik xuquqlari va aloxida xuquqlar, intellektual mulk soxasida xuquqiy subyektlar

Intellektual mulk yaratuvchilar uchun: muallif o‘z intellektual faoliyati natijalari bo‘yicha qanday xuquqlarga ega, degan savol albatta muximdir.

Dastavval intellektual faoliyat natijalariga mualliflik xuquqi bunday xuquq xisoblanadi. **Intellektual mulk obyektining muallifi deb o‘z ijodiy mexnati bilan bu mulknini yaratgan shaxs (jismoniy shaxs)gina tan olinishi mumkin.** Albatta, agar bunday obyekt (masalan, ixtiro, san’at asari va xokazo) bir necha shaxsning ijodiy mexnati maxsuli bo‘lsa, ular **xammualliflar** sifatidan tan olinadi.

Muallifga shuningdek **mualliflik nomi xuquqi** xam berilgan bo‘lib, unga muvofiq muallif o‘z obyektiga o‘zining nomi yoki boshqa maxsus nomni berish xuquqiga ega.

Qonun shuningdek **mualliflik prezumpsiyasini** xam belgilab beradi. Uning moxiyati shundan iboratki, muallif uning muallif emasligi isbot qilinmaguncha muallif xisoblanadi.

Intellektual mulk obyektlariga mulkiy xuquqlar nimadan iborat?

Ammo iqtisodiy nuqtai nazardan eng muxim xuquq bu fuqaro yoki yuridik shaxsning intellektual mulk obyektiga aloxida xuquqlaridir. Oldingi bo‘limlarda aytib o‘tganimizdek, aloxida xuquqning moxiyati shundan iboratki, intellektual mulk obyekti egasi o‘zining ixtiyoriga ko‘ra bu obyektdan yakka o‘zi istalgan shaklda va istalgan usulda foydalanishi mumkin. Faqat aloxida xuquqlar egasi intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslar foydalanishiga ruxsat berishi yoki man qilishi mumkin.



Muxofazalanadigan intellektual mulk obyektidan foydalangan xolda **yaratilgan maxsulotni ruxsatsiz tayyorlash, qo‘llanish, olib kirish, saqlash, sotishga taklif etish, sotish va boshqa xar qanday yo‘l bilan xo‘jalik oborotiga boshqacha tarzda kiritish**, shu jumladan patentlangan usulni qo‘llanish, yoki bevosita shu usul bilan tayyorlangan maxsulotni xo‘jalik oborotiga kiritish aloxida xuquqlarni buzhish xisoblanadi.



**Aloxida xuquqlar faqat qonunda ko‘zda tutilgan xollarda va faqat intellektual mulk obyektidan normal foydalanishga xamda uning egasining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilmagan taqdirdagina cheklanishi mumkin.**

Amaliyotda ko‘pincha muayyan xizmat vazifasini bajarish vaqtida intellektual mulk obyektini yaratish xollari xam uchrab turadi. Masalan, ilmiy tadqiqot instituti xodimining ishi yangi asboblarni yaratishdan iborat. Bunday obyektlar xizmat obyektlari, tegishlicha xizmat asarlari, xizmat ixtirolari va xokazo deb yuritiladi. Bunday usulda yaratilgan obyektlarga egalik xuquqi muallifning **ish beruvchisiga** tegishli bo‘ladi. O‘uquqlar, majburiyatlarning taqsimlanishi, mukofot miqdori va boshqalar muallif xamda ish beruvchi o‘rtasidagi shartnomada kelishib olingan bo‘lishi zarur. Odatda, bunday shartnomaga xodimni ishga qabul qilish vaqtida tuziladi.

Intellektual mulkning yana bir muxim tamoyilini qayd etib o‘tamiz: **intellektual mulk obyektlariga aloxida xuquqlar muayyan muddat mobaynida, shaxsiy nomulkiy xuquqlar esa muddatsiz amal qiladi.**

Aloxida xuquqlarning amal qilish muddati cheklanishi mantiqan shu bilan bogliqki, intellektual mulk xuquqlarini muxofazalashning bosh maqsadi jamiyatni ilmiy–texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirishni raQbatlantirishdan iborat. Vaqt jixatidan chegaralanmagan aloxida xuquqlar albatta bunday rivojlanishni raQbatlantiruvchi omildan ijtimoiy taraqqiyotni to‘xtatib qo‘yuvchi omilga aylanib qoladi.

Yana shunday bir umumiy qoida bor, u xar qanday mulk obyekti, u moddiy maxsulot (tovar, ko‘chmas mulk) yoki intellektual mulk obyekti bo‘lishidan qat’i nazar, taalluqli bo‘lishi mumkin. Uz egalariga foya keltirish uchun bu obyektlar ishlashi, ya’ni ulardan foydalanish shart. Tabiiyki, agar bunday obyekt egasi o‘z mulkidan samarali foydalana olmasa, u bu obyektni juda katta foya bilan sotishi yoki vaqtincha foydalanish uchun berishi mumkin. Bularning barchasi intellektual mulk obyektlariga xam taalluqlidir.

**Intellektual mulk obyekti aloxida xuquqlarning egasi bu xuquqlarni boshqa shaxslarga to‘laligicha yoki qisman berishi mumkin.**

Intellektual mulk obyektlari mulkning moddiy obyektlari kabi meros sifatida o‘tishi mumkinligini qayd etib o‘tamiz. Masalan, patent egasining vafotidan so‘ng va patent egasi yuridik shaxs bo‘lsa u qayta tashkil etilayotganda unga tegishli intellektual mulkka aloxida xuquqlar uning **merosxo‘ri** yoki boshqa xar qanday **qonuniy vorisiga** o‘tadi.

### **3. Muxofaza xujjalarning turlari, muxofaza muddatlari**

Qayd etib o‘tilganidek, mualliflik xuquqi va turdosh xuquqlar obyektlari xech qayerda ro‘yxatga olishni talab etmaydi va bu obyektlarga aloxida xuquqlar asar ilk bor e’lon qilingan vaqtdan boshlab amal qiladi.

Qonunchilikka muvofiq mualliflik xuquqlari amal qilishining quyidagi muddatlari belgilangan:

- adabiyot, fan, san’at, musiqa asarlari va boshqa obyektlarga mualliflik xuquqi muallifning butun umri davomida va vafotidan so‘ng 50 yil mobaynida amal qiladi. Bunda mualliflar bir nechta (xammualliflar) bo‘lsa, bu muddat so‘nggi muallif vafot etgan sanadan boshlab xisoblanadi;
- turdosh xuquqlarning amal qilish muddati asarni birinchi marta yozib olish yoki ijro etish (efirga chiqish) sanasidan boshlab 50 yilga teng bo‘ladi.

Mualliflik xuquqidan farqli ravishda sanoat mulki obyektlariga xuquqlar bunday obyektlarga muxofaza xujjalarning bir necha turi ko‘zda tutilgan bo‘lib, O‘zbekistonda quyidagi muxofaza xujjalari amal qiladi:



- **ixtiroga patent** – ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma yil mobaynida amal qiladi, moxiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi, va patent egasining iltimosi bilan yana besh yilga o‘zaytirilishi mumkin;
- **sanoat namunasiga patent** – moxiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi, patent egasining iltimosi bilan amal qilish muddatini yana besh yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi;
- **foyDALI modelga patent** – foydali modelga ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va ustuvorlik sanasidan boshlab 5 yil mobaynida amal qiladi va talabnomha beruvchining iltimosiga ko‘ra yana uch yilga uzaytirilishi mumkin.
- **tovar belgisiga guvoxnama** – ekspertiza o‘tkazilgandan so‘ng beriladi va belgining ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida amal qiladi va xar safar 10 yilga uzaytirish imkoniyatini saqlab qoladi.

#### 4. Patentlarni olish tartiblari, patentlarning amal qilishining tugatilishi

QZ ixtiro, sanoat namunalari, tovar belgilarini muxofazalash uchun qanday xatti–xarakatlarni qo‘llash zarur degan savol tug‘iladi?

Qonun bilan muxofaza xujjatlari olish uchun zarur **maxsus tartiblar** belgilab berilgan.

Eng avvalo muxofaza xujjati (**patent, guvoxnama**) **berishga tegishli talabnomani** tuzish va uni Patent idorasiga taqdim etish zarur. Bunda masalan, ikki ixtirochi bir–biridan mustaqil ravishda bir–biriga o‘xshash ixtiro yaratgan bo‘lsa, bu bir xil obyektga egalik xuquqi kim biringchi bo‘lib to‘g‘ri tuzilgan talabnomani Patent idorasiga taqdim etsa, o‘scha kishiga tegishli bo‘ladi. Unda **ustuvorlik** bor deb xisoblanadi.



**Obyektning ustuvorligi – qonunchilikka muvofiq ravishda belgilanadigan vaqt bo‘yicha birinchilikdir.**

Ustuvorlikni aniqlashning boshqa xollari xam mavjud bo‘lib, ularni biz 6 Leksiyada ko‘rib chiqamiz.

Muxofaza xujjatlari olish uchun talabnomha berish, shuningdek boshqa yuridik xarakatlarni va tartiblarni amalga oshirish uchun talabnomha beruvchi davlat **patent bojlarini** to‘lashi zarurligini qayd etib o‘tamiz. Patent bojlari to‘lanadigan xarakat va tartiblar ro‘yxati, ularning miqdori va to‘lash muddatlari, shuningdek bojlarni to‘lashdan ozod qilish, bojning miqdorini kamaytirish yoki qaytarib olish uchun asosnomalar Patent idorasiga tomonidan Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, shuningdek boshqa manfaatdor davlat boshqaruv organlari bilan kelishgan xolda belgilanadi.

Endi muxofaza xujjatlari berish tartibini ko‘rib chiqamiz. Qonunga muvofiq patent olish uchun quyidagilar talabnomha berishi mumkin:

- sanoat mulki obyekti muallifi (mualliflari) yoki uning merosxo‘ri;
- muallifning vorisi, ya’ni muallif shartnomasi asosida o‘z xuquqlarini bergan xar qanday jismoniy yoki yuridik shaxs;
- muayyan ixtiro, foydali model va xokazo xodim o‘z xizmat vazifasini bajarayotgan vaqtida yaratilgan xollarda muallifning ish beruvchisi (firma, korxona). Yana bir marta qayd etib o‘tamizki, xuquqlarning berilishi muallif xamda ish beruvchi o‘rtasidagi shartnomasi bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Patent idorasasi intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi va davlat ekspertizasini o'tkazadi. Davlat ekspertizasini o'tkazish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda talabnoma berilgan obyektning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi.

---



Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalariaga patent olish uchun berilgan talabnomalar bo'yicha **davlat ilmiy-texnika ekspertizasi** o'tkaziladi, u esa o'z navbatida rasmiy ekspertiza, foydali modelga ekspertiza va moxiyati bo'yicha ilmiy-texnik ekspertizaga bo'linadi.

---

Foydali modelga patent **foydali modelga ekspertiza** o'tkazilgandan so'ng, ixtiro va sanoat namunalariaga patentlar esa **moxiyati bo'yicha ekspertiza** o'tkazilgandan so'ng beriladi.

Qayd etib o'tish kerakki, foydali modelga ekspertiza va moxiyati bo'yicha ekspertiza talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra boshlanadi. Bunday iltimosnomani Patent idorasining rasmiy ekspertiza ushbu talabnomani ko'rib chiqishga qabul qilingani to'g'risidagi qarori sanasidan boshlab uch oy mobaynida berilishi mumkin.

**Rasmiy ekspertiza** vaqtida birinchi navbatda talabnomaning to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Masalan, talabnomaning to'liqligi (zarur xujjatlarning mavjudligi, talab etiladigan nusxalar soni va xokazo) tekshiriladi, oldindan noto'g'rili ma'lum bo'lган talabnomalar (masalan, sanoat namunasi taklif etiladi, lekin ixtiroga patent berilishi so'raladi) ajratiladi, shuningdek boshqa rasmiy jixatlari (muallifning imzosi, talabnoma beruvchi korxona muxri va xokazolar mavjudligi) tekshiriladi. Rasmiy ekspertiza natijasida to'g'ri rasmiylashtirilgan talabnomaning berilgan sanasi bo'yicha obyektning **ustuvorligi** belgilanadi (boshqa sanalar bo'yicha ustuvorlikning belgilanish xollarini 6 Leksiyada qarang).

Ekspertizaning keyingi bosqichi moxiyati bo'yicha ekspertiza (ixtiro va sanoat namunalarining patentga talabnomalar uchun) yoki foydali modelga ekspertiza (tegishlicha foydali modellar uchun)dir. Bu ekspertizalar vaqtida patent so'ralayotgan obyektning belgilangan patentga layoqatlilik mezonlariga mosligi tekshiriladi. Agar obyekt patentga layoqatlilik mezonlariga mos bo'lsa, u tegishlicha ixtiro, foydali model, sanoat namunasi deb tan olinadi. Qonunga muvofiq ko'rsatilgan obyektlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

---



- **ixtiolar uchun – uning yangiligi, ixtiro darajasi va sanoatda qo'llanilishi;**
  - **foydali model uchun – uning yangiligi va sanoatda qo'llanilishi;**
  - **sanoat namunasi uchun – uning yangiligi, o'ziga xosligi va sanoatda qo'llanilishi.**
- 

Patent ekspertizasi o'tkazish vaqtida foydalananiladigan eng muxim tushunchcha **texnika darajasi** tushunchasidir. **Texnika darajasi** o'z ichiga ixtironing ustuvorlik sanasigacha jaxonda barcha uchun ma'lum bo'lган va barcha foydalananadigan ma'lumotlarni oladi.

Foydali modelga ekspertizaning moxiyati bo'yicha ekspertizasidan farqi shundaki, foydali modelga ekspertiza vaqtida talabnoma berilgan obyektning (foydali model) maxalliy yangilik mezoniga muvofiqligi tekshiriladi, ya'ni **patent ekspertlari** faqat O'zbekistondagi mavjud patent xujjatlarini tekshiradilar, moxiyat jixatidan ekspertizada esa obyektning jaxon texnika darajasiga muvofiqligi tekshiriladi. Patentga layoqatlilik mezonlari va patent ekspertizasini o'tkazish masalalari ushbu darslikning keyingi mashqulotlarida ko'rib chiqiladi.

Rasmiy ekspertiza, foydali modelga ekspertiza va moxiyati bo‘yicha ekspertiza o‘tkazishning belgilangan moyoriy muddatlari tegishlicha 1 oy, 3 oy va ikki yilni tashkil etadi. Talabnoma beruvchilar uchun bu jarayonlarni tezlashtirish, “tezlashtirilgan ekspertiza” o‘tkazish mumkin, buning uchun belgilangan patent bojlarini to‘lash zarur.

Tovar belgisini berish to‘g‘risidagi talabnomalar bo‘yicha ekspertiza tovar belgisini **rasmiy ekspertiza** va **talabnomada ifodalangan belgini ekspertizadan** o‘tkazishdan iborat. Rasmiy ekspertiza talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab bir oylik muddat ichida, ifodalangan belgini ekspertiza esa dastlabki ekspertiza tugallangandan so‘ng talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab 9 oy mobaynida o‘tkaziladi, bunda belgining tovar belgilarini ro‘yxatga olish shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Sanoat mulki obyektlarini ekspertizadan o‘tkazish jarayonida ekspertlar talabnoma beruvchidan yetishmagan, talabnomaga aniqlik kirituvchi materiallarni so‘rab olish va boshqa masalalarda murojaat qilish xuquqiga egadirlar.

Patent idorasi o‘tkazilgan davlat ekspertizasi natijalari bo‘yicha muxofaza xujjatlari – patent, guvoxnama berish to‘g‘risida qaror qiladi yoki bunday xujjatlarni berishni rad qiladi.



Agar ijobiy qaror qabil qilinsa, Patent idorasi tegishli sanoat mulki obyektini Davlat reyestridda Davlat ro‘yxatiga oladi va “**Rasmiy axborotnoma**” byulletenida patentlangan obyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni chop etadi.

Patent idorasi ma’lumotlar rasmiy ravishda chop etilgandan so‘ng uch oy o‘tgach patent egasiga (yoki tovar belgisi egasiga) muxofaza xujjati, tegishlicha patent yoki guvoxnama beradi. Patent yoki guvoxnama O‘zbekiston Respublikasi nomidan beriladi va Patent idorasi raxbari tomonidan imzolanadi. **Shuni qayd etib o‘tish kerakki**, xamma vaqt bitta obyektga faqat bitta muxofaza xujjati (patent yoki guvoxnama) beriladi. Agar patentning egasi bir nechta bo‘lsa (masalan, ikki firma yoki ikki xammuallif) ular bitta patent oladilar. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli masalalarni, masalan, xujjatning asli va nusxalari kimda bo‘lishini o‘zaro kelishib oladilar, yoki ular asl nusxani navbatli bilan o‘zlarida saqlashlari mumkin va xokazo.

Qayd etib o‘tamizki, keyinchalik patent egasi patent kuchda saqlab turish uchun muntazam ravishda boj to‘lab turishlari shart, boj to‘lamaslik muxofaza xujjatining amal qilishi to‘xtashiga olib kelishi mumkin. Patent quyidagi xollarda xam amal qilishdan to‘xtatilishi mumkin:

- patentning amal qilish muddati tugagach;
- patent yoki tovar belgisining xaqiqiy emasligi uchinchi tomonning da’vo arizasi bilan sud orqali tasdiqlanganda;
- patent egasining Patent idorasiga bergen arizasi asosida.

Agar patent yoki guvoxnomaning amal qilishi muddatidan ilgari to‘xtatilsa, bu xaqdagi ma’lumot Patent idorasining “Rasmiy axborotnoma” byulletenida chop etiladi.

## 5. Patent bo‘yicha ishonchli vakillar va patent agentlari

Sanoat mulki obyektlarini patentlash bo‘yicha yuqorida qayd etib o‘tilgan talabnoma xujjatlarini rasmiylashtirish, ekspertiza o‘tkazish, Patent idorasi bilan ish yuritish juda murakkab jarayondir. Shuning uchun qonunchilikda fuqaro va yuridik shaxslarning o‘z manfaatlarini ximoya qilishda maxsus shaxslar – patent bo‘yicha ishonchli vakillar xizmatiga murojaat qilishlari mumkinligi ko‘zda tutilgan.



Intellektual mulk xuquqi soxasida tegishli malakaga ega bo‘lgan, attestatsiyadan o‘tgan va Patent bo‘yicha ishonchli vakillar Davlat reyestridda ro‘yxatga olingan shaxslar **patent bo‘yicha ishonchli vakil** deb ataladi. Patent bo‘yicha ishonchli vakillar ishonchnoma bo‘yicha o‘z

mijozlarining manfaatlarini Patent idorasiga qilish ximoya qilish xuquqiga egadir.

---

O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha xorij fuqarolari va yuridik shaxslari Patent idorasiga bevosita talabnama berish xuquqiga ega emas. **Ular patent olish va uni kuchda saqlab turish ishlarini O'zbekistonning patent bo'yicha ishonchli vakillari orqali yuritishlari mumkin.** Bu talablar (deyarli barcha xorij mamlakatlari qonunchiligidagi shu kabi meyorlar mavjud) turli mamlakatlarning qonunchiligi talabnomalarni rasmiylashtirish, ularni ko'rib chiqish masalalari bo'yicha bir-biridan keskin farq qilishi bilan bog'liq, bu yerda albatta tillardagi farq katta rol o'ynaydi. Shuning uchun xorijiy talabnama beruvchilardan milliy qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlanmagan talabnomalarni qabul qilish ularni ekspertizadan o'tkazishni ancha qiyinlashtiradi. Bu oqibatda rasmiy mezonlar bo'yicha patent berishni rad qilishga olib keladi, bu esa o'z navbatida talabnama beruvchilarning o'zlarini uchun xam, Patent idorasiga uchun xam foydasizdir.

---



Patent bo'yicha ishonchli vakillardan tashqari **patent agentlari** xam mavjud bo'lib, ular intellektual mulk soxasida muayyan malakaga ega bo'lgan, lekin patent bo'yicha ishonchli vakillar reyestrida ro'yxatga olinmagan shaxslardir. **Patent agentlari** intellektual mulk soxasida turli xizmatlarni ko'rsatishi mumkin, lekin ular Patent idorasiga va boshqa tashkilotlarda o'z mijozlarining manfaatlarini ximoya qilish xuquqiga ega emas.

---

Yuqorida qayd etilganidek, patent qat'iy chegaralangan xududda amal qiladi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi patenti faqat O'zbekiston xududida amal qiladi. Shuning uchun tovar va xizmatlarni eksport qiluvchilar va o'z intellektual mulklarini xorijda xam ximoyalashni istaganlar o'z obyektlarini boshqa davlatlarda xam patentlashi zarur. Ixtirolar va sanoat namunalarini xorijda muxofazalash usullari va tartiblari 10 Leksiyada ko'rib chiqiladi.

### Nazorat savollari

1. Intellektual mulkni muxofazalash soxasida O'zbekiston qonuniy bazasi nimadan iborat.
2. Intellektual mulk obyektlariga alovida (mutlaq) xuquqlar nimadan iborat.
3. Xizmat ixtirosi nima.
4. O'zbekistonda qanday muxofaza xujjalari amal qiladi.
5. Patent olish uchun zarur tartiblar.
6. Qanday xollarda patent amal qilishidan to'xtatilishi mumkin.
7. Patent bo'yicha ishonchli vakillar va patent agentlari kimlar.

## 3- MA'RUZA. MUALLIFLIK XUQUQI VA TURDOSH XUQUQLAR

### REJA:

1. **Mualliflik xuquqi obyektlari;**
2. **Asarlar mualliflari va xammualliflarining xuquqlari. Mualliflik xuquqining tamoyillari;**
3. **Mualliflik xuquqining amal kilish muddati. Mualliflik xuquqining muxofazalash belgisi.**
4. **Turdosh xuquqlarning moxiyati va uziga xos xususiyatlari. Turdosh xuquqlarni muxofazalash belgisi;**
5. **Mualliflik xuquqining amal kilish xududi;**

## 6. Mualliflik xuquqini muxofazalash soxasida xalqaro konvensiyalar.

### 1. Mualliflik xuquq i obyektlari

**Adabiyot, fan va san'at** asarlari madaniyatning asosini tashkil etadi. Uech bir xalq, millat yoki sivilizatsiya madaniyatsizyashay olmaydi. Bugungi kunda bu mualliflik xuquq i obyektlari fakat madaniyat, ma'naviy rivojlanishning ajralmas kismi emas. Adabiyot, fan va san'at asarlari allakachon iktisodiyot, xalqaro iktisodiy munosabatlarning muxim omiliga aylangan.

Mutaxassislarning baxolashicha xar yili 1000000 ga yakin kitob nashr etiladi va 5000 ga yakin film chikariladi, bir yilda sotiladigan fonogrammalar soni esa 3 milliardni tashkil etadi. Tegishlichaularning savdo oboroti unlab milliard AQSH dollaridan ortadi. Bundan mualliflik xuquqlarining buzilishi kanday iktisodiy zarar keltirishi mumkinligi kurinib turibdi.

Mualliflik xuquqining xar kanday buzilishi – eng avvalo xuquqlar egasi, muallif, uz ijodiy mexnati bilan asar yaratgan shaxsga yetkazilgan moddiy zarar. Bu uning asarni yaratishga sarflagan xarajatlari uzini oklamaydi, yangi asarlar yaratilishi tuxtab koladi, madaniyat rivojlanishi xam sekinlashadi demak. Bundan tashkari, “karokchilik” solik tulashdan kochishdir, demak mualliflik xuquqlarining iste'molchilari va oxir-okibatda oddiy fukarolar zarar kuradi.



**Shunday kilib, mualliflik xuquq larining buzilishi, “karokchilik” davlat iktisodiyoti va umuman butun jamiyat manfaatlari uchun katta zarar yetkazadi.**

XX asrda an'anaviy mualliflik xuquqi obyektlariga **turdosh xuquqlar** xam kushildi, ularga fonogrammalar, ijrolar, saxna asarlari, efir yoki kabel eshittirishlari tashkilotlarining kursatuvlari kiradi.

Shuningdek, mualliflik xuquqlari meyorlariga muvofik ravishda **EUM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarni** muxofazalash xam boshlandi.

Endi kanday obyektlar mualliflik xuquqi va turdosh xuquqlarga kirishini tularok kurib chikamiz:

- **adabiy asarlar:** romanlar, kissalar, xikoyalar, she'rlar, drama asarlari va mazmuni (ilmiy, ukuv, publitsistik asar yoki boshka adabiyot), xajmi, maksadi (kungil ochar, ma'rifiy, axborot, reklama, tashvikot va xokazo), shakli (kulyozma, mashinkada yozilgan yoki bosma matn, kitob, risola, varaka, gazeta, jurnal), e'lon kilingan yoki kilinmaganligidan kat'i nazar boshka turli shakldagi asarlar;
- **dramatik asarlar va ssenariylar;**
- **musika asarlari:** mumtoz yoki yengil musika, kushik, xor musikasi, operalar, musikiy komediylar, operettolar; instrumental (asboblarda ijro etiladigan), xam bir asbobda (solo), xam bir necha asbobda (sonatalar, kamer musika va xokazo) yoki kup asbobda ijro etiladigan (orquestr) musikalar;
- **xoreografiya asarlari va pantomimalar;**
- **badiiy asarlar:** mazmuni (anik yoki mavxum) va maksadi (sof san'at, reklama uchun)dan kat'i nazar ikki ulchamli (rasmlar, suratlar, gravyuralar, litografiyalar va xokazo) yoki uch ulchamli (xaykallar, me'morchilik obidalari) asarlar;
- **manzarali-amaliy va saxna-grafika san'ati asarlar;**
- **me'morchilik, shaxarsozlik va boKdorchilik-park san'ati asarlar;**
- **xarita yoki texnik chizmalar:** shu jumladan geografiya, topografiya va boshka fanlarga oid geografik, geologik va boshka xaritalar, tarxlar, eskizlar;
- **audiovizual asarlar:** maksadi (kinojara, televideniye orkali namoyish kilish va xokazo), janri (kinodrama, xujjalni film), suratga olish usuli (badiiy suratga olish, multiplikatsiya va xokazo) yoki texnologik jarayoni (shaffof plenkaga olingan, videomagnitofon plenkasiga olingan, slayd film, diafilm va xokazo) dan kat'i nazar kino-, tele-, videofilmlar (ovozsiz va ovozli), shuningdek radio asarları;
- **fotografiya asarlari:** mavzui (portretlar, peyzajlar, kundalik vokealar va xokazo) va kanday maksadda ishlanganidan kat'i nazar, shu jumladan fotografiyaga uxshash usullar bilan olingan asarlar;

- **barcha turdagи elektron–xisoblash mashinalari (EUM) uchun dasturlar, shu jumladan amaliy dasturlar va operatsion tizimlar.** Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan xozirgi vaktda EUMlar uchun dasturlar mualliflik xuquq i obyektlari orasida aloxida urin egallaydi. Shuning uchun O‘zbekistonda bu obyektni muxofazalash tartiblarini biz keyingi bulimda tulik kurib chikamiz.
- **turdosh xuquq lar** saxna asarlari, ijrolar, ijrolarning audio yozuvlari va videotasvirlari (ijroning yozib olinganlari), efir va kabel televideniyesi tashkilotlarining eshittirishlariga tarkaladi.

Mualliflik xuquq i obyektining yaratilish usuliga kura ular agar shakli original, mazmuni esa original (tula yoki kisman) yoki boshka asarlardan olingan bulsa **mustakil asarlar** va **mustakil bulmagan** – shakli va mazmuni boshka asarlardan olingan asarlarga bulinadi. Mustakil bulmagan asarlarga boshka asarlarni kayta ishslash natijasida olingan asarlar (tarjimalar, ishlov berishlar, annotatsiyalar, referatlar, rezyumelar, obzorlar va boshka fan, adabiyot va san’at asarlarini kayta ishslash natijasida olingan asarlar) va **tuplamlar** (tuzilgan asarlar) kiradi. Bunday asarlarga ensiklopediyalar, antologiyalar, ma’lumotlar bazalari va ijodiy mexnat natijasida tanlangan va tartibga solingen materiallarni uz ichiga olgan boshka asarlar kiradi.

Qayta ishslash natijasida yaratilgan asarlar, ular uchun asos bulgan asar yoki ularning tarkibiga kiritilgan asar mualliflik xuquq i obyekti bulishi yoki bulmasligidan kat’i nazar, mualliflik xuquq i bilan muxofaza kilinadi.

Mualliflik xuquqining Koyalar, metodlar, jarayonlar, tizimlar, usullar, obyektiv ravishda mavjud bulgan yechim va faktlar buyicha kashfiyotlarga tarkalmasligi kabul kilingan. Qayd etib utamizki, asarga mualliflik xuquqi bu asar aks etgan moddiy obyektga mulkchilik xuquq iga boKlik emas.

Yukorida kursatilganlardan tashkari kuyidagilar mualliflik xuquq i obyektlari xisoblanmaydi:

- rasmiy xujjatlar (konunlar, sud karorlari, konuniy, ma’muriy va sudga taallukli boshka matnlar) va ularning rasmiy tarjimalari;
- davlat timsollari va belgilari (bayroklar, gerblar, ordenlar, pul belgilari va boshka davlat timsollari va belgilari);
- xalq ijodiyoti asarlari< ;>
- axborot tarzidagi faktlar tuKrisidagi xabarlar;
- inson tomonidan ushbu asarni yaratishga yunaltirilgan xech kanday ijodiy faoliyatni amalga oshirmay texnik vositalar yordamida olingan natijalar.

## 2. Asarlar mualliflari va xammualliflarning xuquqlari. Mualliflik xuquq ining tamoyillari

2 leksiyada ta’kidlab utganimizdek, asarning **muallifi** deb shu asarni uz ijodiy mexnati bilan yaratgan shaxs tan olinadi. Asarga **xammualliflik** xollari kizikish uyKotadi. Bir necha shaxslarning xamkorlikdagi mexnati bilan yaratilgan asarga mualliflik xuquq i bu asar bir butun yaxlit asar (**xammualliflik bulinmaydigan xolatlar**) yoki mustakil axamiyatga ega bulgan (**bulinadigan xammualliflik**, masalan, tuplamlarning ayrim kismlaridan aloxida foydalanish mumkin) kismlardan iboratligidan kat’i nazar xammualliflarga birgalikda tegishli buladi. Bunday asarlarda xammualliflar urtasidagi munosabatlar ular orasida tuziladigan bitimlar asosida tartibga solinishi zarur. Agar bunday bitim tuzilmagan bulsa, asarga mualliflik xuquq i xammualliflar tomonidan birgalikda amalga oshiriladi, mukofot esa mualliflar urtasida teng taksimlanadi. Bunda xammualliflardan xar biri, agar ular urtasidagi bitimda boshka xolat kuzda tutilmagan bulsa, asarning uzi yaratgan mustakil kismidan uz xoxishiga kura foydalanish xuquq iga ega.

Shunga e’tibor karatish zarurki, agar xammualliflarning asari uzlusiz yaxlit bir asarni tashkil etsa, mualliflarning xechbiri yetarli asoslarsiz asardan foydalanishni man etish xuquq iga ega bulmaydi.

Shuni kayd etib utish muximki, boshka bir asarni kayta ishlab yangi bir asar yaratgan muallifkayta ishlangan asar muallifining xuquq lariga rioya kilingan xoldagina bunday asarga

mualliflik xuquqidan foydalanadi. Bunda boshka asarni kayta ishlab yangi asar yaratganlarning mualliflik xuquqlari uz–uzidan boshka shaxslarga ilgari foydalanilgan asarlar asosida uz asarlarini yaratishga tuskinlik kila olmaydi.

Asar xammualliflarining soni, shuningdek tarkibi konunchilik bilan chegaralanmagan va bevosita mualliflarning uz ichki ishlari xisoblanadi. Bundan fakat kino, tele– va videofilm kabilarga mualliflik xuquqi istisnodir. Qonun bu obyektlarning uziga xos tomonlaridan kelib chikkan xolda xammualliflarning kuyidagi eng kam soni va tarkibini belgilaydi, ya’ni rejisser–postanovkachi; ssenariy muallifi; aynan shu film uchun maxsus yaratilgan musika asari muallifi; operator–postanovkachi bunday asarning xammuallifi bulishi kerak; shuningdek filmda foydalanilgan boshka asarlarning mualliflari xam xammualliflar tarkibiga kirishi mumkin.

Mualliflik xuquq i bir kator muxim tamoyillarni uz ichiga oladi.

- mualliflik xuquq i ular yaratilganda yuzaga keladi. Mualliflik xuquq ining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ruyxatga olish, maxsus rasmiylashtirish yoki kandaydir koidalarga rioya etish talab etilmaydi;
- asarga malliflik xuquq i, asar e’lon kilinishi yoki kilinmasligidan kat’i nazar, uchinchi shaxslar kabul kila oladigan obyektiv shaklga keltirilgan vaktdan boshlab amal kila boshlaydi;
- asar muallifiga uning **daxlsizligi xuquq i** tegishlidir. Fakat muallif uz asariga uzgartirish yoki kushimchalar kiritish xuquq iga ega. Qonun asarni nashr kilish, tomoshabinlar oldida ijro etish yoki bir-bir yul bilan foydalanishda muallifning roziligesiz asarning uziga, uning nomi va muallifi nomiga biror-bir uzgartirish kiritishni man kiladi. Bundan tashkari, nashr kilishda muallifning roziligesiz uning asarini illyustratsiyalar bilan bezatish, suz boshi, sunetti suz yozish yoki boshka izoxlar berish ta’kiklanadi.
- muallifga asarini **e’lon kilish xuquq i** tegishlidir. Fakat muallif uz asaridan erkin foydalanish uchun yul ochib berish (uni e’lon kilish) xuquq iga ega. Agar muallif xamda uning ish beruvchisi urtasidagi shartnomada boshka xolatlar kuzda tutilmagan bulsa, asarni e’lon kilish xuquq i xizmat asarlariga xam taallukli buladi.
- muallifga uz asaridan istalgan shakl va istalgan usulda foydalanishga mutlak xuquq beriladi. Asardan foydalanishning bunday usullariga, xususan: asarni tomoshabinlar oldida namoyish etish (eksponat, kurgazma sifatida); asarni efiriga uzatish (radio yoki televideeniye orkali eshittirish yoki kursatish); me’morchilik, dizayn loyixalarini amalga oshirish va boshka usullar kiradi. Bunda asardan daromad olish yoki boshka maksadda foydalanilganidan kat’i nazar, asardan foydalanilgan deb xisoblanadi. Qonun boshkalarning asaridan muallifning roziligesiz fakat shaxsiy maksadlarda (uni kupaytirmasdan va boshkalarga tarkatmasdan) foydalanishga yul kuyadi, lekin bu asardan keyin normal foydalanishga va muallifning konuniy manfaatlari zarar yetkazmasligi shart.
- mualliflik xuquq ining muxim tamoyillaridan biri **mualliflik shartnomasi erkinligi** xuquq idir. Bu tamoyilga kura muallif (yoki uning merosxuri) uz asaridan foydalanish xuquq ini tegishli mualliflik shartnomasini tuzgan xolda boshka shaxslarga tulaligicha berishi mumkin. Agar bunday shartnomada mualliflik xuquq lari tulaligicha emas, balki muayyan chegaralarda berilsa (masalan, muayyan muddat yoki muayyan xududda) bunday shartnomasi **mualliflik litsenziya shartnomasi** deb ataladi. Qonunchilikka muvofik mualliflik shartnomasi asardan foydalanish usullari (beriladigan anik xuquq lar), mukofot mikdori, shuningdek asardan foydalanishning xar biri usuli uchun tulanadigan mukofot mikdorini, mukofotni tulash tartibi va muddatlarini kuzda tutishi zarur. Mualliflik shartnomasi odatda muayyan muddatga tuziladi. Shartnomada mualliflik xuquq lari beriladigan muddat kursatilmagan bulsa, muallif shartnomasi tuzilgan sanadan besh yil utgach uni bekor kilishi mumkin. Bunda karshi tomon shartnomasi bekor kilinishidan olti oy oldin yozma ogoxlantirilishi zarur. Uar kanday mualliflik litsenziya shartnomasi, u kancha muddatga tuzilganligidan kat’i nazar, shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab un yil utgach muallif yoki uning merosxurlari tomonidan bekor kilinishi mumkin;
- asarga mualliflik xuquq ining amal kilish muddati tugagach asar umumxalq mulkiga aylanadi. Bunday asarlardan xar kanday shaxs mualliflik mukofoti tulamasdan erkin foydalanishi mumkin. Lekin bunda asarga mualliflik xuquq i, nomga egalik xuquq i va asarning daxlsizligiga rioya etilishi zarur.

### 3. Mualliflik xuquq ining amal kilish muddati. Mualliflik xuquq ining muxofazalash belgisi.

O‘zbekiston konunchiligiga muvofik adabiyot, fan, san’at, musika asarlari va boshka obyektlarga mualliflik xuquq i muallifning butun umri davomida va vafotidan sung 50 yil mobaynida amal kiladi. Bunda mualliflar bir nechta (xammualliflar) bulsa, bu muddat sunggi muallif vafot etgan sanadan boshlab xisoblanadi.

Mutlak mualliflik xuquqi egasi uzining mualliflik xuquq i tuKrisida xabar berish uchun mualliflik xuquq ini muxofazalash belgisidan foydalanishi mumkin. U asarning xar bir nusxasiga kuyiladi va uchta elementdan iborat buladi: doira ichiga olingan lotincha “S” xarfi; mutlak mualliflik xuquq i egasining ismi (nomi); asar birinchi marta e’lon kilingan yil.

#### **4. Turdosh xuquqlarning moxiyati va uziga xos xususiyatlari. Turdosh xuquq larni muxofazalash belgisi**

Yukorida aytib utilganidek, ijro xuquqi, ijroni yozish va eshittirish xuquq i turdosh xuquq lar obyektiga kiradi. Tegishlisha ijro xuquq i bevosita ijrochilar (artistlar, rejissyorlar, dirijorlar, shuningdek ularning merosxurlari) ga, yozish xuquq i bunday fonogrammani ishlab chikaruvchilarga, eshittirish xuquqi esa bunday eshittirishni tashkil etgan efirga uzatish tashkilotiga taalluklidir.

Turdosh xuquqlar uchun xam mualliflik xuquqlariga tegishli barcha tamoyillar xosdir. Xususan, turdosh xuquqlar boshka xuquqiy vorislarga utishi, litsenziya berish yuli bilan boshka shaxslarga utkazilish mumkin. Mualliflik xuquqidan farki shundaki, tijorat maksadlarida e’lon kilingan fonogramma (yozuv) ishlab chikaruvchi, shuningdek ijrochining roziliginiziz fonogrammani tomoshabinlar oldida ijro etish, efirga uzatish yoki kabel televideniyesi orkali berish mumkin. Lekin bunday xollarda turdosh xuquq larning konuniy egalariga albatta mukofot yoki xak tulanishi shart. Ijro, postanovka va fonogrammaning fakat ma’lum parchalaridan kundalik vokea–xodisalarni sharxlash, shuningdek fakat ukuv maksadlarida yoki ilmiy izlanishlarda xak tulamasdan foydalanish mumkin.

gramma ishlab chikaruvchi yoki ijrochi uz xuquq lari xakida e’lon kilish uchun turdosh xuquqlarni alash belgisidan foydalanishi mumkin, u audio– va videoyozuvning xar bir nusxasida joylashtiriladi va elementdan iborat buladi: doira ichiga olingan lotincha “P” xarfi; mutlak turdosh xuquq egasining ismi fonogramma birinchi marta e’lon kilingan yil.

#### **5. Mualliflik xuquq ining amal kilish xududi**

Mualliflik va turdosh xuquq larni muxofazalashning yana bir muxim koidasi shundan iboratki, mualliflik va turdosh xuquqlar muxofazasi (boshka intellektual mulk obyektlarini muxofazalashdagi kabi) kat’iy belgilangan xududlardagina amal kiladi. Boshkacha aytganda jaxonning xech bir mamlakati, agar tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlarda boshka xolatlar kuzda tutilmagan bulsa, xorij mualliflarining asarlariga mualliflik xuquq larini uz mamlakatida tarkatishga majbur emas.



O‘zbekiston xududida mualliflik xuquq i O‘zbekiston Respublikasida birinchi marta e’lon kilingan yoki muallif (xammualliflar) yoki vorislarining fukaroligidan kat’i nazar, asl nusxasi davlatimiz xududida bulgan asarlarga tarkaladi. Shuningdek O‘zbekiston fukarosining birinchi mart xorijiy davlat xududida yoki obyektiv shakldagi asl nusxasi joylashgan xududda e’lon kilingan asarlariga mualliflik xuquq lari xam tan olinadi.

Demak, turdosh xuquq lar buyicha ijrochi, fonogramma ishlab chikaruvchining xuquq lari, agar ularning asarlarini birinchi marta respublika xududida ijro etilgan (fonogramma tomoshabinlar oldida ijro etilgan yoki nusxalari tarkatilgan) bulsa O‘zbekiston xududida amal kiladi. Efir eshittirishlari tashkiloti xuquq i, agar bunday tashkilot respublika xududida joylashgan va uning xududidagi mavjud uzatgichlar yordamida eshittirishlar olib boradigan bulsa, O‘zbekistonda amal kiladi.

## 6. Mualliflik xuquqini muxofazalash soxasida xalqaro konvensiyalar.

Mualliflik va turdosh xuquq larni muxofaza kilish kitob nashr etish, fonogramma, filmlar ishlab chikarish soxasidagi ijodkor shaxslar va tadbirkorlar faoliyati uchun keng imkoniyatlar olib beradi. Mualliflik va turdosh xuquq lar yangi asarlarni yaratishni raKbatlantiruvchi, xalol rakobat va biznesni rivojlanтирувчи omil xisoblanadi va mamlakat iktisodiyoti xamda madaniyatining usishiga olib keladi. Uozirgi zamonda mualliflik xuquq lari bilan boKlik iktisodiy munosabatlar, xususan mualliflik xuquq i obyektlarini eksport kilish davlatlar milliy daromadining muxim tarkibiy kismidir. Shuning uchun bugungi kunda xar bir davlat uz fukarolarining xuquq lari nafakat uz xududida, balki xorijiy davlatlarda xam muxofazalanishidan manfaatdor bulishi kerak.



Mualliflik xuquq ini muxofazalash soxasidagi asosiy xalqaro shartnomalardan biri **adabiyot va san'at asarlarini muxofazalash tug'risidagi Bern konvensiyasidir**.

1886 yilda tuzilgan Bern konvensiyasi bir necha marta kayta kurib chikilgan va xozir 1979 yildagi taxriri (Parijsda kabul kilingan) amal kilmokda.

Konvensiya uch asosiy tamoyilga asoslanadi va beriladigan xuquq larning eng kam darajasini belgilab beradigan bir kator koidalar, shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan bir kator maxsus koidalardan iborat.

Quyidagilar Konvensiyaning uch asosiy tamoyilidir:

1. Kelishuvchi davlatlardan birida yaratilgan (ya'ni muallifi shu davlatning fukarosi bulgan yoki shu davlatda birlinchi marta e'lon kilingan) asar boshka kelishuvchi davlatlarning xar birida uz fukarolari asarlariga beriladigan barcha xuquq lardan foydalanishi zarur (**milliy rejim tamoyili**);
2. Bunday muxofaza kandaydir rasmiyatchiliklarni bajarishni shart kilib kuymasligi zarur (**avtomatik muxofaza tamoyili**);
3. Bunday muxofaza asarning kelib chikish mamlakatida muxofazasi bor-yukligiga boKlik emas (**muxofazaning mustakillik tamoyili**). Lekin, agar kelishuvchi davlatlarning birida konvensiyada kursatilgan eng kam muddatdan kuprok muddatga muxofaza beriladigan, asar esa yaratilgan mamlakatida boshka muxofaza kilinmayotgan va muxofaza muddati tugagan bulsa, bu davlatda xam muxofazalashni rad etish mumkin.

**Muxofazalashning minimal meyorlari** muxofaza kilinishi zarur bulgan asar va xuquq larga, shuningdek muxofaza muddatiga tarkaladi.

1. Konvensiya adabiy, ilmiy va badiiy soxadagi xar bir asar, uning ifodalanish usuli va shaklidan kat'i nazar, muxofazalishi zarur deb xisoblaydi.
2. Quyidagilar muallifning mutlak xuquq lari deb tan olinadi:
  - tarjima kilish xuquq i;
  - asarni moslashtirish va aranjirovka kilish xuquq i;
  - dramatik, musikiy-dramatik va musikiy asarlarni tomoshabinlarga takdim etish yoki ijro etish xuquq i;
  - adabiy asarlarni tomoshabinlar oldida deklamatsiya kilish (ifodali ukish);
  - bunday asarlarni ijro etish yoki tomoshabinlarga tanishtirish uchun takdim etishga berish xuquqi;
  - eshittirish xuquqi (kelishuvchi davlat uchun ruxsatnomaga mutlak xuquq urniga xak tulash xuquq i kuzda tutiladi);

- istalgan usul va istalgan shaklda kayta ishlab ijro etish xuquq i;
- asardan audiovizual asarning asosi sifatida foydalanish xuquq i;
- asarni kayta ishslash yoki aranjirovka kilish xuquq i.

Konvensiya mualliflik xuquqini muxofazalashning eng minimal muddatlarini belgilab beradi. Asar muallifning vafotidan keyin elliyl yil utguncha muxofaza kilinishi kerak. Ismi-sharifi kursatilmagan yoki taxallus ostida chikarilgan asarlar uchun muxofaza muddati asar konuniy yul bilan barchaning foydalanishi uchun takdim etilgandan sung 50 yil utgach tugaydi. Audiovizual asarlar (kinematografiya)ni minimal muxofazalash ular barchaning erkin foydalanishi uchun takdim etilgandan sung 50 yildan keyin yoki asar yaratilgandan sung 50 yildan keyin tugaydi. Amaliy san'at asarlari va fotografiya asarlari uchun muxofaza muddati bunday asar yaratilgandan sung 25 yil utgach tugaydi.

---



Ikkinci muxim xalqaro bitim Jenevada 1952 yilda imzolangan (1971 yilda Parijda kayta kurib chikilgan) **Mualliflik xuquq i tuKrisidagi Butunjaxon konvetsiyasidir**.

---

Jeneva konvensiyasi Bern konvensiyasining ayrim koidalari rivojlantiradi. Masalan, Jeneva konvensiyasiga muvofik adabiy, ilmiy va badiiy asarlar, shu jumladan yozma, musikiy, dramatik va kinomatografiya asarlari, rassomlik, grafika va xaykaltaroshlik asarlari mualliflik xuquq ini muxofazalash obyektlari xisoblanadi. Agar milliy konunchilik muxofaza berish uchun rasmiy talablar (masalan, deponentlash, ruyxatga olish, notarial tasdiklash)ning bajarilishini talab kilsa, konvensiya prinsipial koidalarni belgilab beradi, ya'ni asarning dastlabki nusxalari dunyo yuzini kurgan vaktdan boshlab uning barcha nusxalari doira ichiga olingan "S" xarfi va xuquq egasining nomi va asar dunyo yuzini kurgan yil kursatilgan mualliflik xuquq i belgisiga ega bulsa, xorijliklar bunday talablar bajarildi deb xisoblaydi.

Konvensiya, shuningdek biror-bir asarning asl nusxasi e'lon kilingan sanadan boshlab yetti yil utgach, agar bu vakt mobaynida mualliflik xuquq ining egasi tomonidan asar tarjima kilinmagan bulsa, muayyan shartlarda uni tarjima kilish uchun oddiy majburiy litsenziya berishga yul kuyadi.

---



Turdosh xuquqlar soxasidagi birinchi konvensiya ijrochilar, fonogramma ishlab chikaruvchilar va tele-radio eshittirish organlari manfaatlarini muxofaza kiluvchi **Rim konvensiyasidir** (1961 y.). Rim konvensiyasi fonogramma ishlab chikaruvchilarining fonogrammlari, asarlarni ijro etishda ijrochilar va eshittirish organlarining xuquq lari muxofaza kilinishini ta'minlaydi.

---

Konvensiya koidalari muvofik ijrochilar (adabiy va badiiy asarlarni ijro etuvchi artistlar, kushikchilar, musikachilar, uyinchilar va boshka shaxslar) ular rozilik bermagan muayyan xarakatlardan muxofaza kilinadi. Bunday xarakatlar, ularning tomoshalarini radiotranslyatsiya yoki bevosita teletranslyatsiya kilish, shuningdek bunday teletranslyatsiyalarni keyinchalik kayta kursatish maksadida yozib olishdan iborat bulishi mumkin.

Fonogramma ishlab chikaruvchilar fonogrammlarini bevosita va bilvosita kayta eshittirishga ruxsat berish yoki man kilish xuquqiga ega. Rim konvensiyasida fonogramma xar kanday ijro jarayonida tovushlarni fakat akustik yozib olish yoki boshka tovushlarni yozib olish deb belgilanadi.

Rim konvensiyasi buyicha radio va televide niye eshittirish organlari uz eshittirishlari, ularning yozib olingan variantlarini kayta eshittirishga, shuningdek ularning televizion kursatuvlari fakat pul

tulab kiriladigan joylarda namoyish etiladigan bulsa, ularni kursatishga ruxsat berish yoki bermaslik xuquq iga egadirlar.

Rim konvensiyasi buyicha muxofaza muddati kamida 20 yilni tashkil etishi kerak, bunda bu muddat eshittirish yoki kursatuv efirga uzatilgan yoki yozib olingen yilning oxiridan boshlab xisoblanadi.

BIMT YUNESKO va MOT bilan birgalikda ushbu Konvensianing ma'muriy vazifalari bajarilishi uchun mas'uldir. Bu uch tashkilot Konvensiya doirasida ta'sis etilgan un ikkita Kelishuvchi davlat vakillaridan iborat Uukumatlararo komitet Kotibiyatini tashkil etadi. Konvensiya ittifok yoki byudjet ta'sis etmagan.



Keyingi bitim **fonogramma ishlab chikaruvchilar manfaatlarini fonogrammalarni nokonuniy kayta ishlab chikarishdan muxofaza kilish tug'risidagi Jeneva konvensiyasidir** (1971).

---

Ushbu Konvensiya xar bir kelishuvchi davlatning boshka davlat fukarosi bulgan fonogramma ishlab chikaruvchilari manfaatlarini muxofazalashni, ya'ni ishlab chikaruvchilarning roziligesiz fonogrammalarining nusxalarini kayta ishlatishdan ximoya kilish majburiyatini kuzda tutadi. Bundan tashkari, bunday nusxalar barchaning eshitishi yoki kurishi uchun tarkatish maksadlarida olib kirilayotgan bulsa, ularni olib kirish ta'kiklanadi. Bunda Konvensiya buyicha "**Fonogramma**" deyilganda uning shakli (disk, plenka va xokazo)dan kat'i nazar xar kanday, lekin fakat akustik yozuv (ya'ni, u masalan, filmlarga yozilgan tovushli yozuvlar va videokassetlarni kuzda tutmaydi) tushuniladi. Muxofaza kilish muddati fonogramma birinchi marta e'lon kilingan sanadan boshlab kamida 20 yilni tashkil etishi kerak. Qayd etib utamizki, kup xollarda milliy konunlar 50 yillik muxofaza muddatini kuzda tutadi. BIMTning Xalqaro byurosi ushbu Konvensianing kotibiyati vazifasini bajaradi.



Turdosh xuquq larni muxofazalash soxasidagi muxim xalqaro bitimlardan biri **Yuldoshlar orkali uzatiladigan signallarning uzatuvchi dasturlarini tarkatish turkisidagi Bryussel konvensiyasidir** (1974 y.).

---

Bu konvensiya kelishuvchi davlatlardan xar biriga yuldosh orkali uzatilayotgan signallarni uzatuvchi xar kanday dasturning uz xududida yoki uz xududidan nokonuniy tarkatilishining oldini olish buyicha zarur tadbirlarni kurish majburiyatini yuklaydi. Agar tashkilot, odatda translyatsiya kilinadigan dasturni tuzuvchi radio yoki teleeshittirishlar olib boradigan tashkilotdan ruxsat olinmagan bulsa, bundan tarkatish nokonuniy xisoblanadi. Shuni kayd etib utamizki, bu Konvensianing koidalari yuldoshlar orkali bevosita olib eshittiriladigan yoki kursatiladigan signallarni tarkatish xollarida kullanilmaydi. Konvensiyada Ittifok, raxbar organ ta'sis etish yoki byudjet kuzda tutilmagan.

Xulosada shuni kayd kilamizki, O'zbekiston xozircha yukoridagi mualliflik va turdosh xuquq lar soxasidagi xalqaro konvensiyalarga a'zo emas. Lekin bu konvensiyalarga kushilish vakti albatta keladi, chunki bu konvensiyalar respublikamiz va uning fukarolari manfaatlariga mosdir.

**Kursatib utilganidek, O'zbekistonda va xalqaro darajada mualliflik va turdosh xuquq larni muxofazalash kitob nashr kilish, fonogrammalar, filmlar ishlab chikarish va boshka soxalardagi ijodiy shaxslar xamda tadbirkorlarning faoliyati uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Mualliflik va turdosh xuquq lar – bu yangi asarlar yaratish, biznesda xalol rakobatni rivojlantirishni raqbatlantiruvchi kuchli omildir, bu esa mamlakat madaniyati va iktisodiyoti rivoji uchun juda foydalidir.**

## 4-MA’RUZA. Ixtiolar

Reja:

- 1. Ixtiro obyektlari;**
- 2. “Qurilma” ixtiro obyekti sifatida;**
- 3. “Usul” ixtiro obyekti sifatida;**
- 4. “Modda” ixtiro obyekti sifatida;**
- 5. “Mikroorganizm shtammi” ixtiro obyekti sifatida;**
- 6. “Yangi maqsadlarda qo’llanilishi” ixtiro obyekti sifatida.**

### 1. Ixtiro obyektlari.

Ixtiro inson yaratgan dastlabki intellektual mulk obyektidir. Ixtiolar tarixi ibtidoiy odam o‘zining birinchi mexnat qurolini o‘ylab topgan vaqtidan boshlangan bo‘lsa kerak. Osha vaqtlardan beri aynan ixtiolar texnikani, demak umuman jamiyatni rivojlantirishning omili xisoblanadi.

Ixtirolarni yaratishning asosiy sababi, eng avvalo jamiyatning tobora oshib borayotgan moddiy, ijtimoiy va madaniy extiyojlaridir. Jamiyat rivojlanib borgani sari bu extiyojlar bir tomonidan yanada to‘laroq, ikkinchi tomondan esa kamroq xarajat bilan qondirib borilishi zarur.



**Ixtiro bu yangi g‘oya, texnik yechim bo‘lib, amaliyotda texnikaning istalgan soxasidagi muayyan muammoni xal qilish imkonini beradi va belgilangan mezonlarga javob beradi.**

Shuni qayd etib o‘tamizki, texnika ko‘p qirrali tushuncha bo‘lganligi sababli turli–tuman obyektlar ixtiro bo‘lishi va ularning xar biri o‘ziga xos bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq quyidagi obyektlar ixtiro sifatida tan olinadi:



- **qurilmalar** – konstruktiv belgilarining mavjudligi va o‘zaro aloqasi bilan ajralib turadigan obyektlar, turli konstruksiya, buyumlar;
- **usullar** – moddiy obyektlar ustida boshqa moddiy obyektlar yordamida turli xarakatlar, operatsiyalarni bajarish jarayonlari, masalan turli texnologik jarayonlar;
- **moddalar** – o‘zining sifat tarkibi bilan ajralib turadigan obyektlar, masalan, qotishmalar, kompozitsiyalar, turli molekulyar birikmalar va xokazo;
- **mikroorganizmlar shtammlari, o‘simlik va xayvonlarning xujayralari kulturası** – an‘anaviy, duragay, o‘stiriladigan va boshqa mikroorganizmlarning turli individual shtammlari;
- shuningdek, **ilgari ma’lum bo‘lgan qurilmalar, usullar, moddalar, mikroorganizm shtammlarining yangi maqsadlarda qo’llanilishi.**

Shuni qayd etib o‘tamizki, qonunchilikka muvofiq ilmiy nazariyalar va matematik usullar; xo‘jalikni tashkil etish va boshqarish usullari; shartli belgilar, jadvallar, qoidalar; aqliy operatsiyalarni bajarish usullari va qoidalari; elektron xisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar; binolar, inshootlar, xududlarni rejalashtirish loyixalari va sxemalari; buyumlarning faqat tashqi tomonlariga

taalluqli va estetik extiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan yechimlar; integral mikrosxemalar topologiyasi; o'simlik navlari va xayvon zotlari; shuningdek insoniylik va axloqiylik tamoyillariga zid bo'lgan yechimlar kabi **obyektlar ixtiro deb tan olinmaydi**.



**Foydali modellar** obyektlari ixtirolarga bir oz yaqin keladi. Moxiyatiga ko'ra foydali model o'ziga xos kichik ixtiro bo'lib, undan faqat ikki asosiy tamoyili bilan farqlanadi:

1. Foydali model deb faqat qurilmalar, xususan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari, shuningdek ularning tarkibiy qismlarining konstruktiv ijrosi tan olinadi. Demak, usullar, moddalar, mikroorganizmlar shtammlari, o'simlik va xayvonlar xujayralari kulturalari, shuningdek ularning yangi maqsadlarda qo'llanilishi foydali modellar xisoblanmaydi.
  2. Foydali modellarning patentga layoqatliligi mezonlarining ixtirolarnikidan farqlanishi, xususan patent berish tartibining nisbatan soddaligi.
- Biz bundan quyida foydali modellarning ixtiro obyektlari – qurilmalarga yaqinligini xisobga olgan xolda ularni aloxida ko'rib chiqmaymiz.


Keyingi bo'limlarida ushbu ixtiro obyektlaridan xar birini qanday belgilar xarakterlashini ko'rib chiqamiz.

## 2. "Qurılma" ixtiro obyekti sifatida.

Juyidagilar qurilmalarni ixtiro obyekti sifatida xarakterlovchi belgilar (alomatlar) bo'lishi mumkin:

### 1. Bir-biri bilan o'zaro aloqador konstruktiv elementlar (detallar, bo'Qinlar va xokazo) ning majmui;


Misol: "Ot o'chirish mashinasining ichki yonuv dvigateli uzatmalar qutisi, tishlashish muftasi, kardan vali, oraliq tayanchlarni o'z ichiga olgan transmissiyasi, shu bilan farklanadiki, u ichki yonuv dvigateli uzatmalar qutisi bilan tishlashish muftasi orqali ulangan **gidrodinamik mufta bilan jixozlangan** (ixtirochilar M.X.Maxmudov va A.T.Irgashev, 1994 y.).



Ko'rinib turibdiki, bu ixtiroda yangi element – gidrodinamik mufta mavjudligi uning farqlovchi belgisi xisoblanadi. Turli elementlarning oddiy to'plami qurılma bo'la olmaydi, chunki qurilmada xar bir element (detal, bo'Qin va xokazo) boshqa elementlar (juda bo'lmasganda bitta element) bilan o'zaro bog'liq (masalan, ulangan, maxkamlangan va xokazo) bo'lishi zarur. Qurilmaning ayrim elementlari konstruktiv jixatdan (mexanik) o'zaro bog'liq bo'lmasligi, fizik muxit (masalan, elektr magnit maydoni) yordamida boqlanishi mumkin. Bunday qurilmalarga radiouzatgich – radioqabul qilgich tipidagi tizimlar misol bo'la oladi.

### 2. Elementlar (detallar va bo'g'inlar)ning o'zaro joylashishi;

Masalan, favvora bo‘lib yonib turgan quduqlarni o‘chirish qurilmasi ichida tortish mexanizmlari bilan kanat vositasida bog‘langan to‘r joylashgan korpusdan iborat bo‘lib, shu bilan farklanadiki, u qo‘srimcha to‘rli rama bilan jixozlangan, korpus esa giperboloid shakliga ega bo‘lgan diffuzor ko‘rinishida ishlangan, bunda **to‘r diffuzorda uning kichik asosida, qo‘srimcha to‘rli rama esa diffuzorning tashqi tomonida uning katta asosi darajasida joylashtirilgan** (ixtirochilar B.E.Qosimov va boshqalar, 1992 y.).




Ko‘rinib turibdiki, bu qurilmada qurilma elementlari – rama (5) va to‘rning (2) diffuzorga nisbatan o‘zaro joylashishi farq qiluvchi belgilardan biridir.

### **3. Qurilma elementlari (detallari va bo‘g‘inlari) o‘rtasida aloqa mavjudligi.**

Bu aloqalar konstruktiv, funksional yoki aralash bo‘lishi mumkin.


Yana bir misol: “Olovni o‘chirish zarrachalarini uzatish vositasiga ega bo‘lgan yonuvchi suyuqliklar rezervuari shu bilan farklanadiki, olovni o‘chirish zarrachalarini uzatish vositasi rezervuar tubining butun maydoni bo‘ylab joylashgan o‘zaro bir–biriga ulangan truboprovodlar shaklida ishlangan bo‘lib, trubalarning yuzasida butun uzunligi bo‘ylab teshiklar ochilgan, bunda trubaning; chiqish uchi olovni o‘chirish zarrachalari siQimi bilan ulangan” (ixtirochilar A.Y.Bikovsev va boshqalar, 1999 y.)



Bu yerda truboprovodning (5) sig‘im (7) bilan konstruktiv aloqasi muxim belgi xisoblanadi.


#### 4. Konstruktiv aloqalarni bajarish shakli.

Misol: “Asosan silindrli zagotovka va trubalarni qirqish uchun mo‘ljallangan qurilma aylantiriladigan shpindel o‘rnatilgan stanina, aylanuvchan korpus va krivoshiplarda montaj qilingan qirquvchi asboblardan iborat bo‘lib, ular aylantiriladigan shpindel va aylanuvchan korpus bilan kinematik boQlangan, shu bilan farqlanadiki, u aylanuvchan shpindelda joylangan kamida ikkita kosolli val-shesternya bilan ta’minlangan bo‘lib, stananining ichki qismida tishli chambaraksimon detal maxkamlangan va val-shesternyalar bilan ilintirilgan, val-shesternyalarning konsollarida krivoshiplar o‘rnatilgan bo‘lib, ularning aylantiriladigan shpindel va aylanuvchan korpus bilan kinematik aloqasi aylanuvchan korpusda qattiq maxkamlangan to‘rtburchakli polzunli shtirlar ko‘rinishida bajarilgan, ular o‘z navbatida krivoshiplarning tarnovchalarida o‘rnatilgan va siljish imkonlariga ega...” (Ixtirochilar V.N. Baranov va b., 2000 y.).




**5. Xar qanday detal, qurilma bo‘g‘inining ijro shakli, xususan, geometrik shakli**, agar u masalani xal qilishning estetik tomonini emas, balki texnik moxiyatini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lsa.

Misol: “Ko‘pik xosil qilgichning ko‘pik baki, enjektion pnevmoarashtirgich va berkituvchi kranli ko‘pik xosil qilgichni tashish trubasidan iborat uzatish tizimi trubaning yuqori nuqtasida vertikal o‘rnatilgan patrubkaga ega bo‘lgan U–simon trubacha shaklida ishlanganligi bilan ajralib turadi, bunda trubkaning bir uchi enjektion aralashtirgich bilan ulangan, ikkinchi uchi esa ko‘pik bakiga tushirilgan, berkituvchi kran U–simon trubkaning patrubkasida o‘rnatilgan” (ixtirochilar B.E.Josimov va boshqalar, 1993 yil).



Patrubkaning U–simon trubka shaklida ishlanganligi qurilma elementi ijro shaklining shunday belgisi xisoblanadi.

Geometrik shakl faqat so‘zlar bilan emas, balki matematik bayon etilishi xam mumkin, masalan: “Chiqish bo‘g‘ziga ega korpus va qo‘zg‘almas qilib o‘rnatilgan old devor, purkash bo‘Qini, korpus o‘qi bo‘ylab joylashgan devori yupqa truba va undagi xarakatchan to‘rdan iborat ko‘pik generatori devori yupqa trubaning chiqish bo‘g‘zi tomon oshib boradigan ko‘ndalang kesimga egaligi bilan ajralib turadi, trubaning katta asosi xarakatchan to‘r diametriga teng, kichik asosi esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:



bunda  $d$  – truba kichik kesimining diametri,  $I$  – truba uzunligi,  $L$  – markaziy soploring chiqish qirrasidan xarakatchan to‘rgacha bo‘lgan masofa” (ixtirochilar A.D.Xudoyev va boshqalar, 1992 yil).


## 6. Qurilma elementlari detallari va bo‘g‘inlarining parametrlari va boshqa xususiyatlari va ularning o‘zaro aloqasi.

Misol: “Mayda donachali sochma materiallardan betonning sun’iy to‘ldirgichlarini granulyatsiyalash uchun filyer panjarasi shakllantiruvchi kanallarga ega bo‘lib, kanallarning turli diametrda ishlanganligi bilan ajralib turadi, bunda keyingi kanallarning diametri o‘lchami

$$dn+1=dn(0,23-0,28) \text{ nisbati bilan boQlangan,}$$


keyingi o‘lchamdagagi kanallar soni esa  $Qn-1=5Qn$  nisbati bilan aniqlanadi,

bunda  $d_n$  – bir o‘lchamdagи kanallar diametri, mm;  $d_{n+1}$  – keyingi o‘lchamdagи kanallar diametri, mm;  
 Q<sub>n-1</sub>, Q<sub>n</sub> – tegishli o‘lchamdagи kanallar soni” (ixtirochilar Z.X.Djumaxodjayev va boshqalar, 1984 yil).



Bu qurilmada turli kanallar diametrlari va tegishli o‘lchamdagи kanallar sonining o‘zaro bog‘liqligi aniqlovchi belgi xisoblanadi.

Boshqa misol: “Ignasimon ilgaklari g‘ovak barabanning tashqi yuzasida uning aylanish yo‘nalishiga nisbatan qiya qilib o‘rnatilgan g‘ovak barabandan iborat paxta terishchi ishchi organi 2–5 mm masofadagi xar bir ignasimon ilgakning uchi barabanning aylanish yo‘nalishi bo‘ylab 20–400 burchakka qayrilganligi bilan ajralib turadi” (ixtirochilar A.Y.Bikovsev va A.T.Ergashev, 1993 yil).



Bu yerda igna uchining qiyalik burchagi va barabanning aylanish yo‘nalishining o‘zaro aloqasi aniqlovchi belgi xisoblanadi.

## **7. Qurilma yoki uning konstruktiv elementi (detal yoki bo‘g‘inlari) ishlangan material.**

Misol: “Oksidlanish jarayonlaridan ximoyalangan va ish yuzasi xamda tok uzatuvchi elektrodlarni o‘z ichiga oladigan yuqori temperaturali isitish elementi shu bilan farklanadiki, isitkich ish yuzasining qalinligi 0,1 mm dan ortiq kremniy karbid plyonka bilan qoplangan”. (Ixtirochilar M.S.Saidov va boshqalar, 1993 yil).

Bu yerda bunday belgi detal (plyonka)ning kremniy karbiddan ishlanganligidir.

Shuni qayd etib o'tamizki, mayjud materiallar ichidan zarur materialni tanlab olish uchun odatda ixtirochilik ijodiyoti talab etilmaydi, shuning uchun xam bunday yechimlar odatda patentga layoqatli emas deb topiladi.

Materialni identifikatsiyalash uchun materialning faqat nomi yoki xususiyatini ko'rsatish yetarli emas, materialning sifat va miqdor tarkibini ko'rsatgan xolda uni bat afsil tavsiflash zarur.

Misol: "Past xaroratlarni o'lhash va boshqarish uchun mo'ljallangan termojuft temir qo'shilgan mis asosidagi materialdan tayyorlangan manfiy termoelektrod va mis asosidagi materialdan tayyorlangan musbat elektroddan iborat bo'lib, manfiy elektrond materiali tarkibida qo'shimcha ravishda marganets mavjudligi bilan farqlanib turadi va tarkiblar nisbati quydagicha bo'ladi, mass.%:

Temir – 0,5–1,2

Manganets – 0,05–0,5

Mis – qolgani..."

Qurilma elementlari materialini tavsiflash uchun qattiq xolatda bo'lgan moddadan foydalanish bilan birga uning qurilma elementlari vazifasini bajarishdagi suyuq, gazsimon va sochiluvchan xolatdagi tavsiflaridan xam foydalanish mumkin.

Moddani nomi bilan (agar u barchaga ma'lum bo'lsa), uning xolatini ko'rsatish, sifat va miqdor tarkibini ko'rsatish, xususiyatlarini ko'rsatish, masalan, "yuqori qisiluvchan suyuqlik" atamasi bilan tavsiflash mumkin.

### 3. "Usul" ixtiro obyekti sifatida.

Ixtironing yana bir boshqa obyekti usuldir. Ixtiro obyekti sifatida usulni tavsiflovchi belgilar quydagilar iborat:

#### 1. Xarakat yoki xarakatlar majmui (operatsiyalar)ning mavjudligi.

Misol: "Olovni o'chirish moddalarini favvora og'ziga uzatish yo'li bilan favvora bo'lib otilib chiqayotgan maxsulotlar yong'inini o'chirish usuli shu bilan farqlanadiki, olovni o'chirish moddalarini bevosita favvora og'ziga kiritish ularni favvora bo'lib otilib chiqayotgan maxsulot bilan ejeksiyalash (bug'ga aylantirish) yo'li bilan amalga oshiriladi" (ixtirochi B.E.Qosimov, 1992 yil).

Ushbu ixtiro farqli belgisi – yong'inni o'chirish vositalarini bevosita favvora og'ziga ejeksiyalash bo'yicha yangi operatsiyadan foydalanilganligi bilan tavsiflanadi.

#### 2. Xarakatlar (usullar, operatsiyalar)ni vaqt bo'yicha bajarish tartibi (ketma-ket, bir vaqtning o'zida, turlicha qo'shib va xokazo);

Misol: "Shishib chiqqan oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish usuli, bunda don uzlucksiz oqim bilan majburiy ravishda xajmi don xarakati yo'naliishi bo'yicha kichrayib boradigan ish kamerasiga uzatiladi, yuqori bosim va xarorat ta'sirida parchalanib xamirsimon massaga aylantiriladi, so'ngra ochiq joyda ekstrudatsiyalanadi, shu yerda maxsulot qavartiriladi va pishiriladi, bosim va xarorat ta'sirida don bir vaqtning o'zida ish kamerasi bo'ylab o'tayotganda mayda zarrachalarga parchalanadi, kameradan chiqish oldidan esa unsimon qilib maydalanadi" (ixtirochilar M.N.Vaxidov, A.A.Tkebuchayev, 1993 yil).

Ko'rinish turibdiki, bu ixtiroda nafaqat xarakatning mavjudligi, balki bu xarakatlarni vaqt bo'yicha amalga oshirish tartibi xam muximdir.

### **3. O‘arakatlarni amalga oshirish, rejim, moddalar (dastlabki xom ashyo, reagentlar, katalizatorlar va x.k.), qurilmalar (moslamalar, asboblar, uskunalar va x.k.), mikroorganizmlar shtammlari, o‘simlik va xayvonlar xujayralari kulturalaridan foydalanish.**

Misol: “YOQoch-tolali plitalardan manzarali panellar tayyorlash usuli issiq presslash, yuzani bo‘yoq moddasi bilan qoplash va loklashdan iborat bo‘lib, shu bilan farqlanadiki, presslashdan oldin yoqoch-tolali plitalarning buQ kamerasida 100–200 S xaroratda 5–15 daqiqa tutib turilishadi, so‘ngra 1,0–3,0 Mpa bosimda va 120–160<sup>0</sup> S xaroratda 1–30 daqiqa davomida presslanishadi, xavoda 24–72 soat ushlab turilishadi, yuzasi polivinilatsetat asosidagi suv emulsiyasi bilan qoplanishadi” (ixtirochilar Y.A.Itskovich, V.A.Pak, 1993 yil).

Bu misolda operatsiyalarni amalga oshirishning muayyan rejimlari (xarorat, bosim, vaqt), shuningdek old yuzani qoplash uchun foydalilanligi modda aloxida belgilar xisoblanadi.

Boshqa bir misol: “Lyuminofor eritmasining lyuminessensiya intensivligi unga kiritiladigan gossipol miqdoriga bog‘liqligini o‘lhash yo‘li bilan gossipolni aniqlash usuli shu bilan farqlanadiki, lyuminofor sifatida rodamin–6J ning atsetondagi to‘yingan eritmasidan foydalilanigan, bunda qo‘zQatish to‘lqini va lyuminessensiya nurlanishi uzunligi tegishlicha 366 va 572 nm qilib belgilanadi” (ixtirochilar M.T.Toshev va boshqalar, 1993 yil).

Qayd etib o‘tamizki, ixtiro obyekti bo‘lgan usul faqat turli texnologik jarayonlar bilan chegaralanmaydi, u inson faoliyatining istalgan soxasiga tegishli bo‘lishi mumkin, masalan, tibbiyotga: “Qonni lazer nurlari bilan nurlatish usuli periferik va markaziy qon tomirlarini yorug‘lik o‘tkazib punksiyalash va kateterlashdan iborat bo‘lib, shu bilan farqlanadiki, yorug‘lik o‘tkazgichlar sifatida vena ichiga yuboriladigan optik shaffof tibbiyot eritmalaridan foydalilanigan bo‘lib, qon tomiriga yuborilganda ular o‘qdosh yo‘nalishdagi lazer nurlari bilan yoritiladi” (ixtirochilar Y.I.Kalish va boshqalar, 1993 yil).

Turli prognozlash usullari xam usul bo‘lishi mumkin, masalan “Zilzilalarni prognozlash usuli, bunda tadqiq etilayotgan mintaqada Yerning magnit maydoni (YEMM)ni prognostik kuzatish punktlari tarmoqlari bo‘yicha YEMM ning vaqt va makon bo‘yicha o‘zgarishlari aniqlanadi, YEMMdai anomal o‘zgarishlari yuz berayotgan mintaqalar ajratiladi, uning farqli tomonlari shundan iboratki, takroriy suratga olishlar natijalari bo‘yicha dastlabki davrga nisbatan izoliniyalarda YEMM sikllararo o‘zgarishlari kartasi tuziladi, anomal o‘zgarishlar frontining vaqt va makon bo‘yicha rivojlanish dinamikasi aniqlanadi, butun maydon bo‘yicha frontning rivojlanish vektorlari va xar bir vektordan teskari yo‘nalishda o‘tkazilgan liniyalar kesishadigan soxalar bo‘yicha aniqlanadi, zilzila markazining qayerda joylashganligi aniqlanadi” (ixtirochilar M.Y.Mo‘minov va boshqalar, 1993 yil).



Usullarni ko‘rib chiqishni tugatar ekanmiz shuni qayd etamizki, usullarni patent bilan muxofazalash faqat qandaydir biror-bir buyumni tayyorlash texnologik jarayoniga emas, balki umuman shu buyumning o‘ziga xam tarqaladi. Shuning uchun ixtironing eng ko‘p xuquqiy muxofazasini ta’minlash uchun usulni patentlashdan foydalilanadi.

#### **4. “Modda” ixtiro obyekti sifatida.**

Ixtiro obyektlarining keyingisi moddadir. Moddalarga quyidagilar kiradi:

**1. Mexanik yo‘l bilan, ya’ni ingrediylentlarni (aralashmalar, yopishqoq qorishma, pastalar va boshqalar) oddiy aralashtirish yo‘li bilan olingan moddalar.** Bunday moddalar quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- sifat tarkibi (ingrediyentlar);
- miqdoriy tarkibi (ingrediyentlar miqdori);
- kompozitsiya strukturasi;
- ingrediyentlar strukturasi;
- tarkibi belgilanmagan kompozitsiyalarni tavsiflash uchun ularning fizik–kimyoviy, fizik va utilitar ko‘rsatkichlari, shuningdek olish usuli belgilaridan foydalanish mumkin.

Misol: “Radioelektron elementlarni kavsharlash uchun pasta kanifol flyusli qalayi–qo‘rg‘oshinli kavshar aralashmasi va kavsharga nisbatan erish xarorati ancha yuqori bo‘lgan metall zarrachalarini kavshar bilan xo‘llaydigan legirlovchi qo‘srimchadan iborat bo‘lib, shu bilan farqlanadiki, tarkibida legirlovchi qo‘srimcha sifatida zarrachalarining o‘lchami 0,4–6 mkm li molibden permalloy kukuni mavjudligi bilan farqlanadi va uning miqdori kavshar va flyus umumiy massasida 10–14 mass% ni tashkil etadi” (ixtirochi A.E.Adamov, 1993 yil).

## **2. Fizik–kimyoviy o‘zgarishlar yo‘li bilan olingan moddalar (qotishmalar, kerakmik massalar, qurilish materiallari, shisha va xokazo).**

Misol: “Jiyin eriydigan gil, fosfor ishlab chiqarishi shlakidan iborat keramik massa shu bilan farqlanadiki, uning tarkibida qo‘srimcha tarzda shishi siniqlari va vollastonit bo‘lib, tarkibiy qismlari quyidagi nisbatda bo‘ladi, mas.%:

Qiyin eriydigan gil	55–64,5
Fosfor ishlab chiqarishi shlaki	8–21
Shisha siniqlari	17–22,5
Vollastonit	0,5–1,5”

(Ixtirochilar Z.X.Djumaxodjayev va boshqalar, 1994 yil).

Boshqa bir misol: “Chinni tayyorlash uchun olovga bardoshli gil va chinni siniqlaridan iborat keramik massa shu bilan farqlanadiki, uning tarkibida qo‘srimcha ravishda bariy angidrid va chinni siri bo‘lib, tarkibiy qismlari quyidagi nisbatlarda bo‘ladi, mas.%:

Olovga bardoshli gil	3–5
Bariy angidrid	0,8–1,2
Chinni siri	5,8–7,2
Chinni siniqlari	88–90”

(Ixtirochilar Z.X.Djumaxodjayev va boshqalar, 1994 yil).

## **3. Kimyoviy yo‘l bilan olingan moddalar yoki kimyoviy birikmalar, shu jumladan yuqori molekulyar birikmalar.** Kimyoviy birikmalarni tavsiflash uchun quyidagi belgilardan foydalilaniladi, xususan:

- past molekulyar birikmalar uchun – sifat tarkibi (ayrim elementlarning atomlari), miqdoriy tarkibi (xar bir element atomining soni), kimyoviy tuzilish formulasida aks ettirilgan atomlar o‘rtasidagi aloqa va ularning molekulada o‘zaro joylashishi.

Misol: “NH<sub>3</sub> – ammiak: sifat tarkibi – azot va vodorod, miqdoriy tarkibi – 1 atom azot va 3 atom vodorod, tuzilish formulasи

(azot atomi uchta kovalent boqlar bilan bog‘langan va bunda bitta noma’lum elektronlar juftini saqlab qoladi);

- yuqori molekulyar birikmalar uchun – makromolekula bitta zvenoning kimyoviy tarkibi va strukturasi, umuman makromolekula strukturasi (chiziqiy, tarmoqlangan), zvenolarning davriyligi, molekulyar-massa, molekulyar-massa taqsimlanishi, makromolekulaning geometriya va stereometriyasi, uning yon va oxirgi guruxlari.

Misol: “Kabellar uchun izolyatsiya materiali tayyorlash uchun (20–40)x104 molekulyar massali (–SN2–SN2) formulali polietilen”;

- strukturasi belgilanmagan individual birikmalar uchun – ushbu birikmani boshqa birikmadan farqlash uchun zarur bo‘ladigan fizik–kimyoviy va boshqa xususiyatlari (shu jumladan uni olish usulining belgisi).

Misol: “Xinin daraxti po‘stlog‘idan ajratib olingan, malyariyaga qarshi faollikka va quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan X alkoloid:

– molekulyar massasi – 324 dalton;

– element tarkibi,%;

S	73,5–74,5
N	8,1–8,5
O	8,75–9,25
N	qolgani;

– 230 nm da (spirtda) UFda maksimum yutilish;

– rangi – oq;

– fizik xolati – qattiq kristall modda, erish temperaturasi 570S.

- gen muxandisligi maxsulotlariga oid bo‘lgan individual birikmalar uchun – nukleotidlarning ketma-ketligi (nuklein kislotalar fragmentlari xolida) yoki fizik karta (rekombinant nuklein kislotalar va vektorlar xolida), aminokislotalar ketma-ketligi, shuningdek ushbu birikmani boshqalardan farqlash uchun zarur bo‘lgan fizik–kimyoviy tavsiflari.

Shuningdek moddalarga yadro o‘zgarishlari yo‘li bilan olingan moddalar xam kiradi. Bu moddalarni tavsiflash uchun quyidagi belgilardan foydalaniladi:

- sifat tarkibi (element izotopi (izotoplari), miqdoriy tarkibi (proton va neytronlar soni);
- asosiy yadroviy tavsiflari: yarim parchalanish davri, nurlanish tipi va energiyasi (radioaktiv izotoplar uchun).

## 5. “Mikroorganizm shtammi” ixtiro obyekti sifatida

Endi mikroorganizmlarning individual shtammlari, o‘simlik va xayvonlar xujayralari kulturalarini tavsiflash uchun foydalaniladigan belgilarni ko‘rib chiqamiz:

- kelib chiqishi (ajratib olingan manbai, shajarasi);
- taksonomik tavsifi;
- markerli tavsiflari, yetishtirishning standart sharoitlari, shtammdan ko‘paytiriladigan foydali modda nomi va xususiyatlari, faollik (maxsuldarlik) darajasi;

- virtulentligi, antigen strukturası (tibbiy va veterinariya maqsadlariga mo‘ljallangan mikroorganizmlar shtammlari uchun);
- duragaylash tamoyili (duragay mikroorganizmlar shtammlari uchun);
- mikroorganizm shtammini boshqalardan farqlash uchun zarur boshqa tavsiflari keltirilishi mumkin.

Bundan tashqari, mikroorganizmlarning individual shtammlari, o‘simlik va xayvonlar xujayralari kulturalarini tavsiflash uchun qo‘sishma ravishda quyidagi belgilardan foydalaniladi:

- o‘sish (kinetik) tavsiflari;
- xayvon organizmida (duragaylar uchun) o’sirish (kultivatsiya) tavsiflari;
- morfogenezga qobiliyati (o‘simlik xujayralari uchun);
- xujayra kulturalarini boshqalardan farqlash imkonini beradigan boshqa tavsiflari.

Mikroorganizmlar, o‘simlik va xayvonlar xujayralari kulturalari konsorsiumini tavsiflash uchun yuqorida sanab o‘tilganlarga qo‘sishma ravishda quyidagi belgilardan foydalaniladi, xususan: moslashtirish va seleksiya qilish omillari va sharoitlari, taksonomik tarkibi, ustunlik qiluvchi tarkibiy qismlari va soni, almashtirish imkoniyati, umuman konsorsiumning tipi va fiziologik xususiyatlari, shuningdek konsorsiumni boshqalardan ajratish imkonini beradigan boshqa ko‘rsatkichlari.

## 6. “Yangi maqsadlarda qo‘llanilishi” ixtiro obyekti sifatida

Endi ixtiro obyektlaridan so‘nggi obyekt – ilgari ma’lum bo‘lgan qurilmalar, usul, modda, shtammlarni yangi maqsadlarda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz.

Ushbu obyektning tavsifi qo‘llanilayotgan obyektning uni identifikatsiyalash uchun yetarli bo‘lgan qisqacha tavsifidan iborat bo‘ladi, so‘ngra obyektning yangi maqsadlari yoki yangi maqsadda qo‘llanilishini ko‘rsatish zarur.

Misol: “Seladonit va tarkibida seladonit bo‘lgan jinslarni xlorsiz kaliyli o‘Qit sifatida qo‘llanish” (ixtirochi R.G.Yusupov, 1993 yil).

Boshqa ma’lum misollar: “Oziqabop jelatinni alyuminiy va zanglamaydigan po‘latdan tayyorlangan konstruksiyalarda issiqlikdan ximoyalovchi qoplama sifatida qo‘llanish”, “PVA yelimini yaralarning bitishi uchun antiseptik vosita sifatida qo‘llanish” va xokazo.



Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, bitta ixtiro turli obyektlarning belgilari bilan tavsiflanadigan vaziyatlar xam bo‘lishi mumkin. Masalan, yangi moddani muxofazalash o‘rniga uni olish usulini tanlash, usul sifatida esa yanglishib qurilmaning ishini bayon etish mumkin va x.k. **Ixtiro qanday obyektligini to‘g‘ri aniqlash uning xuquqiy jixatdan to‘la muxofaza qilinishiga yordam beradi.**

## 5-MA’RUZA. Ixtironi patentlash

**Reja:**

- 1. Ixtironing patentga layoqatlilikning shart-sharoitlari;**
- 2. Ixtiroga patent olish uchun tuziladigan talabnama xujatlari tarkibi;**
- 3. Ixtironing birligiga qo‘yiladigan talablar ;**
- 4. Talabnomaning rasmiy ekspertizasi. Ixtiro ustuvorligi;**
- 5. Ixtironing analoglari va prototipini aniqlash. Ixtiro formulasini va tavsifini tuzish**

## 1. Ixtironing patentga layoqatlilikning shart-sharoitlari

Ixtiroga patent faqat patent ekspertizasi bu ixtironi patentga layoqatli, ya’ni patenga layoqatlilikning belgilangan mezonlariga javob beradi deb tan olgan xoldagina berilishi mumkin. Boshqacha aytganda, patent ekspertizasining ijobiq qarori chiqarilmaguncha xech bir talabnomalar obyekti (qurilma, usul, modda va x.k) ixtiro deb atalishi mumkin emas. O’atto ixtiroga mualliflik xuquqi (muallifning shaxsiy nomulkiy xuquqlari ko’zda tutiladi) patent olingandan so‘ng yuzaga keladi.



O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq ixtironing patentga layoqatliligi mezonlari (yoki shartlari) uning **yangiligi, ixtiro darajasi** va **sanoatda qo‘llanilishi** bilan belgilanadi.

- Ixtiro texnika darajasi bo‘yicha xech kimga ma’lum bo‘lmasa u **yangi** deb tan olinadi.
- Agar ixtironing mavjud texnika darajasidan kelib chiqmaganligi aniq bo‘lsa **ixtiro darajasiga** ega bo‘ladi.
- Agar ixtirodan sanoatda, qishloq xo‘jaligida, sog‘liqni saqlash va boshqa soxalarda foydalanish mumkin bo‘lsa, u **sanoatda qo‘llaniladigan** deb tan olinadi.

Bunda ixtironing ustuvorlik sanasigacha jaxondagi barcha uchun ma’lum bo‘lgan xar qanday ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan **texnika darajasini** rasman quyidagi ikki qismga bo‘lish mumkin, xususan:

1. Axborotning e’lon qilingan va barcha foydalanishi uchun ochiq bo‘lgan manbalari, jumladan:

- e’lon qilingan muxofaza xujjatlariga tavsiflar, e’lon qilingan ixtiroga talabnomalar – ular e’lon qilingan sanadan boshlab;
- O‘zbekiston Respublikasining istalgan nashrlari – bosishga ruxsat etilgan sanadan boshlab;
- boshqa nashrlar – bosilib chiqqan sanadan boshlab, bu sanani aniqlash imkoniyati yo‘qligida esa – nashrda ko‘rsatilgan yilning 31 dekabridan yoki oyning oxirgi kunidan (agar bosilib chiqqan vaqt tegishlicha faqat oy va/yoki yil bilan ko‘rsatilgan bo‘lsa) boshlab;
- maqolalar, monografiyalar, obzorlarning deponentlangan qo‘lyozmalari va boshqa materiallar deponentlangan sanadan boshlab;
- ilmiy–texnika axboroti organlaridagi ilmiy–tadqiqot ishlari to‘g‘risidagi xisobotlar, texnologik va loyixa xujjatlar – vakolatli organga topshirilgan sanadan boshlab;
- meyoriy–texnik xujjatlar (Davlat tarmoq standartlari, Texnik shartlar va boshqalar) – vakolatli organda ro‘yxatga olingan sanadan boshlab;
- qo‘lyozma xuquqida nashr etilgan dissertatsiya materiallari va dissertatsiya avtoreferatlari – kutubxonaga tushgan sanadan boshlab;
- tanlovga qabul qilingan ishlari, ular barcha tanishishi uchun taqdim etilgan sanadan boshlab;
- axborotning ko‘rib qabul qilinadigan manbalari (plakatlar, prospektlar, chizmalar va x.k.), rasmiy xujjatlar bilan ularni ko‘rish mumkinligi tasdiqlangan sanadan boshlab;
- og‘zaki ma’ruzalar, leksiyalar, nutqlar – bunday ma’ruza yoki nutq qilingan sanadan boshlab, ular belgilangan tartibda plenkaga yozib olingan yoki stenografiya qilingan bo‘lishi shart;
- radio, televideniye, kino orqali eshittirilgan xabarlar bunday eshittirish eshittirilgan va tegishli axborot eltuvchi (plyonka, audio yoki videokasseta)da qayd qilingan sanadan boshlab.

2. Shu kabi ixtiolar (qurilma, usul va x.k.)dan ochiq foydalanish faktlari, xususan:

- ishlab chiqarish jarayonida, tayyorlanayotgan yoki ishlatilayotgan maxsulotda, shu jumladan foydalanishga topshirilgan tajriba namunasida foydalanish, yoki xo‘jalik oborotiga boshqa yo‘l bilan kiritish natijasida barchaga ma’lum bo‘lgan texnika vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar – bunday ma’lumotlardan umumfoydalanish mumkinligini tasdiqlovchi rasmiy xujjatda ko‘rsatilgan sanadan boshlab;

- ko‘rgazmaga qo‘yilgan eksponentlar, ular namoyish qilina boshlagan sanadan boshlab (buni tasdiqllovchi rasmiy xujjat mavjud bo‘lishi zarur).
- Bundan tashqari, ixtironing yangiligini belgilashda texnika darajasiga Patent idorasiga ancha ilgarigi ustuvorlik sanasi bilan berilgan va **qaytarib olinmagan talabnomalar** xam kiritiladi.



Odatda, ixtiro darajasini ekspertizadan o‘tkazishda dastavval texnika darajasidan **ixtironing analoglari**, va uning **prototiplari** aniqlanadi.

- Ixtironing ustuvorlik sanasigacha ma’lum bo‘lgan va belgilari shu ixtiro belgilari bilan o‘xhash texnik yechim (vosita) **ixtironing analogi**, ya’ni unga o‘xhash ixtiro deb ataladi.
- Ixtiro prototipi** – belgilarining jami bo‘yicha ixtiroga eng yaqin bo‘lgan ixtiro analogidir.

Talabnoma berilgan ixtiro, agar patent ekspertiza o‘tkazishda texnika darajasidan talabnomaning ixtiro formulasida ko‘rsatilgan barcha belgilarga ega bo‘lgan ma’lum prototipi topilmasa yangilik mezonlariga mos deb tan olinadi.

So‘ngra talabnoma berilgan ixtironing ma’lum prototiplardan ajratib turuvchi alovida belgilari aniqlanadi va texnika darajasidan ushbu alovida belgilari mos belgilari bor yechimlar aniqlanadi. So‘ngra ixtironing turli yechimlardan olingan ma’lum belgilardan tuzilmaganligi shak–shubxasizligi yoki ixtiro darajasiga egaligi baxolanadi, ya’ni mavjud va ravshan usul emasligi, demak ixtiroligi belgilanadi.

## 2. Ixtiroga patent olish uchun tuziladigan talabnoma xujjatlari tarkibi

Ixtiroga beriladigan patent xuquqiy xujjat xisoblanadi. Shuning uchun patent ekspertizasi tomonidan tekshiriladigan birinchi shart talabnomada zarur xujjatlarning mavjudligi va ularning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligidir. Ushbu talabnoma bo‘yicha patent berilishi yoki berilmasligi aynan patent olish uchun berilgan talabnoma qanchalik puxta o‘ylab tuzilganligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilganligiga bog‘liq.

Talabnoma xujjatlarining mazmuni va rasmiylashtirilishiga qo‘yiladigan talablar O‘zbekiston Respublikasining “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunining tegishli moddalariga muvofiq Davlat patent idorasi tomonidan tasdiqlangan Ixtiolar va foydali modellarga talabnomalarni tuzish va taqdim etish qoidalari bilan belgilanadi.

Ushbu talablarga muvofiq ixtiroga patent olish uchun berilgan xar bir talabnoma o‘z ichiga quyidagi xujjatlar to‘plamini olishi zarur:



**1. Patent berish to‘g‘risidagi ariza.** Ariza asosiy xujjat bo‘lib, unda talabnoma kim tomonidan berilayapti va patent kimning nomiga so‘ralayapti, ya’ni ixtiro patentga layoqatli deb topilgan xolda ixtiroga mutlaq xuquqlar kimga tegishli bo‘ladi, degan savollarga javob bo‘lishi kerak. Arizada ixtiro muallifi (mualliflari), talabnoma beruvchi (masalan, agar talabnoma beruvchi muallifning ish beruvchisi, uning merosxo‘ri yoki boshqa xuquqiy vorisi), muxofaza xujjati kimning nomiga so‘ralayotgan bo‘lsa shu shaxs (bo‘lajak patent egasi) to‘g‘risidagi to‘liq ma’lumotlar, shuningdek ularning manzillari ko‘rsatiladi. Ariza albatta barcha mualliflar va talabnoma beruvchi (agar talabnoma beruvchi yuridik shaxs bo‘lsa imzo muxr bilan tasdiqlanadi) tomonidan imzolanishi shart;

### Ariza blankasini qarang



2. **Ixtironing tavsifi**, u belgilangan talablar bo'yicha tuzilishi va ixtironi amalga oshirish uchun zarur darajada uni to'liq ochib berishi kerak.

**Ixtiro tavsifi uning nomi bilan boshlanadi va odatda quyidagi bo'limlarini o'z ichiga oladi**



3. **Ixtiro formulasi**, u ixtironing xuquqiy xajmini belgilab beradi, demak talabnomaning eng muxim xujjati xisoblanadi. Ixtiro formulasi ixtironing moxiyatini ochib beruvchi va ta'riflovchi so'zlar shaklida tuziladi va ixtiro tavsifiga to'la mos kelishi kerak.

**Ixtiro formulasining asosiy vazifasi – xuquqiy bo'lib**, aynan shu ixtiro formularsi bo'yicha qanday real obyektlar (texnologik jarayonlar, mashinalar, uskunalar, boshqa buyum va tovarlar) patent olingan ixtiroga mosligi aniqlanadi.

**Endi ixtiro formulasining tuzilishi strukturasini ko'rib chiqamiz. Ixtiro formularsi bir zvenoli yoki ko'p zvenoli bo'lishi mumkin.**



4. Ixtiro moxiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan **chizmalar va boshqa materiallar**

**Chizmalarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:**



5. Ixtironing qisqartirilgan tavsifidan iborat bo'lgan **referat**. Referat faqat texnik axborot sifatida xizmat qiladi va xech qanday xuquqiy axamiyatga ega emas.



6. Agar ixtiro mikroorganizmlar shtammi, o'simlik va xayvonlar xujayralari kulturalariga oid bo'lsa, talabnomaga ularni rasmiy deponentlash vakolati berilgan kolleksiya – **depozitariyda deponentga olinganligi to'g'risidagi xujjat** ilova qilinadi. Bunda deponentlash sanasi ixtironing ustuvorlik sanasidan oldin bo'lishi kerak.

Talabnomalar Patent idorasiga muallif, ish beruvchi yoki ularning qonuniy vorislari tomonidan topshiriladi. Talabnomani bevosita talabnomaga beruvchining o'zi yoki uning tegishli ishonchnomaga ega bo'lgan patent bo'yicha ishonchli vakili topshirishi mumkin.

Talabnomalar o'zbek yoki rus tilida berilishi mumkin.

Talabnomaga uni topshirish uchun belgilangan miqdordagi boj to'langanligini tasdiqlovchi xujjat ilova qilinadi. Agar talabnomalar patent bo'yicha ishonchli vakil orqali topshiriladigan bo'lsa, talabnomalar beruvchi tomonidan vakilga berilgan ishonchnoma ilova qilinadi.

Ariza, tavsiflar, formula, chizmalar va referat uch nusxadan taqdim etiladi. Qolgan xujjatlar bir nusxada topshiriladi.

Bunda ixtiroga talabnomalarning barcha xujjatlari ularni uzoq vaqt saqlash va cheklanmagan miqdorda nusxalar olib ko‘paytirish imkonini beradigan qilib tayyorlanishi va rasmiylashtirilishi zarur. Xujjatlarning matnnini tuzishga qo‘yiladigan rasmiy talablar qoidalar bilan belgilab beriladi, ular, masalan, xar bir varaqning faqat bir tomonidan foydalaniladi, xar bir xujjat (tavsif, formula va xokazo) aloxida varaqdan boshlanadi, barcha materiallar A4 formatdagi oq qoQozda tayyorlanadi, matn ikki intervalda yoziladi va xokazo kabilardan iborat bo‘ladi.

### Ilova: Ixtironing tavsifi

**“Ixtiroga oid texnika soxasi”**. Bu bo‘limda ixtironi qo‘llanish soxasi ko‘rsatiladi. Ixtironing qo‘llanilishi yoki undan foydalanishi mumkin bo‘lgan bunday soxalardan mashinasozlik, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika yoki istagan boshqa faoliyat soxasi misol bo‘ladi.

- Keyingi bo‘lim “**Texnika darajasini**”ning tavsifi bo‘limi bo‘lib, unda talabnama beruvchiga o‘zining ixtirosiga o‘xhash (analog) ixtiolar bo‘yicha ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar keltiriladi. Bunday o‘xhash ixtiolar ichidan ixtiroga eng yaqin bo‘lgan uning prototipi ajratib ko‘rsatilishi kerak.

O‘xhash ixtirolardan xar birini bayon etishda o‘xhash ixtironing talabnama beruvchiga ma’lum bo‘lgan va talab etiladigan texnik natijaga erishish uchun to‘sinqlik qiladigan kamchiliklari ko‘rsatiladi.

- Ixtironi tavsiflashning keyingi bo‘limi “**Ixtironing moxiyati**” deb ataladi va ixtiro xal etishi mo‘ljallangan vazifani bayon etishdan boshlanadi. **Ixtironing vazifasi** imkon qadar batafsil yoritilishi va mantiqan ixtiro protiplarining “texnika darajasi” bo‘limida ko‘rsatilgan kamchiliklaridan kelib chiqqan xolda ochib berilishi, ya’ni ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Bu bo‘limda ixtironing vazifalaridan so‘ng bevosita ixtironing moxiyati ochib beriladi, xususan **ixtironing barcha muxim belgilari** birgalikda ko‘rsatiladi.

**Ixtironing muxim belgilari** deb xar biri aloxida olganda ixtiro o‘z oldiga qo‘ygan vazifani bajarish uchun zarur, barchasi birgalikda esa bu vazifani xal qilish uchun yetarli bo‘lgan belgilarga aytildi.

Ixtironing muxim belgilari majmui to‘liq ochib berilgandan so‘ng ixtironi amalga oshirishdan olinadigan **texnik natija** ko‘rsatiladi. Texnik natija, xususan ishqalanish koefitsiyentini pasaytirish (oshirish), vibratsiyani pasaytirish, yorilishlarning oldini olish va xokazoda ifodalanishi mumkin.

- Undan keyin “**chizmalar figuralari ro‘yxati**” bo‘limi keladi. Bu bo‘limda barcha chizmalarning figuralari, ixtironi tushuntirib beradigan va talabnomaga ilova qilinadigan materiallar, shuningdek figuralarning xar birida nima aks etganligi (yoki ularning mazmuni)ni ko‘rsatuvchi qisqa yozuvlar keltiriladi. Masalan, “1–figurada qurilma tasvirlangan, yuqorida ko‘rinishi, 2–figurada A–A kesimi ko‘rsatilgan..”.
- Ixtiro tavsifining oxirgi bo‘limi “**Ixtironi amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovchi ma’lumotlar**” bo‘limidir. Bu bo‘limda ixtironi aniq bajarish yoki foydalanishning batafsil misoli (yoki bir nechta misollari) keltiriladi. “Ixtironing moxiyati” bo‘limida ko‘rsatilgan texnik natija qanday olinishi misollardan aniq ko‘rinishi kerak.

Xususan, agarda ixtiro qurilmaga oid bo‘lsa, dastlab uning konstruksiyasining muvozanat (statik) xolatidagi tavsifi beriladi, so‘ng esa uning xarakati (ishlashi) yoki foydalanish usuli (chizmalar figurali izoxlari bilan) tavsiflanadi. Ixtiro usulga oid bo‘lsa amalga oshiriladigan xarakatlar (usullar, operatsiyalar) ketma-ketligi batafsil ochib beriladi. Moddaga oid ixtirolarning esa fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari keltiriladi va xokazo.

### Ilova: Ixtiro formulasi

**Bir zvenoli** ixtiro formulasi bitta banddan iborat bo‘ladi va bitta ixtironi tavsiflash uchun qo‘llaniladi, uni bajarish yoki foydalanishning qandaydir aloxida xollarini olib berilmaydi.

**Ko‘p zvenoli** (bo‘Qinli) ixtiro formulasi bir nechta banddan iborat bo‘ladi va talabnomalar beruvchi ixtironi bajarish yoki foydalanishning qandaydir qo‘sishimcha aloxida xollarini (qo‘sishimcha texnik natija olishni ta’minlaydigan) olib berishni istaganda qo‘llaniladi.

Ko‘p zvenoli formula ixtirolar guruxini tavsiflash uchun xam qo‘llaniladi (Keyingi bo‘limga qarang).

Ko‘p zvenoli formulada faqat mustaqil band (yoki bandlar) xuquqiy axamiyatga ega, **ya’ni bu bandga kiritilgan belgilarning jami patent bilan beriladigan xuquqiy muxofaza xajmini belgilab beradi**. Shu munosabat bilan mustaqil band yoki bandlarga ixtironi amalga oshirish va asosiy texnik natijani olish uchun zarur xamda yetarli bo‘lgan muxim belgilarni kiritish kerak.

Endi ixtiro formulasi bandlari qanday struktura bo‘yicha tuzilishini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Bir zvenoli formula yoki ko‘p zvenoli formulaning mustaqil bo‘lмаган bandi, odatda, ikki qismidan iborat bo‘lishi kerak:

- chegaralovchi qism, ixtiro maqsadini aks ettiruvchi tur tushunchasidan (odatda bu ixtiro nomi bilan mos keladi) boshlanadi va ixtiro prototipining belgilari bilan mos tushadigan muxim belgilarni o‘z ichiga oladi;
- ixtironi prototipidan farqlovchidan iborat bo‘lgan farqlovchi qism.

Chegaralovchi qism farqlovchi qismdan “shu bilan farq qiladiki,...”) so‘z birikmasi bilan ajratiladi va bevosita farq qiluvchi qism bayon etiladi.

Formulaning mustaqil bo‘lмаган bandi uning mustaqil bandi kabi chegaralovchi va farqlovchi qismlardan iborat bo‘ladi. Mustaqil bo‘lмаган bandning chegaralovchi qismi, odatda, mustaqil bandda keltirilganga nisbatan qisqartirilgan tur tushunchasidan boshlanishi kerak. Keyin u qaysi bandga oidligiga ko‘ra mustaqil band yoki mustaqil bo‘lмаган band dalil sifatida keltiriladi, “shu bilan farq qiladiki,...” so‘z birikmasidan keyin ixtironi bajarish yoki undan foydalanishning ushbu aloxida xollarini tavsiflovchi belgilar olib beriladi. Tegishli mustaqil bandning dalil sifatida keltirilishi mustaqil bo‘lмаган bandning chegaralovchi qismiga mustaqil bandda olib berilgan barcha muxim belgilar kirishini bildiradi. Mustaqil bo‘lмаган band formulaning bir nechta bandiga bog‘liqligida shu bandlarda izoxlar alternativasi bilan beriladi.

### Ilova: Chizmalar va boshqa materiallar

Chizmalarga quyidagi asosiy talablar qo‘yiladi:

- chizmalar qattiq silliq oq qo‘Qozda o‘chirilib ketmaydigan aniq chiziqlar bilan bajarilishi zarur;
- raqamlar va xarflar qavs, doira yoki qo‘shtirnoq ichiga olinmaydi;
- chizmalar xech qanday yozuvlarsiz bajariladi, “suv”, “bug”, “ochiq”, “yopiq”, A–A bo‘yicha kesimi” kabi zarur so‘zlar bundan istisno;
- bir nechta figuralardagi bir xil elementlar bir xil raqamlar bilan belgilanadi, barcha raqamlar esa ularning tavsiflariga mos bo‘lishi kerak;
- chizmaning xar bir varaQining yuqori o‘ng burchagida ixtironing nomi ko‘rsatiladi.

### Ilova: Patent berish to‘g‘risidagi ariza blankasi

(22) Data postupleniya	Vxodyashiy №	(21) № gosregistratsii
Prioritet	(51) MPK	
Z A Y A V L YE N I YE		V Gosudarstvennoye patentnoye vedomstvo

o vidach patenta na izobreteniye		<b>Respublikি</b> 700047, g.Tashkent. ul. oyte, 2a tel.: 132-00-18, faks: 133-46-56	<b>Uzbekistan</b>
Nijepodpisavshiysya			(yesya)
(71)	Zayavitel	(i)	
Predstavlyaya ukazanniye nije dokumenti, prosit (prosyat) vidat patent na imya			
(ukazivayetsya polnoye imya ili naimenovaniye i mestojitelstvo ili mestonaxojdeniye zayavitelya i litsa, na chyo imya isprashivayetsya oxranniy dokument. Danniye o mestojitelstve avtorov-zayaviteley privodyatsya v grafe pod kodom 97)			Kd organizatsii predpriyatiya po OKPO(yesli on ustanoven) Kod strani po stadartu VOIS ST.3
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Proshu (prosim) ustanovit prioritet izobreteniya po date:</li> <li>• podachi pervoy (ix) zayavki(ok) v strane-uchastnitse Parijskoy konvensii</li> <li>• postupleniya boleye ranney zayavki v Patentnoye vedomstvo</li> <li>• postupleniya tojdestvennoy zayavki v Patentnoye vedomstvo</li> <li>• postupleniya dopolnitelnix materialov k pervoy zayavke</li> </ul> <p>(Zapolnyayetsya tolko pri isprashivanii prioriteta boleye rannego, chem data postupleniya zayavki v Patentnoye vedomstvo)</p>			
(31) № pervoy, boleye ranney, tojdestvennoy zayavki	(32) Data isprashivamogo prioriteta	(33) Kod strani podachi po ST.3 (pri isprashivanii konvencionnogo prioriteta)	
1.			
54	Nazvaniye	izobreteniya	
Shifr problemi (temi) GKNT i t.p. _____			
74 Patentniy poverenniy (polnoye imya registratsionniy nomer, mestonaxojdeniye)			
Telefon:	Teleks:	Faks:	
98 Adres dlya perepiski (polniy pochtoviy adres, imya ili naimenovaniye adresata)			
Telefon:	Teleks:	Faks:	

Perechen prilagayemix dokumentov	Kol-vo l. v 1 ekz.	Kol-vo ekz.	Osnovaniya dlya vozniknoveniya prava na podachu zayavki i polucheniye oxrannogo dokumenta(bез предствавления документа)
• opisaniye izobreteniY.		3	
• formula izobreteniY.(kol-vo nezavisimix punktov _____)		3	
• chertej(i) i iniye materiali		3	
• referat		3	
• dokument ob uplate poshlini za podachu zayavki		1	
• dokument, podtverjdayushiy nalichiye osnovaniy dlya:			• zayavitel yavlyayetsya rabotodatelemi soblyudeni usloviya st.10 Zakona
○ osvobojdeniye ot uplati poshlini			• pereustupka prava rabotodateleminomu litsu
○ umensheniya razmera poshlini			• pereustupka prava avtorom ili yego pravopreyemnikom inomu litsu
• kopiya(i) pervoy(ix) zayavki(ok)(pri isprashivaniyu konvensionnogo prioriteta)			• pravo nasledovaniya
• perevod zayavki na russkiy yaziki			
• dokument, udostoveriyayushiy polnomochiya patentnogo poverennogo			
• drugiye dokumenti (ukazat)			
(72) Avtor (i)(familiya, imya, otchestvo, doljnost, uchenaya stepen i mesto raboti)		(97) Polniy domashniy adres (oblasc, rayon, gorod, ulitsa, dom, dlya inostranev-	Podpis(i) avtora(ov) data

	kod strani po standartu VOIS ST.3)	
YA (mi) (familiya, imya, otchestvo)		
proshu(prosim) ne upominat menya(nas) kak avtora(avtorov) pri publikatsii svedeniy o vidache oxrannogo dokumenta Podpis(i) avtora(ov):		
<b>PODPIS</b>		
podpis(i) zayavitelya(ney) ili patentnogo poverennogo, litsa na chye imya isprashivayetsya oxranniy dokument, data podpisi (ney) (pri podpisaniy ot imeni yuridicheskogo litsa podpis rukovoditelya udostoverayetsya pechatyu)		

### 3. Ixtironing birligiga qo'yiladigan talablar

Shuni qayd etib o'tish muximki, xar bir talabnomaga faqat bitta ixtiroga (bitta qurilma, bir usul, bitta modda va xokazo) yoki o'zaro shunchalik bog'liqligidan **yagona ixtiro g'oyasini** tashkil etadigan ixtiolar guruxiga oid bo'ladi.



Agar ixtiolar o'rtasida mazmuni bir xil texnik o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lsa va u tegishli muxim belgilar bilan ifodalangan bo'lsa ixtiolar guruxi uchun **ixtironing birligiga** qo'yiladigan talablarga rioya qilingan xisoblanadi.

Quyidagi xollar shunday ixtiolar guruxiga misol bo'la oladi:

- talabnomaga ixtiro obyektlaridan biri ikkinchisini (masalan, qurilma, modda yoki shtamm va unio'lish yoki tayyorlash usuli) olish (tayyorlash) uchun mo'ljallangan ixtiro obyektlariga taalluqli;
- talabnomaga obyektlardan biri ikkinchisini (masalan, usul va uni amalga oshirish qurilmasi) amalga oshirish uchun mo'ljallangan ixtiro obyektlariga taalluqli;
- talabnomaga ixtiro obyektlaridan biri ikkinchisidan foydalanish (masalan, usuldan foydalanish uchun mo'ljallangan usul va modda) uchun mo'ljallangan ixtiro obyektlariga taalluqli;
- talabnomaga bir turdag'i va bir xil maqsadlarga mo'ljallangan, prinsipial jixatdan bir xil yo'l bilan bir xildagi texnik natija olishni ta'minlaydigan ixtiro obyektlariga taalluqli (bunday ixtiolar variantlar deb ataladi);
- ixtiolardan biri umuman bir obyektga (qurilma, usul, moddaga), ikkinchisi esa uning o'zi mustaqil yoki boshqa bir obyektlar tarkibida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qismiga taalluqli obyektlar.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, yangi maqsadlarda qo'llaniladigan ixtiolariga taalluqli ixtiolar uchun, agar bunday obyekt (qurilma, usul va xokazo) bitta yangi maqsad bo'yicha qo'llanilgan bo'lsa, birlik talablari bajarilgan xisoblanadi.



Agar bunday yagona ixtiro Qoyasini xosil qilmaydigan ixtiolar guruxiga talabnama berilgan bo'lsa, talabnomada **ixtironing birligi talablari** buzilgan xisoblanadi va bunday talabnama uni bir nechta talabnomalarga bo'lishni taklif qilgan xolda talabnama beruvchiga qaytariladi.

Talabnama beruvchi tegishli rasmiy so'rvnomani olgan sanadan boshlab 3 oylik muddatda obyektlardan qaysi biri ko'rib chiqilishi zarurligini xabar qilishi va tegishli ravishda tuzatilgan talabnama xujjatlarini taqdim etishi shart. Dastlabki talabnama materiallari tarkibiga kiritilgan boshqa obyektlar mustaqil (aloxida) talabnomalar bilan rasmiylashtirilishi mumkin. Agar talabnama beruvchi so'rvnomasi olgan sanadan so'ng belgilangan muddat (3 oy) mobaynida obyektlardan qaysi birini ko'rib chiqish zarurligini xabar qilmasa va aniqlashtirilgan materiallarni taqdim etmasa, ixtiro formulasida birinchi bo'lib ko'rsatilgan obyekt bo'yicha ekspertiza o'tkaziladi.

#### 4. Talabnomaning rasmiy ekspertizasi. Ixtiro ustuvorligi

Talabnama Patent idorasiga tushganidan so'ng u bo'yicha rasmiy ekspertiza o'tkaziladi. Talabnomaning ko'rib chiqish va ixtironing ustuvorlik sanasini belgilash uchun qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma rasmiy ekspertizaning ijobjiy natijasi xisoblanadi.



**Qonunga muvofiq ixtiro ustuvorligi to'g'ri rasmiylashtirilgan talabnama**, ya'ni barcha zarur xujjatlari mavjud bo'lgan talabnama topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi. Agar talabnama Patent idorasiga tushgan sanadaxujjatlardan birortasi yetishmasa (masalan, chizma yoki referat va xokazo), bunday xolda ixtironing ustuvorligi Patent idorasiga zarur xujjatlardan oxirgisi topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

Lekin muayyan xollarda ixtironing ustuvorligi Patent idorasiga talabnama topshirilgan sanadan ancha ilgarigi sana bilan xam belgilanishi mumkin, xususan:

1. Sanoat mulkini muxofazalash bo'yicha Parij konvensiyasi qoidalariga muvofiq ixtiro ustuvorligi Parij konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatda birinchi talabnama berilgan (xuddi shu ixtironing o'ziga) sana bo'yicha (**konvensiya ustuvorligi**) belgilanishi mumkin. Bunday konvension talabnama O'zbekiston Patent idorasiga birinchi talabnama berilgan sanadan boshlab o'n ikki oy mobaynida taqdim etilishi zarur. Aks xolda ushbu talabnomaga konvensiya ustuvorligi xuquqi yo'qoladi. Konvensiya ustuvorligi xuquqidan foydalanishni istagan talabnama beruvchi talabnama berish vaqtida yoki talabnama berilgan sanadan boshlab ikki oy mobaynida bu xaqda ko'rsatishi va Patent idorasiga talabnama taqdim etilgan sanadan boshlab uch oy ichida birinchi talabnomaning tasdiqlangan nussxasini topshirishi zarur. Konvensiya ustuvorligini berishning majburiy sharti konvensiya talabnomasining mazmuni birinchi talabnama mazmuniga mos kelishidir, bu patent ekspertizasini o'tkazish vaqtida tekshiriladi. Shuni qayd etib o'tamizki, konvensiya ustuvorligi bir nechta birinchi talabnomalar bo'yicha so'ralishi mumkin, masalan, ixtiolar guruxi – usul va qurilmaga talabnama taqdim etiladigan xollarda bu ilgari boshqa mamlakatlarda taqdim etilgan ikki talabnomaning birligidan iborat bo'lishi mumkin va xokazo;
2. Ixtironing ustuvorligi sanoat mulki obyektlarini muxofazalash bo'yicha xalqaro bitimlarga muvofiq birinchi aynan **o'xhash talabnama** berilgan sana bo'yicha belgilanishi mumkin, bunda talabnama beruvchi tomonidan qaytarib olingan bo'lsa va uning ustuvorlik sanasi xamda Patent idorasiga talabnama berish sanasi o'rtaida o'n ikki oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lishi kerak;
3. Ilgari topshirilgan talabnomaga **qo'shimcha materiallar** kiritish asosida rasmiylashtirilgan talabnama bo'yicha ixtironing ustuvorligi shu qo'shimcha materiallar topshirilgan sana bo'yicha

belgilanishi mumkin. Ilgarigi talabnomaga qo'shimcha materiallar asosidagi talabnama, odatda, patent ekspertizasi bunday qo'shimcha materiallar ilgarigi talabnomada ko'rsatilgan ixtironing moxiyatini o'zgartiradi deb belgilagan va tegishlicha ularni ko'rib chiqishni rad etgan xollarda rasmiylashtiriladi. Bunda qo'shimcha materiallar asosidagi talabnama talabnama beruvchi patent ekspertizasining qo'shimcha materialarni xisobga olish imkoniyati yo'qligi xabarnomasini olgan sanadan boshlab uch oy mobaynida berilishi kerak.

4. Ixtironing ustuvorligi aynan shu talabnama beruvchining Patent idorasiga ilgari bergen va shu ixtironi ochib beradigan talabnomasi topshirilgan sana bo'yicha xam belgilanishi mumkin. Buning uchun ixtironing ustuvorligini tan olish so'ralayotgan talabnama ixtiro yoki foydali modelga ilgari berilgan talabnama sanasidan boshlab o'n ikki oy ichida berilgan bo'lishi kerak. **Bunda ancha ilgari berilgan talabnama qaytarib olingan deb xisoblanadi.** Agar ixtiro formulasiga kiritilgan barcha belgilar ancha ilgari berilgan talabnama xujjatlari (formula va/yoki ixtiro tavsifi, chizmalar va xokazo)da mavjud bo'lsa, ixtiro ilgarigi talabnomada ochib berilgan deb xisoblanadi. Konvension ustuvorlik xollarini belgilashdagi kabi oldin berilgan talabnama bo'yicha ustuvorlik ilgari berilgan bir nechta talabnama asosida xam belgilanishi mumkin;

5. Qayta ishlangan (aloxida) talabnama (talabnomalar) bo'yicha ixtironing ustuvorligi dastlabki talabnama berilgan sana bo'yicha belgilanadi. Bunday aloxida talabnama nafaqat ekspertiza dastlabki talabnomada ixtironing birligi talablari buzilganligi to'g'risida xabar bergandan so'ng, balki talabnama beruvchining o'z tashabbusi bilan (masalan, agar ilgari ixtiro birligi talablarini qondiradigan ixtiolar guruxiga talabnama berilgan bo'lsa) xam rasmiylashtirilishi mumkin. Agar talabnama talabnama beruvchining tashabbusi bilan qayta ishlangan bo'lsa, birinchi topshirilgan talabnama bo'yicha patent berilishidan oldin taqdim etilishi zarur.

Yana shunday qoida xam mavjudki, unga muvofiq **ancha ilgari ustuvorlik** (konvension ustuvorlik, ilgari berilgan talabnama bo'yicha ustuvorlik, ilgarigi talabnomaga qo'shimcha materiallar topshirilgan sana bo'yicha ustuvorlik va xokazo) **so'ralgan talabnomaning taqdim etilish sanasi bo'yicha ustuvorlik belgilanishi mumkin emas.**



Agar ekspertiza o'tkazish jarayonida bir-biriga aynan o'xshash talabnomalar bir xil ustuvorlik sanasiga egaligi aniqlansa, patent **Patent idorasiga ancha ilgari sana bilan yuborilganligi isbotlangan talabnomalarga, bu sanalar xam bir-biriga mos kelib qoladigan xollarda esa Patent idorasida qaysi talabnama oldin ro'yxatga olingan bo'lsa shu talabnomaga beriladi.**

Talabnama topshirilgandan so'ng ikki oy mobaynida talabnama beruvchi unga tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimchalar kiritish xuquqiga ega. Lekin bu tuzatish va qo'shimchalar talabnama berilgan ixtironing moxiyatini o'zgartirib yubormasligi shart. Masalan, yangi obyektlarni qo'shish, yangi belgilarni kiritish va xokazo.

Bundan tashqari, belgilangan boj to'langan bo'lsa bunday tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar talabnama topshirilgan sanadan so'ng ikki oy o'tgach xam, lekin patent berish to'g'risida qaror qabul qilinmasidan oldin taqdim etilishi mumkin.

Talabnama belgilangan talablar buzilgan xolda rasmiylashtirilganda talabnama beruvchiga so'rovnama yuboriladi va unda so'rovnomani olgan sanadan boshlab uch oylik muddatda tuzatilgan yoki yetishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif etiladi.

Agar talabnama beruvchi ko'rsatilgan muddat ichida talab etilgan materiallarni taqdim etmasa yoki belgilangan bojni to'lagan xolda muddatni uzaytirish to'g'risida iltimosnama bilan murojaat etmasa, bunday talabnama qaytarib olingan xisoblanadi.

Talabnama beruvchi ixtiro Davlat reyestrida ro'yxatga olingunga qadar (ekspertiza natijalari ijobjiy bo'lsa) o'zining patent olish uchun bergen talabnomasini ekspertizaning istalgan bosqichida qaytarib olishi mumkin.

Talabnomani qaytarib olish talabnama xujjalarni qaytarib berishni bildirmaydi. **Patent idorasini tomonidan ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnomalar qaytarilmaydi.**

Lekin shuni qayd etib o'tamizki, patent olish uchun berilgan talabnomadagi xar qanday ma'lumot Patent idorasida sir saqlanadi va uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi. Talabnomadagi axborotlarni patent to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy e'lon qilinishidan ilgari oshkor etish man etiladi va qonunchilikka muvofiq javobgarlikka olib keladi.

## 5. Ixtironing analoglari va prototipini aniqlash. Ixtiro formulasini va tavsifini tuzish

O'ar qanday talabnomani tuzish uslubini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Texnika darajasini o'rganish va ixtiroga o'xhash ixtirolarni izlab topish. O'xhash ixtirolar muxim belgilarining o'xshashligi yoki funksional maqsadlari mavjudligi bo'yicha tanlanishi zarur;
2. O'xhash ixtirolar va ixtironing muxim belgilarini qiyosiy taxlil qilish. Bu bosqichda o'xhash ixtirolardan prototip – ixtiro belgilari bilan o'xhash muxim belgilari ko'p bo'lgan o'xhash ixtiro tanlanadi. Prototipni tanlash juda muxim. Prototipni noto'g'ri tanlash ixtiro obyekti, uning xajmi noto'g'ri aniqlanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek patent ekspertizasi o'tkazish, xususan ixtironing yangilagini baxolashda salbiy axamiyat kasb etishi mumkin;
3. Ixtiro belgilarini prototip belgilari bilan qiyoslab, ixtiro va prototipning umumiy belgilari xamda farqlanuvchi belgilari aniqlanadi;
4. Ixtironing farq qiluvchi muxim belgilari orasidan ixtironi bajarish yoki undan foydalanishning xususiy xollarini tavsiflovchi xususiy belgilari ajratib olinadi;
5. Ixtiro formularini tuziladi. Bunda formulaning mustaqil bandiga ixtironing xususiy belgilari kiritilmaydi. Odatta, bunday belgilar formulaning mustaqil bo'lmagan bandlariga kiritiladi. Yana shuni qayd etamizki, formulaning mustaqil bo'lmagan bandidagi belgilarni imkon qadar umumlashgan shaklda berish zarur, chunki bu ixtiro xajmini (albatta, agar patent olinadigan bo'lsa) oshirib yuboradi. Lekin, ixtironing patentga layoqatlilik mezonlariga, demak, patent idorasini talablariga muvofiq bo'lishi uchun buning aksi talab etiladi, shuning uchun umumlashtirish va aniqlashtirish o'rtaqidagi muvozanatni topish patentshunosning san'atiga bog'liq. Amaliyotda umumlashtirishning oqilona chegarasi sifatida ilgari ma'lum bo'lgan yoki talab etilayotgan texnik natijaga erishishga olib kelmaydigan va formulaning mustaqil bo'lmagan bandida ochib berilgan aloxida xolning texnik muayyanlikni yo'qotishi va ixtironing umumiy xolga tushib qolishi mumkinligini ko'rsatish mumkin. Talabnama beruvchi xususiy yechim ma'lumligida umumiy yechim patentga layoqatli emas deb topilishi, umumiy yechimning ma'lumligi esa yangi xususiy yechimga patent olishni istisno etmasligini bilishi lozim;
6. Ixtiro tavsifi va boshqa talabnama xujjalarni tuzish yakuniy bosqich xisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarning amalga oshirilishini biz cho'tka plankasini qillardan tozalash qurilmasi ixtirosining formulasini tuzish bo'yicha o'quv misolida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, paxta terish mashinalarini ta'mirlashda, masalan, cho'tka plankasini qayta tiklashda dastlab plankani yedirilib ketgan cho'tka qilidan tozalash zarur. Texnika darajasini tadqiq qilish plankani qildan tozalash uchun, masalan, terini jundan tozalaydigan ilgari ma'lum bo'lgan va terini uzatish mexanizmi xamda biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan silindrik ish elementlari juftidan iborat qurilmadan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu ma'lum usulning kamchiligi ayrim jun tutamlarini tozalashda samaradorlikning pastligidadir.


Birinchi qurilmadan farqli boshqa bir qurilma bo'lib, uning ishchi elementlari yuzasida nakatka ishlangan. Bunday nakatka ayrim qil yoki qillar tutamini yulib olishda qisish kuchini oshiradi.

Lekin qisqa qillarni yo'qotishda ishchi elementlar qil asosiga yetarlicha yaqinlasha olmasligi sababli bu ixtironing xam samaradorligi past.

Ixtironing vazifasi qilni tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

Buning uchun xar bir ishchi element uchi cho'tka plankasi tomonga qaratilgan konussimon rolik shaklida ishlandi.

**Qurilma va uning ishini bayon etamiz.** Cho'tka plankasini qildan tozalash qurilmasi (rasmga qarang) biri ikkinchiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan ishchi elementlar 1 va 2, cho'tka plankasi 3 ni uzatish mexanizmidan iborat. Ishchi element 1 istalgan mexanizm 4 dan aylanish imkoniyati bilan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishchi element 2 esa erkin o'rnatilgan.



Qillar tutamini yoki aloxida qillarni qisish kuchini oshirish uchun ish elementlari 1 va 2 yuzasida nakatka mavjud. O'ar bir ish elementi 1 va 2 uchi cho'tka plankasi 3 ni uzatish mexanizmi tomonga qaratilgan konussimon roliklar shaklida ishlangan.

Qurilma quyidagicha ishlaydi.

Mexanizm 4 dan aylantiriladigan konussimon rolik 1 rolik 2 bilan tishlashish xisobiga uni aylantiradi. Aylanayotgan roliklar 1 va 2 ga cho'tka plankasi 3 uzatiladi. Planka qillari chiziqiy zichligiga bog'liq xolda roliklarning yoki kattaroq diametri, yoki kichikroQi bilan qisib olinadi. Uzunligi bo'yicha juda yedirilgan aloxida qillar yoki qil tutamlari diametri kichik roliklarning uchi bilan qisib olinadi, bu uning qil asosiga yaqin borishi va uni yo'qotishiga imkon beradi.

Keyin ixtiro va unga o'xhash ixtironing belgilarini qiyosiy taxlil qilish uchun quyidagi jadval tuziladi.

Muxim belgilar			Umumiy belgilar	Farqlovchi belgilar
1 analog (o'xhash)	2 analog (prototip)	Ixtiro		
1. Biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan ishchi elementlari jufti	2.Biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan ishchi elementlari jufti	1. Biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan ishchi elementlari jufti	1. Biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan ishchi elementlari jufti	1. –

2.Terini uzatish mexanizmi	2.Terini uzatish mexanizmi	2. CHo'tka plankasini uzatish mexanizmi	2. Ishlov berilayotgan buyumni uzatish mexanizmi	2.–
3. Ishchi elementlar silindrik ishlangan	3. Ishchi elementlari silindrik ishlangan	3. O'ar bir ishchi elementi cho'tka plankasini uzatish tomoniga qaratib konussimon rolik shaklida ishlangan	3. –	3. O'ar bir ishchi element cho'tka plankasini uzatish tomoniga qaratib konussimon rolik shaklida ishlangan
	4. Ishchi elementlari yuzasida nakatkasi bor	4. Ishchi elementlar yuzasida nakatkasi bor	4. Ishchi elementlar yuza sida nakatkasi bor	4. –
		5.Ish elementlardan biri elektr dvigateldan aylanish imkoniyati bilan, ikkinchisi esa erkin o'rnatilgan	5.–	5. Ishchi elementdan biri elektr dvigateldan aylanish imkoniyati bilan, ikkinchisi erkin o'rnatilgan

Dastlab biz jadvalning “Muxim belgilar” bo'limini to'ldiramiz. Jadvaldan yaqqol ko'rinib turibdiki, ikkinchi o'xhash ixtironing talabnoma berilgan ixtiro bilan o'xhash belgilari ko'proq. Shuning uchun biz uni prototip sifatida olamiz. So'ngra prototip belgilarni ixtiro belgilari bilan qiyosiy taxlil qilamiz va shunga muvofiq jadvalning “Umumiyl belgilar” va “Farqlovchi belgilar” ustunlarini to'ldiramiz.

Qayd etib o'tamizki, belgilar aynan bir xil bo'lmasligi, lekin texnik moxiyati jixatidan o'xhash bo'lishi mumkin. Masalan, “Terini uzatish mexanizmining mavjudligi” prototipining belgisi “CHo'tka plankasini uzatish mexanizmi mavjudligi” ixtirosining belgisi bilan ekvivalent. Demak, prototip va ixtironi umumlashtiruvchi belgi “Ishlov berilayotgan buyumni uzatish mexanizmining mavjudligi”dir.

Oxirgi keltirilgan belgiga e'tiborni qaratamiz. Bu belgining ixtironi amalga oshirish uchun muxim belgi emasligi aniq. Masalan, xar ikki ish elementi elektr dvigateldan aylantiriladigan variant xam bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu xususiy belgini formulaning mustaqil qismiga kiritish maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari, elektr dvigatejni ichki yonuv dvigateliga, vankel, stirling dvigateliga almashtirish mumkin. Shuning uchun ushbu “elektr dvigateldan aylantiriladi” belgisini “xar qanday mexanizmdan aylantiriladi” belgisigacha umumlashtirish mumkin.

Biz barcha belgilarning taxlilini tugatganimizdan keyin jadvaldan umumiylar formulaning cheklovchi qismiga, farqlanuvchi belgilarni esa formulaning farqlovchi qismiga joylashtirib ixtiro formulasini tuzishimiz mumkin.

1. CHo'tka plankalarini, masalan qildan tozalash qurilmasi biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan va yuzasida nakatkasi bor ikki juft ish elementlari va ishlov beriladigan buyumni uzatish mexanizmidan iborat bo'lib, **shu bilan farqlanadiki**, xar bir elementning uchi buyum uzatiladigan tomonga qaratilgan konussimon rolik shaklida ishlangan.

2. Qurilma 1-band bo'yicha, **shu bilan farqlanadiki**, xar bir ish elementi qandaydir mexanizmdan aylantirish imkoniyati bilan, ikkinchisi esa erkin o'rnatilgan.

Ixtironing yakuniy (talabnomalar beruvchi uchun ma'qul) formulasi aniqlab olingandan keyin ixtironing tavsifi tuziladi. Ixtiro tavsifini tayyorlash ilgari tayyorlangan materiallar (ixtirolarning o'xshashlari, ixtironing vazifasi, qurilma konstruksiyasining statik xolatdagi tavsifi, uning ishi va boshqalar)ni Patent idorasining rasmiy talablariga muvofiq ravishda (oldingi bo'limlarga qarang) sistemalashtirishdan iborat bo'ladi.

Buning natijasida ixtiromizning tavsifi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi. Ko'rsatmaligi uchun chap tomonda tavsifning xar bir bo'limining nomi va qisqacha vazifasini keltirdik.

Tavsif bo'limlari	
Ixtironing nomi	CHo'tka plankasini qillardan tozalash qurilmasi
Ixtiro oid texnika soxasi, ayniqsa uning qo'llanish soxasi	Ixtiro qishloq xo'jaligi mashinasozligiga oid bo'lib, masalan, paxta teradigan mashinalarni ta'mirlashda qo'llaniladi.
<b>Texnika darajasi.</b> Ixtiro analoglarining tavsiflari. 1 Analog Analogning kamchiliklari. 2 Analog (prototip) Prototipning kamchiliklari.	Ma'lumki, paxta terish mashinalarini ta'mirlashda, masalan, cho'tka plankasini qayta tiklashda dastlab plankaning yedirilib ketgan cho'tka qilidan tozalash zarur.  Ma'lumki, plankani qildan tozalash uchun, masalan, terini jundan tozalashda biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan silindrik ish elementlari jufti va terini uzatish mexanizmadan iborat qurilma qo'llaniladi.  Ilgari ma'lum bo'lgan qurilmaning kamchiligi ayrim jun tutamalarini tozalashda samaradorlikning pastligidadir.  Talabnomalar berilayotgan ixtiroga o'zining texnik moxiyati bo'yicha ayniqsa yaqin bo'lgan boshqa qurilma terini uzatish mexanizmi xamda biri ikkinchisiga qarab aylanish imkoniyati bilan o'rnatilgan silindrik ish elementlari juftidan iborat bo'lib, uning ishchi elementlari yuzasida nakatka ishlangan. Bunday nakatka ayrim qil yoki qillar tutamini yulib olishda qisish kuchini oshiradi.  Ma'lum qurilmaning kamchiligi qisqa qillarni yo'qotishda uning ishchi elementlari qil asosiga yetarlicha yaqinlasha olmasligi sababli samaradorligining pastligidadir.
<b>Ixtironing moxiyati.</b> Ixtironing vazifasi.	Yuqoridagiga asoslanib ixtironing vazifasi qilni tozalash samaradorligini oshirishdan iborat.

<p>Ixtironing muxim belgilari majmui.</p> <p>O‘ususiy muxim belgilar</p> <p>Texnik natija</p>	<p>Ixtiro vazifasining yechimi shundan iboratki, cho‘tka plankasini qildan tozalash qurilmasida ishlanayotgan buyumni qarab aylanish imkoniyati bilan o‘rnatilgan ishchi elementralring yuzasida nakatka ishlangan bo‘lib, bunda <u>ixtiroga muvofiq</u>, xar bir ishchi element uchi buyum uzatiladigan tomonda qaratilgan konussimon rolik shaklida ishlangan.</p> <p>Bundan tashqari, ishchi ishchi elementlardan biri qandaydir mexanizmdan aylantirish imkoniyati bilan, ikkinchisi esa erkin o‘rnatilgan.</p> <p>Talabnomalar bilan ixtironing konussimon rolik shaklida ishlangan xar bir ishchi element uzatish tomonga qaratilgan bo‘lgani uchun kalta qillardan tozalashga imkon beradi.</p>
<p><b>Chizmalar figuralari ro‘yxati</b></p>	<p>Ixtiro chizma bilan tushuntirilib, unda talabnomalar bilan ixtironing yon tomonidan ko‘rinishi sxematik ravishda aks ettirilgan.</p>
<p><b>Ixtironi amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovchi ma’lumotlar</b></p> <p>Qurilmaning muvozanat xolatidagi tavsifi</p> <p>Qurilmaning ishi tavsifi</p>	<p>CHO‘TKA plankasini qildan tozalash qurilmasi (rasmga qarang) biri ikkinchiga qarab aylanish imkoniyati bilan o‘rnatilgan juft ishchi elementlar 1 va 2, cho‘tka plankasi 3 ni uzatish mexanizmidan iborat. Ishchi element 1 istalgan mexanizm 4 dan aylanish imkoniyati bilan ishlangan bo‘lib, ishchi element 2 esa erkin o‘rnatilgan. Jollar tutamini yoki aloxida qillarni qisish kuchini oshirish uchun ish elementlari 1 va 2 yuzasida nakatka mavjud. O‘ar bir ish elementi 1 va 2 uchi cho‘tka plankasi 3 ni uzatish mexanizmi tomonga qaratilgan konussimon roliklar shaklida ishlangan.</p> <p>Qurilma quyidagicha ishlaydi.</p> <p>Mexanizm 4 dan aylantiriladigan konussimon rolik 1 rolik 2 bilan tishlashish xisobiga uni aylantiradi. Aylanayotgan roliklar 1 va 2 ga cho‘tka plankasi 3 uzatiladi. Planka qillari chiziqiy zichligiga bog‘liq xolda roliklarning yoki kattaroq diametri, yoki kichikroQi bilan qisib olinadi. Uzunligi bo‘yicha juda yedirilgan aloxida qillar yoki qil tutamlari diametri kichik roliklarning uchi bilan qisib olinadi, bu uning qil asosiga yaqin borishi va uni yo‘qotishiga imkon beradi.</p> <p>Talabnomalar bilan ixtironing amalga oshirilishi paxta teradigan mashinalarni ta’mirlashda cho‘tka plankalarini tiklash samaradorligini oshiradi.</p>



Shuni qayd etib o‘tamizki, boshqa obyektlar – usul, modda, mikroorganizmlar shtammi kabilarga ixtiro tavsifi va formulasini tuzish bo‘yicha amaliy qadamlar qurilmalar bo‘yicha keltirilgan misoldan farq qilmaydi.

## 6-Ma’ruza. Sanoat namunalarini

Reja:

1. Canoat namunalarini deb tan olinadigan obyektlar;
2. Canoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari;
3. Sanoat namunalarini tasviflovchi belgilar;
4. Sanoat namunasiga patent olish uchun talabnomalar tarkibi va patentlash tartibi

### 1. Sanoat namunalarini deb tan olinadigan obyektlar

Sanoat namunasi inson ijodiy faoliyati yo‘nalishining amalga oshishi bo‘lib, aniq maqsad va iste’molchilar doirasiga ega.



Ta’rifiga ko‘ra **sanoat namunalariga qandaydir bir obyekt tashqi ko‘rinishining badiiy-konstrukturlik (dizayn) yechimi kiradi.**

Sanoat namunalarini **xajmiy** (modellar), **yassi** (rasmlar) yoki ularning aralash ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Odatda, xajmiy sanoat namunalarini asosida xajmiy-fazoviy shakl, masalan avtomobil, tokarlik dastgoxi, televizor va boshqalarning tashqi ko‘rinishini belgilaydigan badiiy-konstrukturlik yechimi yotadigan kompozitsiyadan iborat bo‘ladi.

Yassi sanoat namunalarini elementlarining chiziqiy-grafik nisbati bilan tavsiflanadi va deyarli xajmga ega bo‘lmaydi, masalan, gilam, ro‘mol, yorliqcha va xokazolarning tashqi ko‘rinishini belgilaydigan badiiy-konstrukturlik yechimlari.

Amalga oshirishning ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladigan turli shakllariga ega bo‘lgan ixtirolardan farqli ravishda sanoat namunasi o‘zining asosiy elementlari va xususiyatlari, ularning kompozitsiyasi mazmuniga o‘xhash ko‘plab buyumlarni yaratish imkonini beradi.

Sanoat namunasi tashqi tomonidan tovar belgisi, ayniqsa xajmiy tovar belgisiga o‘xshab ketishini ta’kidlash mumkin (8 leksiyaga qarang). Lekin amal qilishi ko‘z bilan ko‘rilganda belgi tasviridan farq qilishi mumkin bo‘lgan tovarlarga tarqaladigan tovar belgisidan farqli ravishda sanoat namunasi ko‘z bilan ko‘rilganda u bilan o‘xhash va uning muxim belgilariga ega bo‘lgan buyumlarnigina muxofaza qilishni nazarda tutadi.

Sanoat namunalarini, shuningdek badiiy asarlar bilan xam adashtirmaslik kerak. Odatda, badiiy asarlar yagona yaratiladi va estetik yo‘nalishga ega bo‘ladi. Ulardan farqli ravishda sanoat namunasining estetik xususiyatlari buyum funksional elementlarining badiiy mujassami natijasi, uning maqsadining o‘ziga xos estetik ifodasıdir.

### 2. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining **yangiligi, o‘ziga xosligi** va **sanoatda qo‘llanilishi** uning patentga layoqatlilik shartlari xisoblanadi.



Agar sanoat namunasining buyumning estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilovchi muxim belgilari (alomatlari) majmui uning ustuvorlik sanasidan oldin jaxondagi nufuzli axborot manbalari orqali barchaga ma'lum bo'lmagan bo'lsa **yangi** deb tan olinadi.

---



Sanoat namunasining muxim belgilari majmui buyum estetik xususiyatlarining ijodiy xarakteri bilan bog'liq bo'lsa u **o'ziga xos** deb tan olinadi.

---



Sanoat namunasi ko'p karra qayta ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan bo'lsa **sanoatda qo'llaniladigan** deb tan olinadi.

---

Qonun bilan, shuningdek, sanoat namunasi deb tan olinmaydigan obyektlar ro'yxati belgilangan, xususan:

- nashriyot–bosma maxsulotlar;
- me'morchilik obyektlari (kichik me'morchilik shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika va boshqa ko'chmas inshootlar;
- suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki ularga o'xshash moddalardan iborat barqaror bo'lmagan obyektlar;
- buyumlarning faqat texnik vazifalaridan kelib chiqadigan yechimlar;
- shuningdek jamiyat manfaatlari, insonparvarlik va axloq tamoyillariga zid yechimlar.

### 3. Sanoat namunalarini tasviflovchi belgilar

Sanoat namunasining moxiyati va uni xuquqiy muxofazalash xajmi eng avvalo, uning muxim belgilari majmui bilan ifodalanadi, bu belgilari namuna fotosuratlarida aks ettiriladi va buyumning tashqi ko'rinishi va o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Muxim belgilarni so'zlar bilan tavsiflash tasviriy axborotni tushuntirib berishni ta'minlaydi. Odatda, sanoat namunalarining turlarini tavsiflash uchun quyidagi belgilardan foydalaniladi:

1. Murakkab kompozitsiyali, asosi keng xajmiy–fazoviy tuzilishga ega bo'lgan buyumlar (masalan, dastgox, qishloq xo'jalik mashinasи, mototsikl va xokazo) quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- kompozitsiya elementlarining mavjudligi;
- elementlarning o'zaro joylashishi;
- kompozitsiya elementlarining shakli.

2. Yakka blokli kompozitsiyaga ega buyumlar (masalan, televizor, radiopriyemnik, shchit priborlari, qutichalar), shuningdek elementlar geometrik xajmlar nisbatida asosida qurilgan (masalan, mebel seksiyasi bloklari) badiiy–konstrukturlik yechimlari quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- kompozitsiya elementlarining tarkibi va taqsimlanishi;
- buyumlarning, odatda, frontal yuzasida bo'ladigan bu elementlarning plastik, grafik, rangli va faktura yechimlari.

3. Yassi kompozitsiyaga ega bo'lgan buyumlar (masalan, matolar, ro'mollar, peshonabandlar) quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- naqsh elementlarining chiziqiy-grafik nisbati;
- kollaristik yechimi;
- faktura xarakteri (mato iplarining to‘qilishi).

4. Kiyimlarni tavsiflash uchun quyidagi belgilardan foydalanish mumkin:

- modelning xajmiy tavsifi bo‘lgan shakli;
- qismlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbatni belgilovchi proporsiyalar;
- modelning tekislikdagi tavsifi bo‘lgan silueti;
- biror-bir elementlarning takrorlanishini belgilovchi ritm;
- kiyim yuzasining istalgan joyiga qoplanadigan detallar, ya’ni elementlar, ularning shakli;
- bezak, ya’ni buyumni qo‘llanish nuqtai nazaridan funksional axamiyatga ega bo‘lmagan, model yechimida bezak rolini bajaruvchi, undan foydalanish faqat texnologik usuldan (masalan, kiyim chetlariga ishlov berish, birkirish choklarini mustaxkamlash va xokazo) iborat bo‘lgan elementlar;
- buyum tarkibiga kiruvchi va uning ayrim qismlarini birlashtirish yoki ajratish uchun, shuningdek bezak elementi sifatida qo‘llanuvchi furnitura (tugmacha, ilgak va xokazo);
- material.

5. Poyafzallarni tavsiflash uchun quyidagi belgilardan foydalaniladi:

- shakl xosil qiluvchi elementlar, qolip, ya’ni poyafzalning usti va tagi (boshliq, boldir, qo‘nji, dastak, tagcharm va xokazo);
- bu elementlarning shakli;
- ularning o‘zaro joylashishi;
- materiali;
- bezak detallari;
- furnituras;
- rangi.

6. Buyumlar to‘plamlarining badiiy-konstrukturlik yechimlarini tavsiflashda, tegishli buyumlarni (to‘plam tarkibiga kiradigan) tavsiflash uchun foydalaniladigan belgilardan tashqari, quyidagilarni aks ettiruvchi belgilardan foydalaniladi:

- to‘plamning turli qismlari o‘zaro aloqasining xarakteri;
- elementlarning o‘zaro bir–biriga aloqadorligi;
- dastlabki elementlarning o‘zi va bu elementlardan foydalanib yaratilgan buyumlar, shuningdek umuman to‘plamning mutanosib tuzilishi.

7. Tashqi ko‘rinishi ikki xolatda: yopiq (taxlangan) va ochiq (masalan, shkaflar, sovitkichlar, yopiq korpus ichidagi priborlar, telefon budkalari va xokazo) buyumlarni tavsiflashda buyumning xam tashqi, xam ichki xajmini ifodalovchi elementlar bunday belgilar bo‘lishi mumkin.

8. Buyumlarni tavsiflashda belgi, shuningdek, ushbu buyum yoki elementining tashqi ko‘rinishi boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan ma’lum buyumning tashqi ko‘rinishiga o‘xshashligini ko‘rsatish yo‘li bilan ifodalanishi mumkin.

**Xulosada shuni qayd etamizki, buyumning o‘ziga xos, estetik jixatdan ko‘rkam va ergonomik tashqi ko‘rinishi iste’molchilarining tovarga extiyojini belgilovchi bosh omillardan biridir. Shuning uchun sanoat namunasini to‘g‘ri va savodli xuquqiy muxofazalash bozordagi muvaffaqiyatning garovi, raqobat kurashida esa ustunlikning omiliidir.**

#### 4. Sanoat namunasiga patent olish uchun talabnomma tarkibi va patentlash tartibi

Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasining patenti berish uchun talabnomma quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Patent to‘g‘risida belgilangan shaklda tuzilgan **ariza**, u sanoat namunasi muallifi (mualliflari), patent kim (kimlar)ning nomiga berilishi so‘ralayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxs (shaxslar) va talabnomma beruvchi to‘g‘risidagi talab etiladigan ma’lumotlardan iborat bo‘ladi.

- Buyum, maket yoki rasmni aks ettiruvchi **fotosuratlar to‘plami**, ular buyumning xuquqiy muxofaza xajmini belgilab beruvchi muxim belgilar majmuini aniqlash imkonini beradigan tashqi ko‘rinishi to‘g‘risida mufassal tasavvur xosil qiladi.
  - Buyum tashqi ko‘rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfektion kartasi, agar ular sanoat namunasi moxiyatini oolib berish uchun zarur bo‘lsa.
  - Sanoat namunasining tavsifi**, u fotosuratlarda aks ettirilgan buyumning tashqi ko‘rinishini so‘zlar vositasida oolib berishi va uning muxim belgilar majmuini o‘z ichiga olishi kerak. Talabnomaga belgilangan miqdorda boj to‘langanligini tasdiqlovchi xujjat ilova qilinishi zarur. Agar talabnoma bo‘yicha konvensiya ustuvorligi so‘ralayotgan bo‘lsa, talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan boshlab uch oy mobaynida talabnoma beruvchi Parij konvensiyasi ishtirokchidavlatlariga taqdim etgan birinchi talabnomaning nusxasi taqdim etilishi shart.
- 



Qonun talablariga muvofiq xar bir talabnoma bitta sanoat namunasiga tegishli bo‘lishi va bu namunaning variantlarini o‘z ichiga olishi mumkin (**sanoat namunasining birligi talablari**). Bunda bitta sanoat namunasi deyilganda, yagona bir buyumning badiiy-konstrukturlik yechimi, vazifalari umumiyl bo‘lgan buyumlar majmui (masalan, mebel garnituri, serviz va boshqalar) tushuniladi.

**Yagona bir buyum** deyilganda birorta butun buyum (masalan, avtomobil), xam uning bir qismini tashkil etuvchi buyum (masalan, bamper, fara va boshqalar) tushuniladi.

**Sanoat namunasi variantlari** deyilganda bitta buyum (to‘plam, komplekt) ning bir xil estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilab beradigan muxim belgilar majmui bilan farqlanadigan badiiy-konstrukturlik yechimlari tushuniladi.

Endi talabnoma xujjatlariga qo‘yiladigan asosiy talablarni ko‘rib chiqamiz.

### 1. Buyum, maket, rasm fotosuratlari to‘plami.

Buyumning tashqi ko‘rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar talabnoma berilgan sanoat namunasi to‘g‘risidagi tasviriy axborotni o‘z ichiga olgan asosiy xujjatdir.

Fotosuratlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- talabnomada, odatda, buyum umumiyl ko‘rinishining old, yon, o‘ng, ort, zaruriyat tuQilganda esa yuqori va pastdan 3/4 rakursda olingan oq–qora tasvirdagi rangli fotosuratlar bo‘lishi kerak. Yassi sanoat namunasi uchun uning tekislikdagi ko‘rinishi taqdim etiladi. To‘qimachilik buyumlarining yassi sanoat namunasi fotosuratlarda takrorlanadigan rapportlar bilan aks ettirilishi kerak.

Buyumlar to‘plami esa umumiyl ko‘rinish fotosuratlarida to‘liq, ya’ni to‘plam tarkibiga kiradigan barcha buyumlar bilan berilishi kerak. Bundan tashqari, qo‘srimcha ravishda to‘plam tarkibiga kiradigan xar bir buyumning aloxida fotosurati topshiriladi. Aloxdida xollarda, buyumlar majmui (to‘plami)ni to‘liq tarkibda umumiyl ko‘rinish shaklida bitta fotosuratda berish imkoniyati bo‘lmaganda to‘plamning ayrim qismlarini aloxida fotosuratlarda berishga yo‘l qo‘yiladi.



Sanoat namunasining xar bir varianti uchun aloxida fotosuratlar to‘plami taqdim etilishi zarurligini qayd etamiz.

Yopiladigan, taxlanadigan, shakli o‘zgaradigan buyumlarning ochiq (masalan, sovitkichlar) yoki yiQma (masalan, oshxona kombaynlari, chang yutkichlar) xoldagi fotosuratlari taqdim etiladi.

Rangli fotografi k (badiiy–koloristik) yechim namunaning muxim belgilardan biri bo‘lgan xollarda buyum umumiyo ko‘rinishining bitta rangli fotosurati, slayd yoki rangli yechim sxemasi ilova qilinishi zarur.

Buyumlar bir tekis yoritilgan sharoitda, odatda, neytral fonda begona predmetlarsiz suratga olingan bo‘lishi kerak. Bunda:

- fotosuratlar 18x24 sm o‘lchamda taqdim etiladi. Gabaritlari kichik buyumlar yoki ularning maketlari, masalan, qo‘l soatlari, mikrokalkulyatorlar, cho‘ntak zaijigalkalari uchun o‘lchamlari 13x18 yoki 9x12 sm li fotosuratlar taqdim etilishi mumkin. Kichik o‘lchamdagি fotosuratlar qoQozga yopishtirilgan xolda taqdim etiladi.
- fotosuratlar quyidagi tartibda nomerlanadi: umumiyo ko‘rinishi, boshqa ko‘rinishlari, rangli fotosurat, yaqin analogining fotosurati (agar talabnomma beruvchi taqdim etgan bo‘lsa). Fotosuratlarning bir ko‘rinishi bitta nomer bilan belgilanadi.
- fotosuratlarning orqa tomonida yuqorida pastga qarab fotosurat nomeri, sanoat namunasi nomi, shuningdek tushuntirishlar: “umumiyo ko‘rinishi”, oldan ko‘rinishi”, “yondan ko‘rinishi”, yuqorida ko‘rinishi” va xokazo ketma-ket ko‘rsatiladi.

## 2. Sanoat namunasining tavsifi.

Sanoat namunasining tavsifi quyidagicha tuzilishi kerak:

### 1. Sanoat namunasining nomi.

Tavsif sanoat namunasining nomi va talabnomma berilgan sanoat namunasi oid bo‘lgan SNXTning amaldagi taxriri ruknsini ko‘rsatishdan boshlanadi. Nom sanoat namunasining maqsadi va vazifasini tavsiflab berishi va birlikda (birlikda qo‘llanilmaydigan nomlar bundan istisno) bayon etilishi zarur. Yangi maqsadlarda qo‘llaniladigan yoki unchalik ma’lum bo‘lmagan namunaning nomi uning qo‘llanish soxasini xam o‘z ichiga olishi zarur. Agar sanoat namunasi ijro variantlariga ega bo‘lsa, uning nomidan keyin qavs ichida variantlar soni ko‘rsatiladi. Masalan: “Kreslo (3 variant)”. Ixtiro nomlaridagi kabi sanoat namunasi nomi xam maxsus nom yoki atoqli ot, masalan namuna muallifining nomini o‘z ichiga olishi mumkin.

### 2. Vazifasi va qo‘llanish soxasi.

Bu bo‘limda sanoat namunasining maqsadi va vazifasi xamda qo‘llanish soxasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltiriladi. Undan ko‘proq qaysi soxalarda foydalanish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatiladi.

Sanoat namunasining analoglari.

Bu bo‘limda sanoat namunasining analoglari – talabnomma berilgan sanoat namunasi kabi maqsadlarga mo‘ljallangan buyumning tashqi ko‘rinishiga taalluqli ma’lum badiiy–konstrukturlik yechimlari, u bilan o‘xhash muxim belgilari keltiriladi.

Analoglardan eng yaqin analog, ya’ni muxim belgilarining jami bo‘yicha talabnomma berilgan sanoat namunasiga eng o‘xhash analoganiqlanadi

Sanoat namunasini tasvirlovchi fotosuratlar va boshqa taqdim etiladigan materiallar ro‘yxati.

Bu bo‘limda fotosuratlar, shuningdek chizmalar, ergonomik sxemalar, konfektion karta, slaydlar (agar ular taqdim etilgan bo‘lsa) ro‘yxatga olingan nomeri bo‘yicha sanab ko‘rsatiladi va ularning xar birida nima tasvirlanganligi qisqacha bayon etiladi.

### 3. Sanoat namunasining moxiyati.

Sanoat namunasi tafsifining bu bo‘limida fotosuratlarda aks ettirilgan sanoat namunasi muxim belgilarining jami fotosuratlar (shuningdek buyum umumiyo ko‘rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfektion kartasi, agar u bo‘lsa)ga tayangan xolda bayon etiladi.



## Agar sanoat namunasining belgisi buyum tashqi ko‘rinishiga, uning estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlariiga ta’sir etadigan bo‘lsa muxim belgi xisoblanadi.

Namunaning muxim belgilarini ochib berishda uni eng yaqin analogidan farqlaydigan belgilari aloxida ko‘rsatiladi.

Ushbu bo‘limda yana sanoat namunasi mujassamlashgan buyumning estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini ko‘rsatish va muxim belgilarning buyum tashqi ko‘rinishi shakllanishiga (agar bu aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa) ta’sirini tushuntirish zarur.

Estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlar, masalan, quyidagilarda aks etishi mumkin:

- barcha belgilarni kompozitsiya elementlarini ketma–ket tasavvur qilishga yordam beradigan tarzda bosh belgi atrofida birlashtirishi tufayli qismlarning o‘zaro bog‘liqligi ta’minlangan (juda uzun obyektlar uchun);
- mexanizmlarni boshqarish zonasiga bemalol qo‘l yetishi ta’minlangan (avtomobilda o‘rnataligan energoagregatlar uchun);
- mashinaning kuchi va quvvatini ifodalovchi obraz yaratilgan (ekskavator uchun);
- mashinaning tashqaridan ko‘rinishi uning noishlab chiqarish, ya’ni maishiy maqsadlarga mo‘ljallanganligi aks ettiradi (boQ-poliz uchun kichik traktor);
- bolaning jismoniy kamchiligini ruxiy kompensatsiyalash maqsadida mashinaning obrazli tavsifida uning maxsus vazifasi yashirilgan (nogiron bolalar uchun velomobil);
- yoshlar uchun velokatning sport xarakterini ochib beruvchi attraksion–o‘yin tipidagi buyum obrazi yaratilgan.

Tavsifning bu bo‘limida buyumning qayd etib o‘tilgan xususiyatlari bilan ifodalangan afzalliklarini ko‘rsatish mumkin.

O‘ajmiy buyumlarni (masalan, priborlar, stakanlar) tavsiflashda ergonomik xususiyatlarini tasdiqlash uchun ushbu buyumning ishi va/yoki undan foydalanalishi, eng muxim kompozitsiya va funksional elementlari, bo‘Qinlari va detallarining o‘zaro aloqasini bayon etish zarur.

Qayd etib o‘tamizki, sanoat namunasining moxiyatini ochib berishda biror–bir belgini uni amalga oshirishning turli shakllarini tavsiflab beruvchi alternativ tushunchalar shaklida ifodalashga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar belgini amalga oshirishning turli shakllari boshqa belgilar bilan birga estetik va/yoki ergonomik xususiyatlari bir xil buyumning tashqi ko‘rinishini belgilab beradigan bo‘lsa, xar birida ushbu belgi uni amalga oshirishning faqat bitta shakli bilan tavsiflanadigan sanoat namunasining variantlari bayon etiladi.

Bir xil analoglarga ega bo‘lgan sanoat namunalari variantlarini tavsiflashda, odatda, faqat variantlardan birining jami muxim belgilari to‘la bayon etiladi, boshqa variantlarning moxiyati esa ularning bu variantdan farqlarini bayon etish yo‘li bilan ochib beriladi.

6. Sanoat namunasini ko‘p marta qayta ishlab chiqarish imkoniyati.

Bu yerda sanoat namunasini ko‘p marta qayta qayta ishlab chiqarish mumkinligini tasdiqlash uchun buyumni ishlab chiqarish texnologiyasi, shuningdek korpus detallari va elementlarini tayyorlash uchun qo‘llaniladigan asosiy materiallar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, manzarali bezaklarning turlari, qo‘llaniladigan texnologik uskuna va boshqa zaruriy ma’lumotlar keltiriladi.

7. Sanoat namunasining muxim belgilari (alomatlari) ro‘yxati.

Ushbu ro‘yxat patent bilan sanoat namunasiga beriladigan xuquqiy muxofaza xajmini aniq belgilash maqsadlarida fotosuratlarda aks ettirilgan muxim belgilar majmuini bir xil tushunish uchun mo‘ljallangan.

Sanoat namunasining muxim belgilari ro‘yxati uning tavsifi tarkibida aloxida varaq (varaqlar)da taqdim etiladi.

Odatda, ro‘yxatga kiritilgan muxim belgilar “Sanoat namunasining moxiyati” bo‘limidagiga nisbatan ancha qisqa ifodalanadi.

Ro‘yxatga kiritilgan muxim belgilar buyumning statik xolatdagi tashqi ko‘rinishini tavsiflaydigan qilib bayon etilishi zarur. Shuningdek, buyumning tashqi ko‘rinishini tavsiflashda uning transformatsiyalanishi, shakl elementlarining o‘z xolatini o‘zgartira olish imkoniyati bilan ishlanganligini ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi.

Muxim belgilar ro‘yxati, odatda, sanoat namunasining eng yaqin analoglari belgilari bilan bir xil belgilari, shu jumladan uning vazifasini bildiruvchi tur tushunchasini o‘z ichiga olgan cheklovchi qism va namunani ushbu analogdan ajratib turadigan belgilarini o‘z ichiga olgan farqlovchi qismdan iborat bo‘ladi. Cheklovchi qism farqlovchi qismdan “mavjudligi (bajarilganligi) bilan farqlanadi” so‘z birikmasi bilan ajratiladi.

*Misol:* “Birinchi bal” pannosi (o‘zR patenti, patent egasi “Sovplastital”, 2000 yil) (rasmga qarang).

#### Tavsiflanadi:

- vertikal yo‘nalishda ishlangan manzarali rama va tasvirning mavjudligi;
  - tasvirning yassi asos markazida joylashtirilgan ayol barelyefi shaklida ishlanganligi;
  - ayol kiyim-boshining chiroyli joylashtirilgan yumshoq burmalar bilan relyefli-plastik ishlanganligi;
- quyidagilar mavjudligi bilan farqlanadi:**

- syujet yechimi bilan: qiz bolaning uzun bal ko‘ylagida va sochi baland turmaklangan xolda bal raqsi xarakatini bajarayotgan kichkinagina figurasi;
- rang-faktura yechimi bilan: barelyef va rama yuzasining marmar effektini beradigan qilib ishlanganligi.

Boshqa misol: “Pechenyе to‘plami” (o‘zR dastlabki patenti, patent egasi “NON-PASTA” ochiq turdagи aksionerlik jamiyati, 2000 yil) (rasmga qarang).



#### Tavsiflanadi:

- maxsulot yuzasi xajmiy shaklida ishlanganligi;
- kungurador tashqi;
- bir tekis sarQimtir-



bo‘rtma qilib bezatilib, yassi ko‘rinishga egaligi; jigarrangligi;

- farqlanadi:**
- masulotning uslublashtirilgan tarzda sudralib yuruvchilar, parrandalar, xayvonlar: baliq, toshbaqa, kaptar, boyqush, sigir, begemot, baliqchalar shaklida ishlanganligi;
  - bo‘rtma bezaklarning chuqur, dumaloq nuqta va uzaytirilgan shtrix shaklida bajarilganligi;
  - nuqta va shtrixlarning obrazni to‘ldiruvchi sifatida joylashganligi”.

Sanoat namunasining analoglari yo‘q bo‘lsa, uning muxim belgilari ro‘yxati cheklovchi va farqlovchi qismlarga bo‘lmay tuziladi.

Agar talabnoma beruvchi sanoat namunasining bir nechta variantiga talabnoma bergen bo‘lsa, ro‘yxat ikki qismdan iborat qilib tuziladi, uning birinchi qismiga barcha variantlar uchun umumiy bo‘lgan (xam analoglar bilan, xam farq qiluvchi belgilari bilan mos bo‘lgan) belgilar, ikkinchi

qismiga esa “1–(2 va x.k) variant quyidagi belgilarning mavjudligi (bajarilishi) bilan tavsiflanadi” so‘zlaridan keyin ushbu muayyan variantga xos belgilar keltiriladi.

Barcha belgilar ro‘yxatda mutaxassis ularni buyum fotosurati (maketi, rasmi)dagi aks etgan elementlar bilan identifikatsiyalash uchun ma’nosini bir xil tushunadigan qilib ifodalanishi kerak. Ro‘yxatdagi belgi tavsifi o‘rniga buyumning fotosurati (maketi, rasmi)ni ilova qilish mumkin emas, belgini bir ma’noda tushunish va identifikatsiyalash uchun tavsiflashda bunday ilovani keltirish zarur bo‘lgan xollar bundan istisno.

### **Chizmalar, sxemalar**

Sanoat namunasi umumiyl ko‘rinishining chizmasi namunaning moxiyatini ochib berish va uning o‘lchamlari, mutanosiblik nisbatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan xollarda taqdim etiladi.

Agar talabnoma berilgan sanoat namunasi ergonomik jixatdan qayta ishlashni ko‘zda tutadigan buyumga oid bo‘lsa, shuningdek ushbu buyumning ergonomik sxemasi xam taqdim etiladi.

Chizma yoki sxemada inson faoliyat ko‘rsatadigan zonalarda asosiy elementlarning joylashishi va buyumni ishlatish osonligi to‘g‘risida tasavvur xosil qilish imkonini beradigan buyum va elementlarining gabarit o‘lchamlari (axborotni aks ettirish vositalari va boshqaruv organlari, ish yuzasining joylashish balandligi, eni, chuqurligi, shaklning yaqin joylashgan elementlari o‘rtasidagi masofa va xokazo) ko‘rsatiladi.

Barcha chizma va sxemalar umumqabul qilingan texnik qoidalarga rioya qilgan xolda bajarilgan va sanoat namunasining tavsifiga qat’iy mos bo‘lishi kerak. Chizmadagi tasvir, odatda, to‘g‘ri burchakli proyeksiyalarda (turli ko‘rinish, kesim va qirqimlarda) taqdim etiladi. Ko‘rgazmali bo‘lishi uchun uni aksonometrik proyeksiyada taqdim etishga yo‘l qo‘yiladi. Qar bir element barcha boshqa elementlarga proporsional qilib ishlanishi zarur.

### **Konfektion karta**

Agar sanoat namunasi yengil sanoat buyumlariga oid bo‘lsa, zaruriyat tuQilgan xollarda talabnomaga konfektion karta, ya’ni buyumni tayyorlash uchun tavsija etiladigan to‘qimachilik, trikotaj materiallari, teri, furnitura, bezaklar va xokazo ilova qilinadi. Manzarali materiallar, gilamlarning namunalari rasm rapportining o‘lchamida taqdim etiladi.

### **Qanday yangi narsa bilib oldik?**

## **7-ma’ruza Tovar belgilari**

### **1. Tovar belgilarining turlari.**

Tovar belgilarini xuquqiy muxofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o‘rnatish mumkin emas. Intellektual mulk obyekti sifatida tovar belgisining o‘ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.



**Tovar belgisi (yoki xizmat ko‘rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarni aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.** YA’ni tovar belgisi bir tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchining tovar va xizmatlarini boshqa tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchining xuddi shunday tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo‘ljallangan.

Tovar belgilarini muxofazalash tufayli xalol raqobat tamoyiliga asoslangan savdoni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish mumkin bo'ldi.

Tovar belgilari orasida **jamoा belgisi** aloxida o'rin egallaydi.

Xo'jalik uyushmasi yoki korxonalarining boshqa biror-bir ixtiyoriy birlashmasining ular ishlab chiqaradigan va sotadigan tovarlarini belgilash uchun mo'ljallangan tovar belgisi **jamoा belgisi** xisoblanadi. Bunda ushbu tovarlar yagona sifat yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq xolda yuzaga keladigan munosabatlar "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning xuquqiy muxofazasi u ro'yxatga olinishi bilan yuzaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olinishi mumkin:

- so'zlar yoki xarflar birikmasidan iborat bo'lgan **so'z bilan ifodalanadigan belgilar**;
- **tasviriy belgilar** – liniyalar kompozitsiyasi, istalgan shakldagi figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;
- **xajmiy belgilar** – uch o'lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozitsiyasi shaklidagi;
- **aralash** – tasviriy, so'zli, xajmiy xarakterdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va xokazo.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, Qonun tovar belgilari sifatida boshqa belgilarni, masalan, **tovushli** (musiqiy), **yoruQlik**, xidlanuvchi belgilarini xam muxofazalashni istisno etmaydi. Bunday belgilar bir qator mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonda muxofaza qilinadi.

**Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro'yxatga olinishi mumkin.**

### 1. Tovar belgilarining turlari.

Tovar belgilarini xuquqiy muxofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o'rnatish mumkin emas. Intellektual mulk obyekti sifatida tovar belgisining o'ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.



**Tovar belgisi (yoki xizmat ko'rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarni aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.** YA'ni tovar belgisi bir tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchining tovar va xizmatlarini boshqa tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchining xuddi shunday tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan.

Tovar belgilarini muxofazalash tufayli xalol raqobat tamoyiliga asoslangan savdoni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish mumkin bo'ldi.

Tovar belgilari orasida **jamoा belgisi** aloxida o'rin egallaydi.

Xo'jalik uyushmasi yoki korxonalarining boshqa biror-bir ixtiyoriy birlashmasining ular ishlab chiqaradigan va sotadigan tovarlarini belgilash uchun mo'ljallangan tovar belgisi **jamoा belgisi** xisoblanadi. Bunda ushbu tovarlar yagona sifat yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq xolda yuzaga keladigan munosabatlar "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari to'g'risida"gi Qonun bilan

tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning xuquqiy muxofazasi u ro'yxatga olinishi bilan yuzaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olinishi mumkin:

- so'zlar yoki xarflar birikmasidan iborat bo'lgan **so'z bilan ifodalanadigan belgilar**;
- **tasviriy belgilar** – liniyalar kompozitsiyasi, istalgan shakldagi figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;
- **xajmiy belgilar** – uch o'lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozitsiyasi shaklidagi;
- **aralash** – tasviriy, so'zli, xajmiy xarakterdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va xokazo.

Shuni qayd etib o'tish kerakki, Qonun tovar belgilari sifatida boshqa belgilarni, masalan, **tovushli** (musiqiy), **yoruQlik**, xidlanuvchi belgilarini xam muxofazalashni istisno etmaydi. Bunday belgilar bir qator mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonda muxofaza qilinadi.

**Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro'yxatga olinishi mumkin.**

### 3. Tovar belgisini ro'yxatga olishga talabnomaga tuzish

Tovar belgisini ro'yxatga olishga talabnomaga faqat bir tovar belgisiga oid va quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ariza beruvchining joylashgan yoki yashash joyi ko'rsatilgan xolda belgini tovar belgisi sifatida ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza;
2. Ro'yxatga olish so'ralayotgan belgi va uning tavsifi;
3. Tovar belgisi qaysi tovar va xizmatlar uchun so'ralayotgan bo'lsa, shu tovar va xizmatlarning MKTU (Xalqaro tovar va xizmatlar klassifikatsiyasi) sinflari bo'yicha guruxlarga ajratilgan ro'yxati. Agar talabnomaga jamoa belgisiga berilayotgan bo'lsa, talabnomaga jamoa belgisining ustavi ilova qilinadi, u o'z ichiga jamoa belgisini o'z nomiga ro'yxatga olishga vakolatli birlashma nomi; bu belgini ro'yxatga olish maqsadi; bu belgidan foydalanish xuquqiga ega bo'ladigan subyektlar nomi; jamoa belgisi bilan belgilanadigan tovarlarning ro'yxati va yagona sifat va umumiy xususiyatlari; belgidan foydalanish shartlari va undan foydalanishni nazorat qilish tartibi; shuningdek ustav qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni olgan bo'lishi zarur.

Talabnomaga shuningdek belgilangan miqdordagi boj to'langanligi to'g'risidagi xujjat ilova qilinadi.

#### 1. Talabnomaga berilgan belgi tasviri.

Talabnomaga berilgan belgi qalin va mustaxkam qoQozga tushirilgan o'lchami 8x8 formatdagi fotografiya yoki bosma ottisk (belgining ko'rinishiga qarab fotografiya yoki ottiskining o'lchami 8–16 sm ni tashkil etishi mumkin) shaklida taqdim etiladi.

Agar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olish uchun etiketka (yorliqcha)ga talabnomaga berilgan bo'lsa, tabiiy o'lchamdagagi etiketkaning o'zini topshirish mumkin.

Agar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olish uchun xajmiy (uch o'lchamdagagi) belgi taqdim etilgan bo'lsa, obyektning 8x8 sm dan 8x16 sm gacha bo'lган formatdagi umumiy ko'rinishi fotografiyasi va barcha zarur proyeksiyalari taqdim etiladi.

Talabnomaga berilgan belgilarning fotografiya va bosma ottisklari tovar belgisini qanday rang yoki ranglar uyQunligida ro'yxatga olish so'ralayotgan bo'lsa, shu ranglarda taqdim etilishi kerak.

Tasvir sifatli grafik ijroda bajarilgan, undan cheklanmagan miqdorda nusxa olib ko'paytirish imkonini berishi kerak.

#### 2. Belgi va uning rangi (ranglar gammasi)ning tavsifi.

Bunday tavsif talabnoma berilgan obyektning moxiyatini tushunish va uni identifikatsiyalash uchun xizmat qiladi.

Tavsifnomada ro‘yxatga olish uchun taqdim etilgan belgining so‘zlar bilan ifodalangan xususiyatlari: uning ko‘rinishi (so‘zlarda va tasviri), tarkibiy qismlari tavsifi, umuman belgi va qismlari (elementlari)ning qanday ma’no bildirishi ko‘rsatiladi. Masalan, tavsiflashda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

- agar so‘zlarda ifodalangan belgi yoki uning qismlari xech qanday ma’no kasb etmasa, uning xosil bo‘lish usuli, masalan, bir necha so‘zlarning boshlanQich bo‘Qinlari, abbreviatura, o‘ylab topilgan so‘z va xokazo ko‘rsatiladi;
- agar o‘zbek yoki rus tilidan boshqa tildagi so‘zlar bilan ifodalangan belgi ro‘yxatga olinishi so‘ralayotgan bo‘lsa, uning o‘zbek alifbosi xarflari bilan berilgan transliteratsiyasi keltiriladi;
- agar belgi yoki uning qismi tasviriy xarakterga ega bo‘lsa, uning tarkibiga kiruvchi barcha elementlarining tavsifi keltiriladi va ma’nolari ko‘rsatiladi;
- agar belgi mavxum xarakterga ega bo‘lsa, uning nimani ifodalashi va bildirishi ko‘rsatiladi;
- agar ranglarda ijro etilgan belgining ro‘yxatga olinishi so‘ralayotgan bo‘lsa, uning rangi yoki uyQunlashgan ranglari ko‘rsatiladi. Qayd etib o‘tamizki, ranglarning tavsifi belgini tasvirlashda foydalanilgan ranglarga mos bo‘lishi kerak;
- agar tovar belgisi sifatida ro‘yxatga olish uchun ovozli belgi taqdim etiladigan bo‘lsa, u MPEG formatidagi raqamlangan ko‘rinishida beriladi, shuningdek ovozning turi (musiqiy asar yoki uning qismi, qandaydir shovqinlar va xokazo) ko‘rsatiladi. Musiqiy asarlardan foydalanilgan belgilar uchun uning tavsifida belgining nota yozuvi xam keltiriladi..
- 

### 3. Tovar va xizmatlar ro‘yxati.

Tovar va xizmatlar ro‘yxati qaysi tovarlar uchun tovar belgisini ro‘yxatga olish so‘ralayotganini aniqlash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Ro‘yxatda ko‘rsatilgan tovar va xizmatlar MKTU (Xalqaro tovar va xizmatlar klassifikatsiyasi) sinflari bo‘yicha guruxlarga ajratilgan va tovar xamda xizmatlarni identifikatsiyalash imkonini beradigan aniq atamalar bilan (imkon qadar MKTU atamalaridan foydalanish kerak) belgilangan bo‘lishi kerak.

Endi talabnoma beruvchi o‘z tovar belgisini ishlab chiqishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilishi zarurligini ko‘rib chiqamiz. Odatda tovar belgisi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur:

- ifodalilik va ma’nodorlik (o‘ziga xoslik), ya’ni tovar belgisi uni boshqalardan ajratib turuvchi belgiga ega bo‘lishi, oson o‘qilishi (so‘z bilan ifodalangan tovar belgilari uchun) va yodda qolishi kerak;
- qisqa va aniqlik, ya’ni tovar belgisi qisqa bo‘lishi (so‘zli belgilar uchun) va tasvir elementlari soni xaddan tashqari ko‘payib ketmasligi (tasviriy belgilar uchun) kerak;
- estetiklik, ya’ni tovar belgisi idrok etilishi bo‘yicha zamonaviy va tushunarli xamda ko‘rgazmali bo‘lishi kerak;
- barqarorlik (uzoq muddatlilik), ya’ni tovar belgisi uzoq muddat, xatto maxsulot assortimenti o‘zgargan xollarda xam, foydalanish uchun yaroqli bo‘lishi kerak;
- tasavvur uyQotadigan, ya’ni tovar belgisi iste’molchida tovar yoki uning biror-bir xususiyati to‘g‘risida tasavvur xosil qilishi zarur.

Bundan tashqari, so‘z bilan ifodalananidan tovar belgisi uchun uning yangi bo‘lishi bilan birga, oxangdorligi va talaffuzi qulay bo‘lishi xam zarur sifatlardan xisoblanadi.

Shuni qayd etish zarurki, tasviriy tovar belgisi uchun turli-tuman ranglarning uyQunligi uning o‘ziga xosligini, kishilarni o‘ziga jalb etishini va farqlanuvchi qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga rang so‘zlar bilan ifodalangan, xajmiy va qo‘shma tovar belgilari uchun xam muximdir.

**Misol sifatida biz “INTELLEKT - BIZNES” o‘quv-konsalting markazining tovar belgisiga to‘ldirilgan talabnomani keltiramiz.**

## **8-Ma’ruza. Intellektual mulkni litsenziyalash**

**Reja:**

- 1. Litsenziya bitimlarining moxiyati va ularning tasnifi;**
- 2. Litsenziya to‘lovlarining shakllari**

### **1. Litsenziya bitimlarining moxiyati va ularning tasnifi**

Litsenziya bitimi yoki litsenziya litsenziar (sotuvchi) litsenziat (xaridor)ga o‘zaro kelishilgan tijorat shartlarida intellektual mulk obyektidan foydalanish xuquqini taqdim etadigan savdo bitimidir.

Bozor tovarlari sifatida litsenziyalarning o‘ziga xos xususiyati buyumlar (moddiy obyektlar) taqdim etilayotganidan emas, balki intellektual mulk obyektlari uchun mutlaq xuquqlarning savdosi amalga oshayotganligidan iboratdir.

Aloxida ta’kidlab o‘tamizki, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha litsenziya bitimlari amalda bo‘lishining majburiy sharti ularning Davlat patent idorasida davlat ro‘yxatidan o‘tishi xisoblanadi.

Litsenziya moxiyatining ta’rifiga ko‘ra litsenziya bitimini imzolash uchun birinchi zaruriy shart litsenziarda xaqiqiy muxofaza xujjatlari (masalan, ixtiolar, sanoat namunalari uchun patentlar, tovar belgilarini ro‘yxatga olish to‘g‘risida guvoxnomalar va xokazo) bilan tasdiqlangan litsenziya predmetiga mutlaq mulk xuquqining mavjud bo‘lishi zarur.

Biroq, patentlar bilan ximoyalanmagan intellektual mulk obyektlari, masalan, nou-xau yoki tijorat sirlari xam litsenziya predmeti bo‘lishi mumkin. Bunday xolatda egasining mutlaq xuquqi raqobatchilardan sir saqlashga asoslanadi va bu litsenziya bitimining shartlariga muvofiq litsenziat o‘z zimmasiga oladigan majburiyatlar bilan ta’milanadi. Litsenziyalar bilan savdo qilishda “nou-xau” (tijorat sirlari)ni litsenziya bitimiga, masalan, patentlangan ixtiroga qo‘srimcha sifatida kiritish amaliyotidan foydalaniлади.

Jaxon amaliyotida litsenziya bitimlari odatda quyidagi eng muxim belgilardan kelib chiqqan xolda tasniflanadi:

- litsenziya predmeti;
- litsenziya turlari;
- taqdim etilayotgan xuquqlar xajmi;
- shartnomalarining maqomi va ular o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri.

Muayyan shartnomalarni tuzishda turlicha foydalaniladigan litsenziya shartnomalarining tasniflash belgilari rasmida sxema tarzida ko‘rsatilgan.

Litsenziya predmeti bo‘yicha tasniflanadigan litsenziya shartnomalarining guruxiga ixtirlar, tovar belgilari, sanoat namunalari, nou-xau, foydali modellar, seleksiya yutuqlari, EXM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalari uchun litsenziya bitimlari kiradi.

Odatda muayyan bitimning predmeti intellektual mulk obyektlariga xuquqlar savdosi (taqdim etish, sotish) bilan cheklanib qolmaydi, balki litsenziyani o'zlashtirish va undan foydalanish uchun zarur texnik xujjatlarni berish, texnik yordam ko'rsatish, shuningdek bir qator xollarda maxsus uskunalar, xom ashyo, butlovchi qismlar, namunalar va boshqalarni yetkazib berishni o'z ichiga oladi.

Litsenziyalar turlari bo'yicha tasniflanadigan litsenziya bitimlarining guruxi, o'z navbatida, quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

- intellektual mulk obyektlaridan foydalanish uchun xuquqlar boshqa savdo bitimlarning tarkibiga kiritilmasdan mustaqil litsenziya shartnomasi doirasida taqdim etiladigan sof litsenziyalar;
- intellektual mulk obyektlari uchun litsenziyalar asosiy bitimlarga ilova yoki bu bitimlar bo'yicha shartnomalarning aloxida bo'limlari xisoblanadigan yo'ldosh litsenziyalar. Xususan, kompleks uskunani yetkazib berish, pudrat ishlari, injiniring, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, qo'shma korxonalarini tuzish va boshqalar bunday bitimlar bo'lishi mumkin;
- litsenziarga litsenziyat tomonidan asosiy litsenziya shartnomasi bo'yicha olingan birlamchi bilimlar asosida ishlab chiqilgan texnika yoki texnologiya obyektlaridan foydalanish xuquqlarini taqdim etadigan qaytma litsenziyalar. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun litsenziya shartnomalariga texnik takomillashtirishlar va yangi patentlar to'g'risida kelishib olinadigan moddalarni kiritish zarur;
- kesma litsenziyalar (kross-litsenziyalar) – ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini xar bir tarafning intellektual mulk xuquqini buzmasdan amalga oshirish mumkin bo'lmaning xollarda turli patent egalari tomonidan bir-biriga patent xuquqlarining o'zaro taqdim etilishi. Bir patent egasi tomonidan boshqasiga o'z patentidan foydalanish imkonini ta'minlash maqsadida biryoqlama tartibda taqdim etilayotgan litsenziyalar xam kesishadigan litsenziyalar tarkibiga kiradi;
- majburiy litsenziyalar – patent egasi o'zi ishlab chiqqan ixtirodan uzoq muddat yoki yetarlicha foydalanmagan xamda litsenziyalarni sotishdan bosh tortgan xollarda davlat patent organlari tomonidan manfaatdor shaxsga patentlangan ixtiro, foydali model, sanoat namunasidan foydalanish uchun beriladigan ruxsatnomalar. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ko'rsatilgan vaqt uch yilni tashkil qilib, bu muddat o'tganidan keyin patent egasi litsenziya shartnomasini imzolashdan bosh tortgan xollarda patentlangan obyektdan foydalanishni istagan va unga tayyor bo'lgan ixtiyoriy shaxs unga majburiy nomutlaq litsenziyani berilishini so'rab rasmiy iltimosnama bilan sudga murojaat qilishi mumkin;
- ochiq litsenziya – litsenziyani ixtiyoriy manfaatdor shaxsga sotishga tayyor bo'lgan patent egasining Patent idorasiga berilgan rasmiy talabnomasi bo'yicha patentlangan obyektdan foydalanish xuquqini taqdim etish. Bunday ochiq litsenziyani sotib olishni istagan shaxs patent egasi bilan to'lovlardan to'g'risida shartnomaga yoki nomutlaq litsenziyani taqdim etish to'g'risida shartnomasi tuzishi shart;
- zaruriy litsenziya – mamlakat mudofaasi va milliy xavfsizligi manfaatlarida intellektual mulk obyektdan foydalanish uchun xukumat qarori bo'yicha mulk egasining roziliginisiz beriladigan ruxsatnomasi. O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha bunday qarorni Vazirlar Maxkamasi qabul qilishi mumkin, bunda patent egasiga tegishli tovon to'lash ko'zda tutilgan;
- sublitsenziya – litsenziyar va litsenziyat o'rtasidagi asosiy litsenziya shartnomasida kelishilgan shartlarda va litsenziarning roziligi bilan litsenziyat tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim etiladigan intellektual mulk obyektlaridan foydalanish uchun litsenziY.

## 2. Litsenziya to'lovlaring shakllari

Imzolanayotgan litsenziya bitimining mazmunini belgilaydigan asosiy vazifa sotilayotgan litsenziya narxini eng qulay xisoblashdir. Ma'lumki, bozor munosabatlari sharoitida litsenziya qiymatini asosan aniq bir ilmiy-texnik maxsulot, texnologiya, tovar belgisi va boshqalarga talab va taklif muvozanatini xisobga olishga asoslangan muayyan bozor konyunkturasi tartibga soladi. Demak, litsenziyar va litsenziyat o'rtasidagi muzokaralar jarayonida erishilgan narx litsenziyaning xaqiqiy narxi xisoblanadi.

Biroq, ikki tomonning nuqtai nazarlarini yaqinlashtirish uchun (albatta, sotuvchi yuqoriroq narxda sotishga intiladi, xaridor esa kamroq to‘lashga) muayyan litsenziyaning qiymatini xisoblashni o‘zaro maqbul obyektiv mezon va usullar bilan asoslash foydali xisoblanadi.

Amaliyotda litsenziya to‘lovlarining turli shaklaridan foydalaniladi:



- bitim matnida aniqlangan, qat’iy belgilangan bir yoki bir necha yo‘llar bilan to‘lanadigan summadan iborat paushal to‘lovlar
- bitim amalda bo‘lishining butun muddati davomida xar bir xisobot davri tugaganidan keyin litsenziatning litsenziarga to‘laydigan to‘lovlaridan iborat davriy ajratmalar (royalti)
- aralash to‘lovlar – paushal to‘lovlar va roylating birga qo‘sib olib borilishi.

Yuqoridagidan kelib chiqqan xolda, litsenziya qiymatini xisoblashning quyidagi usullari eng ko‘p qo‘llaniladi:

1. Bu usul muayyan intellektual mulk obyektini ishlab chiqish va uni patent bilan muxofazalash bilan bog‘liq xarajatlarni litsenziya narxiga qo‘sishga asoslangan. Masalan, litsenziarning texnik xujjatlarni tayyorlash va berish, maxsulot reklamasi, xodimlarning texnik muzokaralardagi ishtiroki va boshqalar bilan bog‘liq xarajatlari litsenziya narxiga qo‘silishi mumkin. Xarajat usuli paushal to‘lovlnarni aniqlashda keng qo‘llanishi shubxasizdir;
2. Litsenziya narxini litsenziat foydasining xajmi asosida aniqlash. Odatda, litsenziatning foydasini xisoblashda bitim amalda bo‘lgan davrda litsenziya bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan maxsulot xajmi va bu maxsulot birligini bozorda sotishdan tushgan foyda kabi ko‘rsatkichlar xisobga olinadi.
3. Litsenziya narxini roylati asosida aniqlash. Royaltining moxiyati  $R=DxP/Z$  formulasi bilan ifodalanishi mumkin, ya’ni roylati litsenziya bo‘yicha tayyorlangan maxsulot birligidan olingan qo‘sishma foyda ( $P$ )ni litsenziarga to‘lanadigan qismi ( $D$ )ning ushbu maxsulotning sotish narxi ( $Z$ )ga nisbatidan iborat.

Lekin, qo‘sishma foyda kabi ko‘rsatkichni xisoblash ba’zan qiyin bo‘ladi. Litsenziat litsenziarga litsenziyadan foydalanganlik to‘g‘risidagi to‘liq axborotni taqdim etishdan manfaatdor bo‘lмаган xolatlari xam mavjud bo‘lib, bu xisob-kitoblar aniqligini pasaytiradi. Shuning uchun litsenziyalar savdosida roylating xajmi ko‘pincha xisob-kitob yo‘li bilan emas, balki empirik – sanoatning turli tarmoqlari uchun jaxon amaliyotida o‘rnatilgan o‘rtacha roylati xajmlaridan foydalanish yo‘li bilan aniqlanib, ular standart roylitilar deb ataladi.

Royaltining xajmi berilganda litsenziya bo‘yicha tayyorlangan maxsulot birligidan olingan qo‘sishma foyda  $P=RxZ/D$  ni tashkil qiladi.

Shundan kelib chiqib, litsenziyaning xisob-kitob narxini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin: bunda:  $V_t$  – t yilda litsenziya bo‘yicha kutilayotgan chiqarish xajmi;  $Z_t$  – t yilda litsenziya bo‘yicha tayyorlangan maxsulotning sotish narxi;  $R_t$  – t yilda roylati xajmi (%); jamlash litsenziya shartnomasining amal qilish muddati bo‘yicha olib boriladi.

Jaxon amaliyotining ko‘rsatishiga roylati stavkalari o‘rtasidagi tafovut ancha katta, o‘rtacha 1-2% dan, to 20-25% gacha bo‘lishi mumkin.

Royalti stavkalari odatda obyektdan foydalanishdan olinadigan iqtisodiy samaraga to‘g‘ri mutanosib va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajasiga teskari mutanosib ravishda o‘rnatilishini ta’kidlab o‘tamiz.

## 10 ma’ruza. Sertifikatlash mohiyati va mazmuni

**Reja:**

- 1. Asosiy termin va tushunchalar**
- 2. Sinov laboratoriyalari**
- 3. Muvoqlik haqida xabardor qilish usullari**

## 4. Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlash

### 1. Asosiy termin va tushunchalar

Сертификатлаш лотин тилидан «тўғри ишлаб чиқилган» дегани

**Мувофиқлик сертификати** — ушбу маҳсулот (жараён, хизмат) техник регламентларда, стандарт талабларида, қоидалар тўпламларида ёки шартномаларда қўйилган талабларга жавоб берини тасдиқловчи хужжат

**Синов** - бирорта маҳсулотнинг қабул қилинган тартиб-қоидалар асосида бир ёки бир нечта хусусиятларини аниқлаш билан боғлиқ техник операциядир.

Синовлар юридик шахс мақомига эга бўлган **синов лабораторияларида** ўtkазилади.

**Учинчи томон** – бу етказиб берувчига (биринчи томон) ва истеъмолчига (иккинчи томон) боғлиқ бўлмаган мустақил шахс ёки ташкилот.

Maxsulotga tegishli bu bayonot ikkita ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

етказиб берувчининг  
мувофиқлик ҳақида **баёноти**

етказиб берувчининг маҳсулот  
белгиланган талабларга жавоб  
berinini tasdiqlovchi ёзма  
кафолati

**сертификатластириш**

учинчи томоннинг маҳсулот,  
жараён, хизмат белгиланган  
талабларга мувофиқлиги ҳақида  
ёзма кафолатидир

**Баёнот-декларацияда** қўйидаги  
маълумотлар келтирилади:

- баёнот-декларация бераёт-  
ганинг манзили;
- буюмни белгиланиши ва у  
ҳақида қўшимча маълумотлар;
- стандартнинг номи, русуми ва  
нашр қилинган санаси;
- шахсий жавобгарлигини  
таъкидловчи маълумот ва  
бошқалар.

мувофиқликни тасдиқлаш  
белгиланган талабларга жавоб  
berinini kafolatlайдиган,  
маълум тартиб-қоидалар  
асосида амалга оширилади

Сертификатлаш жараёнини бир  
қатор омилларга боғлиқ  

- сифат ва бевосита сертификатлашга тегишли  
конунлар мажмui;
- объектининг хусусиятилари  
(синовларни ўtkазиш усулини  
белгилайди) ва бошқалар